

MAKTAB

ADABIYOTI

XRESTOMATIYA

7 - sinf



Saida Zunnunova
MENING VATANIM

Rasul Hamzatov
VATAN HAQIDA

Mirtemir
CHASHMA BO'YIDA

Cho'lpon
MEN SHOIRMI?

Asqad Muxtor
ZARRADAN QUYOSH

Xayriddin Saloh
YULDUZLAR AFSONASI

TOSHDOTTAU



0000001313

I jild



MAKTAB ADABIYOTI

XRESTOMATIYA

Saida Zunnunova
MENING VATANIM

Rasul Hamzatov
VATAN HAQIDA

Asqad Muxtor
ZARRADAN QUYOSH

Cho'lpon
MEN SHOIRMI?

Mirtemir
CHASHMA BO'YIDA

Xayriddin Saloh
YULDUZLAR AFSONASI



7 - sinf

1 jild

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot markazi
Toshkent – 2015

2377
2391
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
YOSHDO'TAU
AXBOROT-RESURS MARKAZI

UO'K 821.512.133-1

KBK 94.3 ya 43

M 20

Zunnunova, Saida

Mening Vatanim. J. I: 7-sinf (Matn) / S.Zunnunova; Vatan haqida / R. Hamzatov; Zarradan quyosh / A. Muxtor; Men shoirmi? / Cho'lpon; Chashma bo'yida / Mirtemir; Yulduzlar afsonasi / X.Saloh. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyat-matbaa ijodiy uyi, 2015. – 200 b. – (Maktab adabiyoti xrestomatiyasi)

She'riyat bo'stonida gul ko'p, chaman ko'p. Mazkur to'plamga S.Zunnunova, R.Hamzatov, A.Muxtor, Cho'lpon, Mirtemir, X.Saloh kabi ijodkorlarning eng sara she'rlaridan namunalar kiritilgan. Ular qalbingizni zavqqa to'ldirib, Sizni o'zining sehrli bo'stoniga chorlaydi.

UO'K 821.512.133-1

KBK 94.3 ya 43

ISBN 978-9943-03-687-1

© G'afur G'ulom
nomidagi nashriyat-
matbaa ijodiy uyi, 2015



SAIDA ZUNNUNOVA



MENING VATANIM

Yuz yil umr ko'rsam,
yuz yil she'r yozsam,
Yuz yil ta'rifingni
aytsam muttasil.
Baribir, sevgili
yor rasmini
Chizmoqqa munosib
rang topolmayin.
Chamanda tentirab
yurgan rassomday,
Sening tasviringga
so'z axtararman,
So'zlar sarasidan
shu bugungiday.
Yuz yilgi she'rimni
yig'salar hamki,
Bo'lmaydi dildagi
sevgimday asil,
Ey, mening Vatanim,
mening Vatanim!





* * *

Dunyoda ne yaxshi
xislatlarki bor,
Hammasi, hammasi
senda mujassam.
Aziz tuprog'ingni
ko'zinga surtib,
Bahorda barglarga
yuzimni surtib
Insonlik hurmati
ichaman qasam:
Senga qurbon bo'lsa,
mayli, jon-tanim.
Sening shoirangman,
shu ulug' elning
Baxtini ko'zlovchi
bir jigarbandi.
Adolat, erklikni
kuylaganim-chun
Quvg'indi bo'lmayman
keng quchog'ingdan
Biz doim birgamiz,
mening Vatanim.
To tirik ekanman,
mehrimg, g'ururing
Mehnatda, rohatda
jonim payvandi,
Sen mening sevganim,
sen maqtaganim!



QIZIMGA

Jahon mening bag‘rimdami yo men jahon bag‘rida,
Yuz bahorning yellarimi sochlarimni silagan?!
Ming gulshanning gullaridan rohatbaxsh bu qo‘lchalar
Baxtga ko‘mib yuragimni, yuzlarim erkalagan.

“SHE’R YOZSAM”

She’r yozsam yuragim simobday erib,
Yuzimga balqiydi undan alanga.
Hayotday chiroyli, umrday shirin,
Hech narsa yo‘q kabi bo‘ladi menga.
She’r yozsam dunyoda hamma go‘zallik
Yig‘ilib kelganday bo‘lar qoshimga.
Nurdek tiniq o‘ylar, otashin o‘ylar,
Qo‘shiqqa aylanib kezar boshimda.

QIZIM NODIRAGA

Uyquga zor bo‘lib, mudrab tepangda,
Yarim yumuq ko‘zim ko‘zingdan uzmay
Shu azob lazzatin she’rga solaman,
Hatto pichirlamay, tinchingni buzmay.

Bitta ijirg‘ansang, nima qilsam, deb,
Yupatish ko‘yida ming to‘lg‘onaman.

Goh yotib, goh turib har bir sharpangdan,
Yuz bor mizg'iyman-u yuz uyg'onaman.

Tun yarim, qushlar ham uyquda hozir,
Suvlar ham tinganday... jimjit hammayoq.
Go'yo shabada ham yaproqda mudrab,
Qalbim allasiga soladi quloq.

Faqat men uyg'oqman horg'in, baxtiyor,
Xushbo'y nafasingga to'yamayman hidlab.
Oxir chidolmayman, uyqungni buzib,
Yuzingga ohista tegizaman lab.

Ana, so'nggi yulduz xiralashdi-yu,
Ko'kda erib ketdi, tong otdi oppoq.
Oynaga qarayman holimdan kulib,
Ko'ylaklarim g'ijim, sochlarim paxmoq.

Ammo o'zim tetik, yaxshi posbonday
Mamnunman, qalbimda viqor toshadi.
Shu elning kichkina grajdanini
Safga qo'shmoq uchun ko'nglim shoshadi.

Onaman, istayman, yetuk bo'yini,
Aql-u idrokining kamolin ko'rsam.
Ko'nglida, ko'zida, ishi, so'zida
Inson degan nomning jamolin ko'rsam.

Qizim jilmayadi uyqu aralash,
Go'yoki hislarim beradi huzur.
Oppog'im, uyqusiz o'tgan shu oqshom
Yozilgan she'r uchun senga tashakkur!



ALLA

Qunduzim desam ham oz,
Yulduzim desam ham oz,
Dunyoda nima go‘zal –
Bo‘lsa, undan o‘zing soz,
Orom ol, qo‘zim, alla.

Asalmisan, qandmisan,
G‘azal, muhabbatmisan?
Muncha shirinsan o‘zing,
Jonimga payvandmisan,
Uxla, yulduzim, alla.

Oyni olib beraymi,
Gullar terib kelaymi,
Atrofigda o‘rgilib
Shamol bo‘lib yelaymi,
Uxla, gul yuzim, alla.

Oyning shu‘lasi suvda,
Hamma narsa uyquda.
Mehrimga tovlanib ketib,
Kuylagim kelar juda,
Uxla, qunduzim, uxla.



YOR O‘TDIMI

Gullar yuzida xanda – bu bog‘dan yor o‘tdimi,
Odatin qilmay kanda, yana bedor o‘tdimi?

Ellar nechun sarsari, ketolmaydilar nari,
Ko‘nglimning moh paykari ko‘zi xummor o‘tdimi?

Rayhonga rashk qilib gul, bag‘ri qon bo‘pti butkul,
Yana rayhon hidlab ul, bundan takror o‘tdimi?

Dilda takrorlab otin, tilab umr-u davlatin,
Soyasi bo‘lib tag‘in Saida zor o‘tdimi?

HAY-HAY

Yo‘qlamagan har kuning yilcha bo‘lurmi, hay-hay,
Shunchalik shafqat bilmas dilcha bo‘lurmi, hay-hay

Xush surating bir nafas tark etmas xayolimni
Ko‘z shahlo-yu, qosh esa nilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Har so‘zda yuz andisha qilg‘um donolig‘ingdan,
Ko‘nglingning nozikligi qilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Goh xanjar, goh asaldek so‘zlarigdan dog‘damen,
Jon olib, jon berguvchi tilcha bo‘lurmi, hay-hay.

Vaslingning umidida dunyodan o‘tib borgum,
Qanoatda Saida filcha bo‘lurmi, hay-hay.



* * *

Nechog'lik ma'sumdir go'dak chehrasi,
Hali gard yuqmagan pokiza ko'ngil.
Xo'mraysang qo'rqadi, kuladi kulsang,
Oftob va shabnamda yuvilgan bir gul.

U shundoq tug'ildi, murg'ak dilida
Na gina-kudurat, na yovuz armon.
Ulg'aygach, kim bo'lur yurt-u elida
Yaxshilik yo'lida bo'larmu darmon?!

Hozir u qiyqirib ko'ngil xushlaydi,
Suyukli, ardoqli hozir nechog'lik.
Kim uni kuzatar, kim qarshilaydi,
Bundan keyingisi shularga bog'liq.





* * *

Yomg'ir savalaydi, ammo, shoshmayman,
Tomchi quyiladi kipriklarimdan.
Suv toshib oqadi ko'priklardan,
Yomg'ir savalaydi, ammo, shoshmayman.

Tabiat yuvmoqda dov-daraxtlarni,
Olam g'uborsizdek ko'zimga shu dam.
Bir yengil ruh bilan tashlayman qadam,
Tabiat yuvmoqda dov-daraxtlarni.

Atrofdan barq urar tiniqlik, tinchlik,
Havoda suzadi binafsha hidi.
Ishqilib, buzmasin poroxning dudi,
Atrofdan barq urar tiniqlik, tinchlik.

Yomg'ir savalaydi, ammo, shoshmayman,
Tomchi quyiladi kipriklarimdan.
Suv toshib oqadi ko'priklardan,
Yomg'ir savalaydi, ammo, shoshmayman.





KO'P OSUDA EDI BU OLAM

Ko'p osuda edi bu olam bir vaqt,
Dengiz ham yastanib uxlar edi jim,
Na yulduz bor edi va na munajjim,
Beozor tabiat mudrardi karaxt.

Shunda darding bilan men bo'ldim paydo,
Dardim sukunatni chil-parchin qildi,
Ishqdan oftob yasab osmonga ildi,
O'zim yaratdim-u, o'zimman shaydo.

Ipak nurlariga chirmashib shunda,
Olamga yoyildim seni axtarib,
Kunduz topolmasdan yugurib, horib,
Kuz bo'lib osmonga sochildim tunda.

Sarsari izimdan uvladi shamol,
To'lqin paydo bo'ldi talpinishimdan,
Olov nusxa oldi dil yonishimdan,
Hayot yaratardim izlarkan visol.

Qaragin, hammasi faqat sen uchun,
Ayt, yana nelarni qilarsan havas?
Dilda yonish bo'lsa, mehr bo'lsa bas,
Hamma, hammasiga yetadi kuchim.



CHO'LI IROQ

Tarixni so'zlama menga, ey odam,
Bitta chalib bergin "Cho'li iroq"ni.
Bitta chalib bergin, toki yana ham
Yaxshiroq ajratay qorani, oqni.

Bu kuy asrlarning baridan tortib
Cho'llarda toliqqan horg'in karvonday,
Ming xil taqdirlarni ustiga ortib,
Qalbindan jimirlab o'tadi qonday.

Tarixning eng olis qatlamlarida
Armonda uxlagan orzu, alamlar.
Dunyo manglayiga ajin tushirgan,
Dardni, qarilikni yaratgan g'amlar.

Sahro chechagining arang kulgusi,
Yomg'irdan jon kirgan tuproqning isi,
Hammasi o'tadi qalbimni o'yib.
Tuya bo'ynidagi qo'ng'iroqlarning
Tashnalik eslatgan jarangi bo'lib
Hammasi o'tadi qalbimni o'yib.



* * *

Yalang'och novdalar mudraydi karaxt,
Qornimi kutadi tamshanib ko'kka?
Chayir panjalarin yozib har daraxt,
Bedor qariyadek uxlaydi tikka.

Duv to'kib oltinrang yaproqlarini
Kimxob poyandozdek yo'llarga to'shab,
Nisor qilib butun jon-jahonini
Kuchdan qolgan munis onaga o'xshar.

Ba'zan tabiatning sehri-la oqib,
Olis-olislarga tashlaysan nigoh.
Ranglar jilvalanar qalbingni yoqib,
Ranglar jilvalanib yonadi nogoh.

Go'zallik sirini yashirgansimon
Tog'lar parda tutib harir tumandan,
Ajib ko'rinadi havo, suv, osmon,
Ajib ko'rinadi o'sha tomonda.

Shunaqa chiroyli ko'rinar yiroq,
Shoshilma, azizim, buncha entikma.
Avval oyog'ingning ostiga bir boq,
Biron gulni yanchib o'tmadingmikan?



* * *

Yer uzra qo'ndi oqshom,
Oy shu'lasini bir mayin.
Kel, oppog'im, kel, erkam,
Men seni allalayin.

Dudog'ing guldani xushbo'y,
Yuzlaring undan xushro'y.
Kel, oppog'im, bag'ringa
Jajji boshginangni qo'y.

Tovuq uxlari qo'noqda,
Shamol tingan butoqda.
O't-o'lanlar jimgina
Orom olar o'tloqda.

Yulduz charaqlayapti,
Oy ham yaraqlayapti.
Qizcha uxladimi, deb,
Mendan so'roqlayapti?

Yer uzra qo'ndi oqshom,
Oy shu'lasini bir mayin.
Kel, oppog'im, kel, erkam,
Men seni allalayin.



YOMG'IR SHOVULLAYDI

Yomg'ir shovullaydi, tinch, issiq uyim
Sog'inchga to'lgan, vaslingga tashna.
Yomg'ir shovullaydi, chuvalab o'yim...
Ha, yomg'ir daryomas yo emas chashma,
Yomg'ir shovullar.

Chashmalar bo'yini xayol qilardim,
Seni ko'rmoq bo'lsam, hatto bir nafas.
Gullar hid sochmasa malol kelardi,
G'unchalar bag'rini kuydirgan havas
Biz deb bilardim.

Tog'larga tirmashib, nurga chirmashib,
Bulutlar qo'ynida yurardik suzib.
Yellarga tutashib, entikib, shoshib,
Taq, deb yulduzlarni berarding uzib...
Eh, orzu, orzular.

Xayollardan qanot bog'lab o'ziga,
U yillar chaqmoqdek bir yonib so'ndi.
Mushtoq-u zor qilib endi iziga,
Qirov bo'lib sochga bildirmay qo'ndi,
Zorman iziga.

Yomg'ir shovullaydi, seni kutaman,
Bir choynak issiq choy, dilkash bir suhbat –
Evaziga hozir jonni tutaman,

Endi shu qalbdagi sog'inch, muhabbat,
Dilkash bir suhbat.

Egning, sochingdagi yomg'ir suvlarin,
Billur deb atamay artaman qoqib.
Isitmang bor bo'lsa dilim qiynalar,
Tabletka tutaman rangingga boqib,
Kuyib, tutaqib.

Sensiz hamma narsa bo'm-bo'sh, huvillar,
Yomg'ir shovullaydi, yomg'ir shovullar...


* * *

Quyucq kipriklarga qo'ngandek uyqu,
Shahar ichra sekin tun cho'kdi vazmin.
Endi chiroqlardan to'kilgan yog'du,
Ma'yus siypalaydi yo'lovchi izin.

Yana Zuhro chiqdi koshonasiga,
Ko'zida qotgan yosh, labida kulgu.
Toj qilib taqsam der birov boshiga,
Birovga bir chaqa o'tmas, qalbaki.

Tunni tong quvladi, yulduzni quyosh,
Shabnam ham ohista o'chdi bir yonib.
Gullar sergaklanib ko'tardilar bosh,
Musicha patini tarar quvonib.

Bu so'lim sabohda nelar kechdiykin,
O'ylayman, hayratda termilaman jim.
Nechta yulduz yonib, nechta o'chdiykin,
O'ylamagan ma'qul, ma'quldir balkim?!





QALAM

Qog'ozni madh etsam, sen qilma ta'na,
Bilaman, qaddingni ko'p yo'ndim, bukdim.
Qora qoshlaringni ayovsiz to'kdim,
Baribir go'zalsan, go'zalsan yana.

Qalbindagi ishqni, o't ezgulikni,
Takrorlay-takrorlay bo'lasan ado.
Ayt, senga, azizim, kim qilmish ato
Buncha fidoiylik, bu go'zallikni?

Sensiz kar ham soqov bo'lurdi qog'oz,
Dilimni imonsiz anglagan do'stim.
So'zimni sabot-la poylagan do'stim,
Yozaver, qorayib, kuyib, yonib yoz!

DARYO BO'YIDA

Bir yonda charxpalak aylanar sekin,
Ko'zalar suv to'kar yog'och ariqqa.
Bir tomonda motor patillar yakka,
Daryoni shimirib sug'orar ekin.

Bobolarning o'tkir va lekin sodda
Zehniga sukutda men bo'lib maftun.
Nafasiga quloq solsam bugunning:
Shiddatkor, talabchan, sezgir g'oyatda.



BAHOR

Husningning menchalik shaydosi yo'qdir.
Menchalik to'ymagan gadosi yo'qdir.
Ko'kda o'yin qilgan sho'x qaldirg'och ham,
Yashillik yugurgan ham o't, og'och ham,
Bo'tana suvlarning yuzidagi gul,
Qirdagi lola-yu, tog'dagi sunbul
Qalbimga soladi rashksimon tuyg'u,
Qalbimga soladi rashksimon g'ulu.
Oydinda mudragan behi gulining
Billur kosasiga sig'olsam deyman.
Yulduzdan dur taqib, yana qolganin
Qo'ynim, etagimga yig'olsam deyman.
G'unchalar labiga beozor tegib,
Tollar bargagini tortqilab, egib
O'ynagan yellarga rashkim keladi,
Yellardek tog'lardan oshgim keladi...
Hislarimni bo'ldi shu dam ajib hol:
Bir butoq tepamda silkinib xushhol,
Sekin shivirladi: – Sen, ey odamzod!
Bizlar sening uchun bo'lganmiz bunyod,
Asli senga mening rashkim keladi.



* * *

Hasad nimaligin bilmayman hanuz,
Hayot bundan so'ng ham siylasin shunday.
Bilmaganim uchun qilmayman, afsus,
Nazarimda, ul his zimiston tunday.

Ammo, sevdim jonni uzib bergundek,
Ipaklardan xayoliy taxtlar to'qidim.
Qalbim tiniq suvda titragan nurdek
Gullar yaprog'idan qo'shiq o'qidim.

Yomon ko'rdim yana, jirkandim hatto,
Vujudim qaqshatdi ba'zida g'azab.
Ammo, ko'rolmaslik... Mening nazdimda,
Hamma azoblardan og'irroq azob.

Seningsiz o'tganda yillardek har dam,
Olam tuyulganda bo'm-bo'sh qutiday,
Mehnat og'ushidan izladim orom,
Xudbinlikdan shunday olisda o'tdim,

Shundan, ko'nglim doim osoyishta, tinch,
Baxtimning tojidir yorug' o'ylarim.
Shundan, kemirmaydi dilimni o'kinch,
Shundan, faqat shundan ravon yo'llarim.



YOMON QILIQ

Bolalarga

Qo'ng'iroq tugmasini
Erkin bosdi-yu, qochdi.
Ozgina vaqtdan keyin
Bir kampir eshik ochdi.

Alangladi atrofga,
G'udrandi koyinib.
Unga ko'p malol keldi
Erkinning bu "o'yini".

Hech narsa bilmagandek
Olisda turar Erkin.
So'ng boshqa darvozaning
Oldiga borar sekin.

Yana bosar tugmani,
O'zi g'izzillab qochar.
Gohida yosh, goh qari
Albatta eshik ochar.

Qaraydiki, hech kim yo'q,
Kirib ketadi gapsiz.
Lekin bilar, bu ishni
Qilgan biron odobsiz.



SENI O‘YLAGANDA

Yillar o‘zi bilan shodlik va ishqni,
Sudrab ketolmaskan yo‘qlik qa‘riga,
Shu kunda negadir o‘y layman seni,
Negadir ketmaysan ko‘zdan nariga.

Ko‘zingni sevardim, juda sevardim,
Lekin uyalardim, boqolmasdim tik.
Oldingda boshimni egib turardim,
Ortingdan termilib qolar edim tek.

Bolalik havasi desam u chog‘ni,
Chinakam ishq ekan endi tushundim.
Seni o‘yladim-u, qalbidam ilhom
Tug‘yon qila ketdi, qololmadim jim.

Seni o‘yladim-u, nurga burkandi
Yuz turli rang bilan tovlanib olam,
Qorlarni ko‘tarib binafsha undi,
Sening xayolingga qalb sho‘ng‘igan dam.

Seni o‘yladim-u, rohatbaxsh shamol,
Yuzdan ajinlarni sidirib ketdi.
Sochga oralagan oqni yuldimi,
Har qalay yoshlikni qidirib ketdi.

O‘y layman, o‘y layman, ne uchun seni,
Unutib bo‘lmaydi, ne xislating bor?
Sababi, azizim, ko‘ngling va ishqing
Juda toza ekan, juda beg‘ubor.



* * *

Bahor shamoli esar,
Noz uyquda dov-daraxt.
Bahor shamoli esar,
Novdalar hali karaxt.
Yalang'och butoqlarga
Qo'yib mayin yuzini,
Shivirlab qulog'iga
Aytarmi dil so'zini?!
Ba'zan qahriga olib
Chayqaltirib o'tadi.
Gohi silab, erkalab
Taltaytirib o'tadi.
Gohi araz qilganday
Jimib ketadi birdan.
Yana yelib paydar-pay
Qaytadi dala, qirdan.
Orom bermaydi bir zum,
Goh ishq so'zlab, goh ertak.
Novdalarda tabassum
Qilmagunicha kurtak.





* * *

Bir olma kelardi to'liqinda o'ynab,
Qirmizi yonog'i tortadi nigoh.
Tutolmasdan kimdir oqizoq o'ynab,
Olis sohilida, balki urar oh.

Bo'tana to'liqinlar ko'madi ba'zan,
Ammo yonog'iga yuqmaydi gardi.
Yiroq tushib borar to'liqinda suzib,
Kimningdir armoni, kimningdir dardi.

Kimdir tutib olar uni albatta,
To'liqinlarga yozib kuchli qulochin.
Husniga suqlanib ko'tarar kaftda,
Ehtimol, kutmoqda shunday bir lochin.

Balki, bir tishlar-u otar tuproqqa,
O'ylab ham o'tirmas, ko'rmas tushida.
Ammo u lahzalik o'yindan yiroq –
Tushgan bir kimsaning pok ishq'i edi.

* * *

Tong bo'zarib kelardi, yulduzlarning jamoli
Yana ham yashnab bir dam ochilganday tuyuldi.
Tong yorishib kelardi, go'yoki shu yulduzlar
Koinotning boshidan qunduz bo'lib quyildi.



MEHR ISTAB

Men na davlat, na baxtdan kamchil,
Na pul-u mansabning quli, oshnasi.
Menga chin dilingni, dilingni ochgil,
Men yolgʻondan xoli soʻzning tashnasi.

Shunday soʻz aytgilki, qanot bogʻlayin,
Tanamdan arisin dard bilan armon.
Shunda seni oʻzim bir ardoqlayki,
Faqat sen gapirma, gapirma yolgʻon.

Dilim mehr toʻla tiniq bir chashma,
Hali ochilmagan ming bir koʻzi bor.
Sen shunday bir soʻzni aytgil, adashma,
Uni ochadigan, axir, soʻzi bor.

Ipak ham boʻlaman, boʻlaman boʻston,
Huzurbaxsh shabada, tikansiz bir gul.
Yaxshi-yomon kunda yagona doʻstlar,
Xullasi sen boʻlib qolaman butkul.

Men na davlat-u na baxtdan kamchil,
Tabiat ranjitgan na biron xasta.
Menga chin dilingni, dilingni ochgil,
Qoshingga keldim men ishq, mehr istab.



NILUFAR

Zilol suv bag'rida ajib guldasta,
Yoki suv parisi ko'rindimikan?
Yuzida billuriy tomchidan parda,
Balki, tabiatning o'zi rashk qilib,
Nazardan saqlashga urindimikan?
Ha, shunday. Tabiat o'zi ham shaydo,
Beqaror yel emish tog'-u toshlarda.
Tun-u kun termilib o'tmabdi hatto,
To'y mabdi iboli qarashlariga.
Oxiri g'arq qipti ko'zyoshlariga.

* * *

Yalang'och novdalar mudraydi karaxt,
Qornimi kutadi tamshanib ko'kka.
Chayir panjalarin yozib har daraxt,
Bedor qariyadek uxlaydi tikka.
Duv to'kib oltinrang yaproqlarini
Kimxob poyandozdek yo'llarga to'shab,
Nisor qilib butun jon-jahonini,
Kuchdan qolgan munis onaga o'xshar.



URUG‘

Beo‘y uloqtirdi uni allakim,
Bilmadi, orzusi faqat shu edi.
Ona Yer ko‘ksiga labini bosib,
Endi men yashayman, o‘lmayman, dedi.

* * *

Gilos shoxlariga qor qo‘ngan kabi,
Shaftoli kiyibdi ko‘ylak pushtirang.
Tantiq shabadaning tutgan asabi,
Novdalar qaddini ko‘tarar arang.
Nafis gulkosalar to‘lg‘onar tinmay,
O‘tkinchi yomg‘irdan yonog‘ida yosh.
Oxir berolmayin shamolga bardosh,
Ariga bol tutdi shoshib, bildirmay.
Quruq vujudini topshirdi yelga,
Shunga o‘xshab ketar chin inson umri.
Ajali yulib olsa ishq, ko‘z nuri,
Yuragining tafti qoladi elda.





QOG‘OZ

Qalam tutganimda birinchi marta,
Oppoq chehra bilan kulib qarading.
Do‘st-u sirdoshlikka doim yarading,
Tashakkurlar aytay senga ming qayta.

Eng yaxshi hislarim, tuyg‘ularimni
Bag‘ringga topshirdim, oqligingdanmi,
Ezgulikka hamroh, pokligingdanmi,
Hatto yashirmadim qayg‘ularimni.

Buyuk niyatlarni asrab, ortmoqlab
Asrlarga ko‘prik bo‘lgan o‘zingsan.
Gavharga kiprik bo‘lgan o‘zingsan,
Yomonni fosh etib, elga la‘natlab.

Qancha qoralasam, yuzingni shuncha –
Yuzimni oq qilding xolisligimdan.
Elga el, yomonga olisligimdan,
Do‘st bo‘ldik, oppog‘im, o‘la-o‘lguncha.

* * *

Qatra singsa hamki yerning bag‘riga,
Loaqaq qonadi tuproq bir chindim.
She‘rlarim qaysidir dilning qa‘rida
Bir orzu, ezgu bir niyat uyg‘otib,
Bir tug‘yon, go‘zal bir hisni qo‘zg‘atib
Qatradek yo‘qolsa, men rozi edim.



RASUL HAMZATOV



VATAN HAQIDA

1

Tushuna olmasdim, tushundim bukun –
Kerak emas menga hech bir tarjimon –
Qushlar kuzda uchib ketarkan, nechun
Yig‘lar ular achchiq,
Kuylagay nolon.

Men avval o‘ylardim: besabab alam –
Chekar changga botib barglar kuz mahal.
Ona shoxin o‘ylab chekar ular g‘am –
Men endi angladim,
Bilmovdim avval.

Bilmasdim va lekin oppoq bo‘lib bosh,
Yillar o‘tib, mana, tushundim alhol,
Ne uchun cho‘qqidan ko‘chgan kichik tosh
Buncha bo‘zlab yig‘lar
Tiriklar misol.

Seni o‘z tug‘ilgan yurtingdan yiroq –
Yo‘llar yoxud taqdir olib ketgan dam
Vatan sevinchi ham, angladim, firoq.
Achchiq qo‘shig‘i ham,
Nursiz ishq i ham...

Qo'ng'iroq solsa dovrug,
 Sharaflayman noming ham.
 So'zdan shirin hech narsa yo'q,
 Yo'q sevimli bir ohang.

Tinsa mening qo'shig'im gar
 Kechasimi yo tongda –
 Demak, meni o'ldi denglar,
 Yo'qman yorug' jahonda.

Burgut misol uchdim ko'klam
 Ko'zlab ovul – tomingni.
 Qanot qilib olgan yelkam
 Sening qutlug' nomingni.

Sinsa nogoh qanot bir kech
 Qora yovuz bo'rondan –
 Meni tirik izlama hech
 Unda yorug' jahondan.

Xanjaringman. Jangda doim –
 Men isyonkor, ko'p qaysar.
 Shoning uchun men fidoyi,
 Qora kunlar kelsa gar.

Jangchilarning safida men
 Turmasam gar baxtsiz on –
 Demak, tirik topmassan sen,
 Yo'qdir mendan nom-nishon.

Yot yerlardan o'tmoqdaman,
 Chalinadi yot lahja,

Men besabr kutmoqdaman
Diydor paytin har lahza.

Gar sochmasa ko'zing shodlik
Bizlar uchrashgan onda –
Yurolmasman, demak tirik
Endi yorug' jahonda.

3

Neni kuylar vagonlar g'ildiragi,
Qushlarning chug'uri,
Qayinlar bargi?
Vatan haqda kuylar tanho vatanni.

Ko'kda uchib o'tayotgan
Bulutlarda ne o'kinch?
Ketayotgan kemalarda qay sog'inch?
Vatan o'kinchidir, vatan sog'inchi.

Achchiq kunlar, g'ussa va zordan
Kim asrar bizni?
Kim qutqarar? Kim berar yordam?
Birgina vatandir. Birgina vatan...

Omad chopgan paytda biz,
Tantanali qaydda biz,
Ne haqda o'ylaymiz, neni ataymiz?
Vatan haqida so'z, sen haqda, Vatan.

Baxtingni, qayg'ungni kim ko'rsa baham –
Yulduz bo'lib porlaysan
Unga tunda ham,
O, Vatan!..



SEN MENING HAYOTIMSAN

Menimcha, bu hayot ajoyib narsa.
Ko'rsatur bir kunda ming turli maqom.
Goh g'amdan u meni tosh qilib qo'ysa,
Goh bola shodligin qiladi in'om.

Goh qushday uchirar balandga, qirga,
Goh cho'qqidan yerga yiqitib tashlar.
Goh meni temirday kirgizar yerga,
Goh arqon singari toblar-u eshar.

Goh g'am, goh shodligin solar ko'krakka,
Goh u pichoq charxlab, damini yakbor –
Ko'ksimga to'g'rilab, sanchar yurakka...
Yurakda bo'lsa-chi, sening noming bor.

Sen shu hayotimga o'xshaysan, sanam,
Goh sitamkor, goho mehribon, inoq.
Qo'lingdan keladi yerga tiqmoq ham,
Yer uzra tutmoq ham misoli bayroq.



TOKI BU YER AYLANAR EKAN

Quyosh ichdim suvdek, tashnalab,
Yillar osha tashlarkan qadam:
Tongda yonib chiqqandan boshlab,
Oqshom yonib botganga qadar.

Odamlari serg'ayrat, bardam
Va tog'lari mag'rur o'lkamda
Tiniq irmoq, muz chashmalardan
Yulduzlarni ichdim qadamda.

Ko'kning zumrad piyolasidan
Vodiylarda ko'ksimni kerib —
Orombaxsh tog' havolaridan
To'ygunimcha ichdim simirib.

So'qmoqlardan o'tarkan, tog'da —
Cho'kka tushib kappaladim qor.
Mehr bilan men o'pgan chog'da
Yo'llarimda erib ketdi qor.

Bahorlarni ichdim men bolday,
Ko'milganda gullarga har yoq.
Qirchillagan sovuq Shimolda
Ayoq ichdim misoli aroq.

Tog'lararo bamisoli may
Ichganimda momaguldurak,
Xuddi rangin qadah zehiday
Tovlanardi oltin kamalak.

Na'mataklar chechaklar otib,
Qoyalardan xmel cho'zsa dast,
Shu tik qoya ustida yotib,
Hidlaridan bo'lar edim mast.

Maftunman yer go'zalligiga.
Olqishlayman, qilaman qulluq.
Shaydosiman, jon fido unga,
Qo'shiq ichdim — aytganday qo'shiq.

Inson qalbi murakkab narsa;
O'tirganda men do'stlararo,
Xursandlikda ichdim bol bo'za,
Xafalikda ichdim talx sharob.

Ermak uchun ichgan emasman,
Bois bo'lgan shodlik va yo g'am.
Xirosima kulin ko'rganman,
Festivallar kulgisini ham.

Ko'piklardan pivo yuzini
Puflab o'zin ichmoq odatdir.
Shunday ichdim hayot mag'zini,
Hayot mag'zi — bu haqiqatdir.

Sevib, kulib hamda avaylab,
Har kunimni ichaman oppoq,
Ertaga men yana tashnalab,
Shudir hayot qonuni, o'rtoq.

Bu dunyodan bir kun ketaman
Tashnaligim qonmay g'ashlikda,
Toki bu yer aylanar ekan,
Yashar inson shu tashnalikda.

Yulduzlarga kecha-kunduzlar
Raketalar uchdi basma-bas.
Ey odamlar – yuksak yulduzlar,
Sizga uchib yetsam, menga bas.

QIRDA SO‘LDI GUL

Yashil qirda o‘sdi lolaqizg‘aldoq,
Yam-yashil o‘tloqda, jar yoqasida.
Nega topolmayman, izlayman biroq
O‘sha qizg‘aldoqni – qor ko‘rparasida.

Nahot, orqasiga qaytmas, kelmas yor,
Nahot, endi oynak chertilmas uzoq?
Nahot, hamma yoqni qoplar qalin qor,
Nahot, chechaklarga qoplanmas o‘tloq.

Oynakda o‘tirib, yo‘lga qarayman,
Tokay, men intizor yonaman yolg‘iz?
Oppoq qor yog‘adi, yog‘adi hamon,
Erta-kech eshikka yel urar g‘iz-g‘iz.

Yorim etigining bosgan izlari
Qachon tushar oppoq qorga — yo‘lakka?
Sovuqdan oqarib kelsa yuzlaring,
Quchib bosmasmidim issiq yurakka?

Tokay yo‘l kutaman, ko‘zim intizor,
Tokay eshigimda huvillar firoq?
Tokay derazamga boqsam, qor-da, qor,
Qachon yashillanib gullaydi o‘tloq?

ONA TILIM

Ajabo! Tush degan narsa qiziq-da,
O'lib qolganmishman tushda nogahon.
Ko'ksimda qo'rg'oshin, quyosh tig'ida,
Tog'lar orasida yotibman bejon.

Uzoqda sharqirab soylar oqmoqda,
Borliqda bir ajib dilbarlik hokim.
Men esam o'ylayman yotib tuproqda,
Mana shu tuproqqa qo'shilar xokim.

Men o'lib yotibman kimsasiz, unut,
Hech kimsa qayg'urmas va chekmas yohu.
Faqat cho'qqilarda qurqurar burgut.
Faqat vodiylarda ingraydi ohu.

Navqiron yoshimda bo'ldim-ku ado,
Otash yuragimni o'ydi axir o'q.
Na onam, na yorim bermaydi sado,
Do'st tugul, hattoki yig'ichi ham yo'q.

Fig'on otiladi jonsiz bag'rimdan,
(Go'yo fig'on bordek murda dilida.)
Shu payt ikki kishi o'tdi naridan,
Quvnoq suhbat qurib avar tilida.

Men-ku bu dunyodan ko'z yumdim mangu,
Ular kulib-kulib so'zlashar borin.
Qandaydir Hasanning turfa ishi-yu,
Qandaydir Alining sho'x kirdikorin.

Avar so‘zin tinglab kirdi menga jon,
Ohista tirildim va shunda bildim:
Meni tuzatolmas hech dori-darmon,
Jonimga Masihdir shu ona tilim.

Mayli, kim qay tildan zavq-u shavq olsa,
Mening o‘z tilimga ming jonim fido.
Erta ona tilim agar yo‘qolsa,
Men bugun o‘lishga bo‘lurman rizo.

Mayli, qashshoq bo‘lsin, mayli, behasham,
Lekin mening uchun aziz va suyuk.
Jahon minbaridan yangramasa ham
Ona tilim menga muqaddas, buyuk.

Otashin Mahmudning yoniq she‘rini
Nahot tarjimada o‘qir qishlog‘im.
Nahot men avarning so‘nggi shoiri,
Shumi edi mening ezgu murodim?!

Sevaman hayotni, dunyo ko‘rkini,
Muhabbatim cheksiz barcha el uchun.
Hammasidan aziz ona-yurtimni
Avarcha kuyladim yetganча kuchim.

Uzoq Saxalindan Boltiqqacha to
Qalbimda ko‘raman hur Vatanimni,
Har qayda qilayin unga jon fido,
Lekin o‘z yurtimga qo‘ying tanimni.

Yurtdoshlarim turib qabrim oldida
Ko‘rsatsin avarning shoiri shul deb.
Elim yodga olsin ona tilida
Hamzat Sadasaning o‘g‘li Rasul deb.

KENJA NEVARAM SHAHRIZODGA

Nega yig'layapsan, ayt, qo'zichog'im,
Nima bo'ldi? Yomon tush ko'rdingmi yo?
Otang bor, onang bor – suyangan tog'ing,
Boshingda girgitton tevarak dunyo.

Ota-yu onamdan ayrilib, ne tong,
Ko'p ko'rdim qismatning ozorin qattiq.
Yig'lasam yarashar men – yetim bobong,
Nega sen bunchalar yig'laysan achchiq?

Bilmaysan sen hali xusumat nima,
Aldov, xiyonatdan emas holing tang.
Toza bu ko'nglingda g'am qolmas sira
Allasin aytganda mehribon onang.

Do'stlarni ko'rdim men iymonsiz taqir,
Dushmanlar yo'limni to'sdi g'ov bo'lib.
Sen nega yig'laysan? Yig'lay men, axir,
Ko'nglim yig'ilarga ketdi-ku to'lib.

Sen urush neligin bilmaysan mutlaq,
Yondi olovida barcha tirik jon.
Sening boshing uzra nur sochar har choq
Tinch va osoyishta lojuvard osmon.

Urushdan qaytmadi ikkita akam,
Eslasam, ko'zimdan sizadi namlar.
Haqqim bordir mening tinmay yig'lasam,
Sochim oqartirdi adoqsiz g'amlar.

Bola yig'isida ma'no bor ekan,
Tinglasam, shunday der u mitti yurak:
«Siz ko'rgan azob-ku o'tmishda qolgan,
Men uni ertaga tortishim kerak!»

YO'LGA CHIQRAR BO'LDIM

Yo'lga chiqar bo'ldim, xayr, oyjamolim,
Nimam bor, qoldiray senga barini.
Senga qoldiraman bahor shamolin,
Qushlarning tongotar qo'shiqlarini.

Senga qoldiraman oy shu'lasini-yu
Rang-barang yashnagan o'rmon gullarin,
Kaspiyning tugamas ashulasi-yu
Dengizga shoshilgan Kaysuv kuylarin.

Men olib ketmayman Suvloq chashmasin,
Olib yurolmayman yo'lda bularni.
Peshonangdan o'pgan quyosh shu'lasini,
Etagingni quchgan o't-o'lanlarni.

Hech narsa olmayman men o'zim bilan,
Senga qoldiraman barini, erkam;
Har ikki yog'ida gullar anqigan –
Kamarday o'ralgan so'qmoqlarni ham.

Qoldiraman senga yomg'ir va tuman,
Samoni, turnalar aytgan qo'shiqni.
Shunda ham, ko'p narsa olib ketaman:
Olib ketaman men — sen bergan ishqini.

VATANIM HAQIDA

Men aylandim qariyb yer sharin.
So'raydilar ba'zi paytlarda:
Bormi chetda qarindoshlaring?
Bo'lsa qaysi mamlakatlarda?

Tog' ovuli tomidan yaqqol,
Ko'rinadi, butun yer yuzi,
Istambulda munkillagan chol
Xuddi mening otamning o'zi.

Jim, xaroba bir tor ko'chada
Tasodifan duch keldim unga.
U, o'g'lini ko'rganday xuddi,
Umid bilan boqqandi menga.

Taajjubmas, kichik qatrada
Ulkan quyosh aks etar aynan.
Bir xotinni ko'rdim Kaprida,
Xuddi mening onamga monand.

U turardi dengiz bo'yida,
Ol nurlarin sochar edi tong.
Qo'lin silkib qoldi quyida,
Biz jo'nar choq — to'lqinlar tomon.

Bir kuz fasli Parijda bir qiz
Tutdi menga qizil chinnigul,
Parijga men ana o'sha kez
Qo'yan edim chindan ham ko'ngil.

Yashirmayman, yo'q, yashirmayman,
Maki¹ bo'lib kurashgan qizni

¹ M a k i — Fransiyada nemis fashistlariga qarshi partizanlik harakati qatnashchilari.

Haqim bordir singlim desam man,
Nasabimdan u asli o'zi.

O'ylar edim Yunonni, unda –
Halok bo'lgan jangchiday Bayron...
Mard Glezos – inim shu kunda
O'sha yurtida asiri zindon.

Men bekorga dunyo kezmadim
To'lqin otgan ummonlar oshib.
Ozod bo'lgan afrikalikni
Tabrikladim quchog'im ochib.

Qarindoshim ko'pdir, besanoq,
Buning uchun yurtimga rahmat...
So'raydilar ammo ba'zi choq:
– Asirlikda bo'ldingmi, qay vaqt?

Afsusim yo'q, rost aytsam hali,
Siz ishoning mening so'zimga:
Chexlar meni, do'stlik tufayli,
To'la asir qildi o'ziga.

Bolgarga ham berdim chin ko'ngil,
Dilda bundan mamnunlik izi.
Rus soldatin qabridagi gul
Qozonlikning guliday qizil

Kengayganday menga yer shari,
Faxrim ortar – notinch dunyoda,
Kundan-kunga bo'lib ziyoda,
Ko'paymoqda qarindoshlarim.

GO'ZAL QIZLAR

Muhim burchni o'tay deb men ham,
Ba'zan yaqin do'stlarim bilan,
Uydan chiqib kech yo subhidam
Uzoqlarga borib qolaman.

Unda do'stlar yetaklar meni,
Mehmonga lutf har yerda odat.
Shaharning eng soz joylarini
Ko'rsatishar navbatma-navbat.

Elta boshlashadi vayronalarga:
– Devorlar, boq, qanday mustahkam.
Eltishadi butxonalarga,
Qolmas to'p-u to'pxonalar ham.

Toqatim toq.
Sir bermayman hech,
Ammo, do'stlar bilsami shu choq:
Gulgun yonoq qizlar kulgichi
Diqqatimni tortadi ko'proq.

Qal'a ko'rdim Terek tomonda,
Uchmas bo'lib yodimda qoldi.
Bunga sabab, qal'a yonida
Bir qiz mening aqlimni oldi.

Yerevanda obida uzra
Bir she'r o'ylab surardim xayol.
Diqqatimni tortdi o'ziga
Maro nomli bir sohibjamol.

Men sevaman hamma qizlarni:
Uyatchan va mehribonlarni,
Vafoli-yu vafosizlarni,
Yer parisi, jonajonlarni.

Qizlar, sizni ko'rsam, men deyman,
Olimlarning xato — isboti
Ularga hech ishongim kelmas:
Maymun emas insonning zoti!

Ba'zan, g'amdan yuzlarim sarig',
O'tli qayg'u ko'nglim yoqib der:
Hayot nima — eski bir tarix,
Bahosi ham yarim chaqadir...

Shunday choqda,
 bir go'zal qizning —
Tabassumi baxsh etur hayot.
Dunyo aksi bo'lgan shu yuzning
Yog'dusidan dil bo'lur obod.

Qizlarni biz gulga qilib teng,
Chiroyiga bo'lamiz asir.
Qiz sevmagan odamlar, ayting,
Hayotsevar bo'larmi, axir?

Shu she'rni yozar ekanman,
Bir qiz bo'ldi qarshimda paydo.
O!.. Qalamim tushdi qo'limdan,
Qizlar, yashang turguncha dunyo.



ONAMGA

Tog‘da o‘sdim,
shumtakaligim
Bilar edi yaqin-u yiroq,
Qaysar edim, bas kelmas hech kim,
So‘zlaringga osmasdim quloq.

Biroq yillar o‘tdi...
o‘tdi o‘t yoshlik,
Hech narsani pisand qilmasdim.
Endi bo‘lsa huzuringda tek,
Bir go‘dakdek sezaman o‘zim.

Ikkalamiz tanhomiz, mana,
Qalbidam yo‘q g‘am-g‘ashdan nishon
Sening yumshoq kaftingga yana
Oqsoch boshim qo‘yay onajon.

Dil o‘rtanur, dilimda g‘ash bor,
Boshboshdoqlik qilgandir asir.
Durustgina senga e‘tibor —
Qilolmadim, bu emasdir sir.

Hayot bu dam bo‘lib girdobday,
Olib ketur komiga solib.
Dil siqilur yana paydar-pay,
Onam, seni unutdimmi deb.

Sen bo'lsang-chi, qilmasdan ta'na,
Ko'z tashlaysan xavotirlanib.
Xo'rsinib goh, bildirmay ona,
Artasan ko'z yoshing o'rtanib.

Yulduz so'nggi manzili tomon
Uchib borar solib ko'kka iz.
O'g'ling kelib, qo'yar, onajon,
Oq soch boshin kaftingga bu kez.

* * *

Bizlarda nimaki bo'lsa yaxshilik,
Shularning hammasin jamidir yoshlik.
Dil o'ti, tortishish, murosasizlik
Tez o'tib ketarmish besh kunlik yozdek.

Yosh o'tib o'zgarsa bir oz rang-u qut,
Yoshlik olovligi bo'larmish unut.
Yo'llar, tashvishlardan toliqib bir payt
Bo'lib qolarmishman men ham tinch, loqayd.

Vazmin bo'larmishman va salobatli,
Izzat-u g'iybatga befarq, toqatli.
Bir piyola choyga chorlab mehmonni,
Ajratmas emishman do'st-u dushmani.

Shunday kechar bo'lsa keksaygan chog'im,
Hozir toyib ketsin, mayli, oyog'im.
Loqayd yashamoqdan ko'ra soyaday,
Yaxshi hozir qulab tushmoq qoyadan.



DO‘STLIK HAQIDA QISSA

So‘rsalar mendan agar: «Ne bilan hayot aziz?»
«Yov ko‘z yoshi, do‘stlarning quvonchi-la»,—
deyman tez.

Mening yurtim tik qoya, ulkan toshlar aro jo,
Dovrug‘i ancha katta, yeri kichikdir ammo.

Ertakdagi bog‘ emas, kam hosilli yeri bor,
Do‘stlikdan qudrat topmish, sevgisi hur va bisyor.
Bir kun shu qorli tog‘lar kabi sochi oppoq chol
Qazo chog‘i kelganin payqab bo‘libdi behol.

Biroq uni o‘lim band qilib olmoqdan avval,
Kechgan umrin so‘roqlab, beribdi shunday savol:
«Qanday yashab, ne tahlid o‘tkargan eding umr,
Qani aytib ber, – debdi, – tortinmasdan birma-bir».

So‘ylay boshlabdi sho‘rlik kelgan choqda so‘nggi on
Ko‘rgan-kechirganlarin qisqacha qilib bayon.
O‘zin pok asraganmish, bo‘lmayin deb nobakor,
Gunoh yo‘lga kirmabdi, ichib-chekmabdi zinhor!

Erta tongdan to oqshom kelgunicha bechora
Besh vaqt namozin o‘qib, yeb-ichibdi uch bora.
O‘g‘rilik ne bilmabdi, ne bilsa bildirmabdi,
Halol-u pok yashabdi, olmabdi ham bermabdi.

O'lim tinglab chol so'zin debdi sodda, beparvo:
«Ha, yashabsan, ey ota, go'yoki bir avliyo.
Ey keksa, soching o'xshar ulkan qorli tog'larga,
Qilgandirsan ezgu ish dil tortar o'rtoqlarga.

Shul sababdan ularning ko'nglin qilmay deb vayron,
Ortga suray qazoying muhlatini, bobojon.
Qilib har bir eng yaqin do'stlaringdan armug'on,
Bir yildan umrin olib, senga berayin, quvon!»

Murdadek bo'zaribdi cholning yuzi shu onda,
Do'sti tugul yo'q ekan dushmani ham jahonda.
O'lim qilibdi xitob:
«Unday bo'lsa, ey dono,

Tirik yursangda o'lik ekansan-ku doimo.
Hozirlik ko'r, men bilan birgalikda ketursan,
Kimga ham darkordirsan, kimni ham shod etursan?»
«E, o'lim, so'zlaringni maqbul deb tan olurman,

Ashaddiy yov bo'lsang ham, bu gaping haq
bilurman».
Insondirmiz, demakkim, do'stlarsiz umr mahol,
Do'stlarsiz qazo topmoq undan ham og'ir, malol.

Do'stlarsiz kichik xalqim yanchilardi batamom,
Ulug'landi do'stlikdan, do'stlar bor, yashar omon.
Bizlarga do'stlik darkor, u haqda qo'shiq darkor,
Havodan ham, nondan ham shunga mushtoqmiz mish
bor.



ERKAKLAR

Ba'zilar bo'ladi havoyi va puch,
Ammo, popoq kiyib, kekkayar doim.
Ishq deydi:

– Barini qiling menga duch,
Aniqlab beraman asl erkak kim.

Uchardek mo'ylovin burar-u ammo,
Ba'zi bir kimsalar bo'ladi nomard.
– Erkakman, deyishga haqlimi hamma,
Tekshirib ko'ramiz, – deydi falokat.

– Ko'ramiz! – hayqirar to'lqinlar shu choq,
Tungi osmon birdan yorishib ketar,
Paydo bo'lar bo'shliq uzra bir so'qmoq
Va undan bir yigit ot qo'yib o'tar...

Bosh uzra o'q uchib o'tar nogahon,
Naq tomoq tagida yaltirar qilich:
Ovulning go'zali, bir qoshi kamon
Xiyonat qilibdi bir mardga bu kech.

Shunda qadah deydi:

– Har qanday odam,
Mard bo'lsa, qarshimda tik tursin ichmay:
Nechog' irodali, bilinar shu dam,
Mardmi yo nomardmi, aytib berar may!

– Ey, barcha kishilar kelsin biz tomon –
Karmonda tangalar kular jaranglab –
Qay biri yaxshi-yu, qay biri yomon,
Qay biri qadrli – olarsiz anglab.

Birdan tog‘ tovushi cho‘qqidan bir jom –
Sadosiday pastga taraldi ravon:
Erkak haq-nohaqni farq qilar mudom,
O‘lolgay ozodlik uchun har qachon.

SHE’RIYAT

Avval ish, ishdan so‘ng dam olish – odat,
Safar, so‘ng o‘n minut hordiq chiqarish.
Men uchun hordiq ham, ish ham – she’riyat,
Ham – safar, ham – hordiq chog‘dagi rohat.

Beshikda allalab, tepamda mudrab,
Jasoratga undab kuylab ko‘klamni,
Qalbidam tug‘ilding muhabbat bo‘lib,
Men sen bilan ko‘rdim yorug‘ olamni.

Bola ekanimda sen ona eding,
Ulg‘aygach sen bo‘lding sevimli dildor.
Keksaysam bo‘lursan qizday mehribon,
O‘lsam xokim uzra qolursan yodgor.

Ba‘zan chiqib bo‘lmas tog‘san men uchun,
Ba‘zan o‘rgatilgan qush kabi qobil,
Kurashganda – qurol, uchganda – qanot,
Sukunat emassan yoki soqov til.

Qayerda ish tugab boshlanar tinim?
Qachon safar? Qachon o'n minut hordiq?
Bilmayman sen mening kunim ham tunim,
Dam ham, mashaqqatli mehnat ham sensan.

XUSHOMADGA UCHMANG

Zamon ko'z o'ngida o'ldi qahramon,
Zotan asramoqqa tumori yo'qdi:
Uni halok qildi na o'q, na bo'hton,
Uni asta-sekin xushomad yevdi.

Iblisdek qo'yniga kirdi xushomad,
Mazax-la o'ynadi sof vijdonini,
U shirin so'zlarga uchdi va faqat
Asal yeb o'tkazdi o'z davronini.

Lutf-u muruvvatga berilib, mamnun,
Gunohi haqida o'ylamasdi ham.
Ammo, baribir kun bo'ldi ost-ustun,
Uni o'z komiga tortdi tubsiz g'am.

Xushomad-ku, ishin bitirib, shu on
Ilonga aylanib, sudralib ketdi,
Tosh uzra vishillab o'tganda ilon,
Tomgan zahardan tosh o't olib ketdi.

Xushomadga uchmang!
Undagi har tuk
Yovuzlik o'qidir. Bizlarni har dam
Na shuhrat o'ldirdi, na bo'hton, na o'q –
Biz o'ldik shirin so'z – shirin zahardan.

Yodda tutmog‘i shart buni har nafas,
Yuksak kengliklarga yo‘l olgan shaxdam
Faqat fazogirlar yo shoirlarmas,
Yurtning har ulug‘i, arboblari ham.

SHEROZDA

Agar ko‘nglimni shod etsa o‘shal Sherози jononi
Qaro xoliga baxsh etgum Samarqand-u Buxoroni.

Hofiz

Sherozda so‘radim mo‘jaz daryodan:
– Ne boisdan, qani, bo‘lgin-chi iqrор,
Ko‘pdan sen mashhursan yorug‘ dunyoda,
Boshqa daryolardan nima farqing bor?

Javob berdi daryo qo‘ymay to‘lg‘og‘in:
– Havas qilgulikdir nomim azaldan,
Hofizning bosganman u vaqt chanqog‘in
Va meni kuylagan u ham g‘azalda.

So‘radim Sherozda atrguldан ham:
– Necha asrlarki, nechun jahonda
Seni atashadi eng go‘zal, ko‘rkam,
Axir gulning zoti ko‘p-ku bo‘stonda?

Oqshom yulduziday nechun qaddingni
O‘zga atrguldан qo‘yurlar baland?
– Chunki ortdirgandi Hofiz qadrimni
O‘zining otashin g‘azali bilan!

Ayollar husniga nigoh tashlab ham
O'sha savolimni takrorladim boz:
– Ne uchun qadimdan sizni bu olam
Husn-u latofatda sanar beqiyos?

– Umrni bir qultum mayga o'xshatgan
Hofiz shundoq degan saxovat ila,
Bir dona xol uchun dangal baxsh etgan
Buxoroni shartta Samarqand ila.

ONA

Ruslar «mama» deydi, gurjilar— «nana»,
Avarlar «baba» deb suyub atashar.
Minglab so'zlar ichra bu so'z purma'no,
Taqdirin o'zgacha sharh etar bashar.
Tug'ilganda aytgan ilk so'zimiz — shu,
Mazmun doirasi kengroq tobora.
Askar o'lar oni eng so'nggi tuyg'u,
Nidoday jaranglar shu so'z, ibora.
Bu so'z muqaddasdir, xoli gardlardan,
Shundanmi, sukunat aro sarafroz
Bosh egib, hislar-u turfa dardlardan
Ko'ngilning o'ziga aytmog' bo'lar roz.
Ko'zaga suv bergan buloq – tik, qiya,
Oppoq cho'qqilarni aylarkan xayol,
«Ona bo'lgin menga, ey cho'qqi!» — deya
Shivirlyaydi ushbu so'zni ehtimol.
Yana bulutlarni parchalar chaqin,
Men esam o'ltirib tinglay bu choqda:
Yerga singayotgan yomg'ir «chak-chak»i
Jaranglab bu so'zni xursand aytmogda.
Pinhon xo'rsinaman nenidir eslab,

Ko'z yoshim sir tutib kun yorug'ida:
«Tashvish qilma, ona! – deb boshlayman gap. –
Bari yaxshi bo'lar o'z yo'rig'ida!»
O'g'lim, deb hayotdan topar u ma'no,
Muqaddas mehrga qul bo'lib yashar.
Ruslar «mama» deydi, gurjilar — «nana»,
Avarlar «baba» deb suyub atashar...

YOSH SHOIRGA

Balki qilolmasman senga ustozlik,
Lekin esingda tut shuni, yosh shoir:
She'r dunyoga kelmas to'lg'oqsiz, dardsiz,
Shodlik yo qayg'uning farzandidir – she'r.

Xohi la'nat o'qi, xohi madhiya,
Bir xil bo'l hayotda va she'riyatda.
Shuni unutmaki, to'y libosin ham,
Oppoq kafanning ham ignasi bitta.

Tole haqida yoz, shunday yozginki,
Yuzin o'girmasin yurak hasratdan.
Dengizga oquvchi daryo tug'ilar
Muzdek qor, bahorgi ilk haroratdan.

Muhabbatni kuyla uchqur baytlarda,
Ammo senga bo'lsin hamisha ayon:
Haqiqiy soldatning qalbida doim
Muhabbat-u nafrat yashar yonma-yon.

Shoshqaloqlik bilan qalam choptirma,
Yozgin faqat fikr kelganda tobga.

Kim uzadi, axir, xom ko'k oluni,
Kimning havasi bor g'irt xom sharobga.

Hushyor va sinchkov bo'l, axir zo'r ovchi
Tun bo'yi tikilar qorli o'rmonga.
O'qing butadagi quyonni emas,
Kumushrang tulkini olsin nishonga!

TOG'LIK KEKSALAR

Ular tog'da, yuksakda yashar,
Ko'p zamonkim o'troq va o'ktam.
Vijdonlarin baland bilishar
Sharqning hamma cho'qqisidan ham.
Chalg'itolmas chollarni hech kas,
Shunday o'tkir erur ko'zlari,
Duch kelganga bir qarashsa bas –
Kimligiga ko'zgu so'zlari!
Jang oldidan ularga ayon –
Azal-boshdan shu erur odat;
Kim chidar-u bir qoyasimon;
Kimni kutar mash'um halokat.
Yolg'onni ham darrov payqarlar,
Kimdan chiqib, kimda yurmasin:
Qancha nozik, qanchalar serhal
Va qanchalar pishiq bo'lmasin.
Po'stin kiyib butun yil bo'yi
Tog'da yurgan oq soqolli chol,
Gapni shunday qotirib qo'yar
Har kalomi go'yo bir maqol!
Tog' chollari!
Necha bor hali

Yurt maqtovini ko'rgaylar baham.
Ko'p asqotgan maslahatlari
Sarkardalar, elchilargayam.
Yot chavandoz otini ahyon
Hov olisda solarkan yo'lga,
O'sha zahot chollarga ayon –
Ne xususdan kelar ovulga:
Ne vazifa unga yuklanmish,
Yengilmi u yoki og'irroq,
Qiz olgali balki yo'nalmish,
Yo do'stiga bo'lmoqchi qo'noq?!
Chohda o'tgan Kamolil Bashir¹
Bola ekan ko'rib bitta chol
Bashorat-la debdi: « – G'am tashir,
Ko'p kishiga ham bo'lgay zavol!
Ular qiz-u xotinlarin bot
Yo'ldan urgay yigit bir kuni,
El nomusin qilib ehtiyot
O'z otasi o'ldirgay uni!»
Endigina bola Shomilda
Mo'ylab sabza urib kelardi,
O'z tonglari – to'p murg'ak dilga
Sarkardalik qila bilardi.
O'sha kezlar gimrinlik bir chol
Qilgan ekan shunaqa bir gap:
«Bir o't yoqar hali bu shunqor,
Bor Kavkazni olar u chulg'ab!»
Murod she'rin tinglab ilk marta
Boshqa biri qilmish bashorat:
«O'q yeb o'lgay bir kun, albatta.
Ayollarning ko'zi deb faqat!»
Qo'rqa-pisa kutgum har nafas

¹ Kamolil Bashir – afsonaviy go'zal yigit.

She'rlarimda ko'rgay ne hollar;
Jurnaldagi tanqidchilarmas.
Suhbataro tog'dagi chollar
Cho'qqi yanglig' mag'rur-u buyuk,
Ochgay sirin ularga bashar.
Bilishadi, qorayganda ko'k.
Bu yulduzlar nedan imlashar,
Ha, cho'qqidek magrur-u o'ktam,
Otlariga bo'shataman yo'l,
Qachon, qayda ro'baro' bo'lsak
Bosh egaman qovushtirib qo'l.

XANJAR VA SOZ

Tog'da yashar bir faqir,
Unda yo'qdir boylik, zar.
Uyida bor bir anjir,
Belida bor bir xanjar.
Yana bor bir echkisi,
Yaylovda boqar uni.
Bir kun uchrab xon qizi,
O'g'irladi tinchini.
Faqir yigit kelgan on,
Xon bujmaytdi yuzini.
Qah-qah otib kuldi xon
So'raganda qizini.
– Yarog' emas bir xanjar,
Bitta buta emas bog'.
Senga gap sadqayi sar,
Borginda echkingni sog'.
Qizini uzatdi xon,
Kuyovi boy muqarrar.
Mol-holga to'ldi qo'ton,

Uyga to'ldi boylik, zar.
Yigitni qiynar hijron,
Qalbini armon ezdi.
Tomirida qaynab qon,
Xanjarga qo'lin cho'zdi.
Echkini shart ushladi,
Xanjar soldi bo'g'zidan.
Keyin qirqib tashladi,
Anjirni ildizidan.
Bo'zlar edi yuragi,
Anjiridan soz qildi.
Echkisining ichagi
Eshgan edi tor bo'ldi.
Tarang torga tekkan on,
Jarangladi bir navo.
Shubhasiz bu, ey inson,
Samodan kelgan sado.
Yigitga bo'ldi hamroz,
Tog'likning qo'sh qanoti.
Bitta xanjar, bitta soz,
Shunday kechdi hayoti.
Pand bor bu hikoyada,
Tog'lik bo'lsang, qo'y ixlos.
Hamon osiq qoyada,
Bitta xanjar, bitta soz.





* * *

...Chavandozi minmadi sakrab,
Ot depsinmas suvliqni chaynab.
Uning oppoq tishiga qarab,
Turib qoldim kuldi deb o‘ylab.

Shu holati rostdan etdi lol,
Ot kulardi o‘xshab insonga.
U bosh egdi, yerga tegdi yol,
Yelda yollar to‘zdi har yonga.

Ajablandim, ketolmay yiroq,
Ot oldiga bordim yaqinroq.
Ot kulmasdi egib boshini
To‘kar edi ko‘zdan yoshini.

Ot holini ko‘zi qildi fosh,
Quyilardi selob-selob yosh.
Men jilmaysam, yaqinroq kel, yor,
Ko‘zlarimga tikilgin bir bor.





SEN MENING HAYOTIMSAN

Menimcha, bu hayot ajoyib narsa,
Ko'rsatur bir kunda ming turli maqom.
Goh g'amdan u meni tosh qilib qo'ysa,
Goh bola shodligin qiladi in'om.

Goh qushday uchirar balandga, qirga,
Goh cho'qidan yerga yiqitib tashlar.
Goh meni temirday kirgizar yerga,
Goh arqon singari toblar-u eshar.

Goh g'am, goh shodligin solar ko'krakka,
Goh u pichoq charxlab, damini yakbor –
Ko'ksimga to'g'rilab, sanchar yurakka...
Yurakda bo'lsa-chi, sening noming bor.

Sen shu hayotimga o'xshaysan, sanam,
Goh sitamkor, goho mehribon, inoq.
Qo'lingdan keladi yerga tiqmoq ham,
Yer uzra tutmoq ham misoli bayroq.



SAKKIZLIKLARDAN

* * *

Bilamiz – umr ishi ko‘p qiyin savdo.
Noliymiz. Hayotni so‘kamiz battar.
Qancha solmasin u sho‘rish-u g‘avg‘o,
Ko‘ngilni bog‘laymiz unga shu qadar.

O‘ydim-chuqur yo‘llar, qalqishlar, junun...
Bu qanday ko‘rgulik, qanday ixtiyor!
Va lekin baribir umr ko‘p shirin,
Hayotdan go‘zalroq yana nima bor?!

* * *

Odamlar tush ko‘rar shodlikni, g‘amni,
Uyini, baxtini va ko‘p shu yo‘sin...
Lekin biz sen bilan uchrashgan damni
Hech kim tushida ham ko‘rmagan bo‘lsin.

Tevarak-atrof ham bilmasa tuzuk
Boshimizga tushgan bu na sirli kor –
Nechuk iztirob bu, nechuk baxt o‘zi
Va qalbda titragan nechuk najib tor?!

* * *

Zo'r bir qo'ng'iroqni qilaman orzu,
Unga yer-u osmon bo'lsa havoza.
Qoshimga sen kelgan paytda ko'kdan u
Cheksiz quvonchimni etsin ovoza.

Ming bir ohangli ul buyuk qo'ng'iroq
Yarim kechadami, yo kunduz kuni –
Tinmay jaranglasin, sen ketganing chog'
Yuragimga tushgan so'ngsiz qayg'uni.

* * *

O, sen hayot tongi! Tengqurlar bilan
Seni xush o'tkazdik, shodlik bir dunyo.
O, hayotim shomi! Sen uysan ulkan
Va qayg'u mayini ichmaklik tanho...

Falak! Qo'y, yondirma yulduzlaringni,
Roziman samodan abad o'chsalar.
Esga solding axir ul do'stlarimni,
Qismatidan aytib g'amgin qissalar...

* * *

Na mohi tal'atsan! Ko'rdim kechqurun,
Alg'ov-dalg'ov bo'ldi bir zumda qalbim.
Meni aldamapti demak qora tun...
Tongda ko'rib... battar rom bo'lib qoldim.

Bahorda yanada yonding betakror,
Quyoshingdan go'yo ko'zlar qamashdi...
Meni aldamapti gul to'la bahor.
Qish... sening husningni yana ham ochdi...

* * *

Goh g'uvlab kiradi xonamga shamol,
Kiradi eshikmi teshikdan o'tib.
Uyga xuddi shunday, kudurat, malol
Ko'chadan kiradir etni junjitib.

Xonamiz mehrdan, nurdan charog'on,
Qara, qahraton ham, qor ham yo'qdir, bas.
Bu sovuq gap-so'zlar, malomat, gumon
Ko'chadan kirgandir... bizniki emas.

* * *

Qaytdim. Mana tog'lar, daralar.
O'zgaribdi lekin elimiz:
Boshqa tilda so'zlar bolalar,
O'lmoqdami ona tilimiz!

Nahot endi o'z tilimizda
Gaplashmasak, yozmasak, esiz...
Ha, daryolar shoshar dengizga,
Yutilishin bilsa ham izsiz.

* * *

Bo'ronsiz, kurashsiz, tinch, osoyishta
Yashab kelganingdan o'zingcha shodsan.
Hech kim sherik emas shodlik, g'amingga
Do'sting yo'q, demak bil, sen benajotsan.

Yuzga kirsang hamki, farqi yo'q bilgil,
Soching oqarsa ham o'xshab donoga,
Odamlar oldida ochiq aytaman:
Demak, kelganing yo'q hali dunyoga.

* * *

She'riyat, kuchliga xizmatkormassan,
Mudom mazlumlarni qilding himoya.
Panohsiz qolganga tashlading soya,
Zolinga haq so'zni aytding qo'rqmasdan.

She'riyat, biz senga qilamiz havas,
Kuchlilar ko'ziga tik boqding, bardam.
Shu sabab judayam go'zal bo'lsang ham,
Seni kelinchakka o'xshatib bo'lmas.

TO'RTLILK LARDAN

* * *

Hayot tegirmondur, hayot tegirmon,
Yillarni tuyadi toshi tinimsiz.
Do'lida kamaya borgan sari don
Aylana u shuncha chaqqonroq va tez.

* * *

Yer ne'matlarining taqsimotida
Ba'zan adolat yo'q, ajrimimiz bo'sh:
Bo'tqadan semirdim tishim borida,
Tishsiz qolganimda uzatishar go'sht..

* * *

“Ayt-chi, qanday odam qo'zg'ar nafrating?”
“Doim qo'rqib turgan qaltiroq erkak!”
“Kim undan ham ko'proq qo'zg'ar nafrating?”
“Qo'rqib jim turguvchi yaltiroq erkak!”

* * *

Ikki ko‘z bir-biriga o‘q otmasin deb,
Ular o‘rtasiga tiklangan devor.
Ikkovlon bir rolni o‘ynadimi, bas,
Ular o‘rtasida hasad bor, qasd bor.

* * *

Ibtido, tug‘ilish — birinchi dovon,
O‘lim — ikkinchisi, yo‘lning poyoni.
Sen bo‘lsang, o‘zingcha, bandai nodon,
Zabt etmoq bo‘libsan yuz bir dovonni.

BULBUL QO‘SHIG‘I

Bulbul qo‘shig‘ini eshityapsanmi,
Tingla, qanday yuksak, qanday sof tuyg‘u.
Ammo neni kuylar – bilmaydi hech kim,
Qush tilin anglashdan ojiz insonlar.
Ishonaman:
Yurtin kuylayapti u.
Yo‘qsa, zerikardi allaqachonlar.

* * *

Bulbullar ichinda tinmas zabonman,
Hamon yoningdaman, tanangda jonman.
Agar oshiqklaring o‘n mingta bo‘lsa,
Bilgilki, alarning sardori menman.

Qo‘llarim istagi tutmoqlik qo‘ldan,
Istagim, totmoqlik labdagi boldan.

Oshiqlaring kelsa o‘n mingta yo‘ldan,
Bilgilki, eng avval kelgani, menman.

Sevgiga sodiqlik shartini qo‘ysang,
Shartni bajarmasni yoningdan quvsang,
Agar o‘n mingtadan yuzta qoldirsang,
Bilgilki, yuztadan bittasi menman.

Keksalik degan sir joy olsa dildan,
Yigitlik quvvati ketsa ham beldan,
Har kun gul olsang sen gar o‘nta qo‘ldan,
Bilgilki, eng avval gul tutgan menman.

Falak falakligin qilsa nogahon,
Sendan yuz o‘girsas hatto keng jahon,
Oshiqlardan qolsa bir nafar, inon,
Qolgan shu oshig‘ing, bilgilki, menman.

Ko‘zlaring bemahal yoshlarga to‘lsa,
Agar dushmanlaring ustingdan kulsa,
Oshiqlaring agar, hech kelmas bo‘lsa,
Marhum Rasul Hamzat, bilgilki, menman.





ASQAD MUXTOR



ZARRADAN QUYOSH

Derlarki, bir zamon qumloq sohilda
Qo‘ychivon topganmish bir zarra oltin.
Umid shu zarraday yiltillab dilda,
El Zarafshon qo‘ymish daryoning otin.

Titroq kaftlariga olib telmurgandir,
Yana atrofiga boqqandir xomush:
Yana sap-sarig‘ qum, sarg‘aygan qamish.
Nam ko‘zin chirt yumib, yuz o‘girgandir...

Endi
Ko‘z uzolmas vodiidan cho‘pon:
Yoz boshi – shafaqday gilos yolqini,
Kuz boshi – yo‘llarda karvon, karvon
Kolxoz dalasining oppoq oltini.
Daryolar zarafshon, yo‘llar zarafshon,
Saxiy yer, himmatli qo‘llar zarafshon.

Oltindan kam emas, oltindan afzal
Paxtasi, bug‘doyi, ipak, barrasi.
Hozir
Vodiy uzra quyosh –
Bir mahal
Qalbdan yiltillagan umid zarrasi.



POEZIYA

Bu dunyo – jo‘n,
 ha, bo‘lgani shu.
Hamma narsa xuddi alifbo.
Daryo:
 ikki qirg‘oq,
 orasida – suv,
Shunchaki suv,
 Suv, H₂O.
Mehnat:
 yetti soat,
 har kun yetti soat;
Tik turib yutilgan nonushta.
Nomer ilish,
 kingadir itoat.
Shunday bir xil
 yozda ham qishda.
Qizlar – faqat qizlar.
 Qushlar – faqat qushlar.
Sevgi –
 ...qo‘y, bu yog‘in aytmadim.
Xullas,
 shundoq edi olam
 va ishlar
Seni tanimagan paytlarim.
Seni tanidim-u
 olam sirga to‘ldi,

Yaproqni kitobday o'qiy boshladim,
Qalbmida bulbullar sayraydigan bo'ldi.
Oyga qarab turib ko'zim yoshladim.
Daryoda suv emas,

xotiralar oqar;
Daryo kechalari – uzoq yoshligim.
U sohildan hijron bo'lib boqar
Ilk bo'sam,
vafosiz chilvir sochligim.

Yo'llar – go'yo yo'llar,
bezovta, guvlagan,
Taralgan lolazor qirlardan quyi.
Huv, mening so'qmog'im
toqqa o'rlagan,
Bunisi onamning hasratli o'yi.
Bilak ham,
yurak ham toladi ishda,
So'ng ko'cham husniga to'ymay kezaman.
Bayroq dastasida,
stakonda,
g'ishtda

Ming-ming qo'llar taftin sezaman.
Yulduzlar –
umrimning poydorligi,
Hayajon, mo'jiza to'la kelgusim.
Ko'zlar baxt-saodat va'da qilar jim,
Qalbni talpintirar beg'uborligi.

Yo seni tanigach hayotga qaytdim,
Yo olam boshqacha bo'lib qoldimi?
Yo'q,
sen odamzodni shunday ulg'aytding,
Kuchga to'ldirding sen uning qalbini.

Shundan –

na zaharli o‘q qo‘rg‘oshini,
Va na Astrobod,
Sibir konlari,
Va na Shohmardonning tosh bo‘ronlar
Ega oldi sening mag‘rur boshingni!
Seni tanidim-u

qalbda sehrli ganj.
Olam go‘zalligi – qalbimning mulki.
Odam go‘zalligi – qalbimning mulki!

Seni tanimagan sho‘rliklar ayanch...

TUG‘ILISH

Tong oldidan yomg‘ir sevalab o‘tdi,
Keyin ko‘k ochilib, yog‘di yulduzlar.
Yerdan hovur ko‘tarildi, xuddi
Qimirlagan kabi zimdan ildizlar.

Kingadir muqaddas bir zum yaqinladi,
Qorovul o‘chirdi so‘nggi fonarin.
Iyul quyoshining ilk yolqinlari
Yaproqlarga sachrab yonardi.

Yer yosh: soflik jimirlatar etin,
Zoriqqan g‘unchalar ochildi bog‘da.
Panjaradan oshib chiqib ketdi
Maysalarda yurgan yashil shabboda.

Eshikdan eshikka yugurib yelardi,
Suyunchi so‘rardi, suyunchi.
U go‘yo taqdirni oldan bilardi,
Go‘yo yo‘q dunyoning g‘ami, kuyunchi.

Iymanibroq turar ota poygakda,
Ko'ksida yulduzi, bir qo'li mayib...
Ichkarida esa, oppoq choyshabda
Jahonning umidi yotar jilmayib.

UMR NEGA SHIRIN

Xavotirli, shoshilinch, shirin ilk bo'sa,
Borlig'imni titratgan lahza!
Keyin undayini topolmadim, ammo
Hanuz yuragimda yonar shu larza.

Qayta ko'rolmadim yetim hayotimda,
Sira unutmadim bir onni lekin:
Ustozimning qattiq ko'zlarida
Ota mehrin ko'rib yig'ladim sekin...

Bir qushcha churq etib, olam uyg'onganda
Shabnam qatrasida ko'rdim yuzingni.
So'ng bir umr kutdim, qaytib kelmadi,
Bir umr izladim shu zumni.

Shunday noyob, oltin lahzalarning
Qadrin bilmas ekan odamlar.
O'tib ketar ekan, takrorlanmas ekan
Umrda yagona bebaho damlar.

O'tib ketmasa-chi?

Birdan to'xtab bari

Muzlab qotib qolsa nima bo'lardi?
Yo'g'-e, kimga kerak muzlab qolgan hislar!
Orzu-yu pushaymon – bari o'lardi...

Asli shundayligi juda oqilona,
Balki hayot siri shunda yashirin.
Balki takrorlanmas bo'lgani uchun
Umr ham shunaqa bebaho, shirin.

* * *

Tong oldidan bir yigit
Kunda chiqar sohilga.
Men bilaman: u na soyni
Va na tongni sog'ingan.

Hayajonsiz tepib turar
Tabiatning yuragi.
Nurga cho'mgan tinch olam
Sirli tushlar ko'radi.

Yigit suvga tikilar-u,
Yuz-ko'zin ham chayqamas,
Kiprigida uyqusizlik,
Tong husnini payqamas.

U shu yerda odamlardan
Yashirganday xo'rigin.
Payqamadi shudringdan
Pochalari ho'lligin.

Tong otadi, oy botadi,
Kun chiqadi lovillab,
Mahallamiz uyg'onadi,
Kuchuklari vovillab.

Ishga chopar yosh-u yalang,
Quvnoq kulgi, hangoma.
Yigit ko'rmas hech birini,
Go'yo bari – begona.

Quyoshi bor, oyi bor-u,
Ko'ngliga qil sig'maydi.
O'z uyida yoqilmagan
Chirog'iga yig'laydi...

YEVROPADA QOLGAN QABRLAR

To'xtab o'tar bunda navbatma-
navbat

Onalar, soldatlar, chollar,
vazirlar...

Gullarga burkanib yotar to abad
Yevropada qolgan qabrlar.

Xalqim, uning har bir bo'g'ini
Har go'dakning umrin qadrlar.
Bunga yana undaydi uni
Yevropada qolgan qabrlar.

O'lkam ko'm-ko'k, bog'lar mehnatkash,
Yerni chirmab yotar tomirlar.
Shu bog'larning ildiziga tutash
Yevropada qolgan qabrlar.

Yulduzday uzilar pishgan shirmoy
non,

Tong shafag'i kabi tandirlar.
Nasibalar uzilmaydi hamon,
Yevropada qolgan qabrlar.

Tongotar saf tortib vzvodda
Raketachi yanggi kadrlar
Ont ichadi: bo'lmas bezovta
Yevropada qolgan qabrlar!

Har bahor kimnidir yo‘qlar
singari
Loladan tebrangan adirlar...
Qalbimning loladek o‘t
parchinlari
Yevropada qolgan qabrlar.

YO‘L

Ostonamdan taralgan yo‘llar,
Eslatadi quyosh nurini.
Uzoq-uzoqlarga ketib, uzayib,
Uzaytadi mening umrimni.

Yurganlarni daryo deydilar,
Daryo – cheksiz umr ertagi.
Bir kun uyda o‘ltirib qolsam,
Hayot go‘yo chetlab o‘tadi.

Ko‘rganing – seniki, der edi bobom,
Ellarni, dillarni kerak ko‘rishim.
Ochilmagan qo‘riq, noma’lum yulduz,
Bari-bari – mening ulushim.

Ijod dardi – yo‘l azobidir,
Mayli, bo‘lsin tumanlar quyuq.
Ruhim bilan yo‘lda ekanman,
Umrinning ham nihoyasi yo‘q.



MEVALAR NEGA YASANADI

Lola bordi bozorga
Ayasiga ergashib.
Qo‘l tegizdi mevalarga,
Razm soldi engashib.

Bir tokchada anorlar,
Birida – sabzi, karam.
Yerda yotgan qovunlarning
Po‘stlog‘i taram-taram.

Lola so‘rab ayasidan
Qalbi to‘la sevinchga:
– Buni qarang, husaynining
Beli buncha ingichka?

Baqlajonning charm to‘ni
Lok surganday qora, ho‘l.
Tarbuzlar ham yiltillaydi,
Beqasami yo‘l-yo‘l.

Aya, nega anjir yalpoq,
Kindigida shirasi?
Pomidorlar qip-qizil,
Yelkasida durrasi.

Bozor to‘lib ketibdi
Nashvatining isiga.

Nega shabnam tomchisidan
Qulog'ida isirg'a?

So'rar edi so'rog'ining
Yo'q edi nihoyasi.
Hammasiga bir so'z bilan
Javob berdi ayasi:

– Ko'z-ko'z qilib taqinchog'in
Barin taqay dedi-da.
Kiyinadi, yasanadi,
Senga yoqay dedi-da!

KO'NGIL

Nimadir yetmaydi insonga hamisha,
Ozga qoniqmaydi, ko'pga intilar.
Jasorati cheksiz, doimo tashna,
Yerga sig'dirmaganday: ko'kka intilar.

Shu inson bolasi
jindak ranjisa-chi,
Yo so'zda yetmasa nafis malohat,
Biron nohaqlikdan,
biron sovuqlikdan
Yuragiga tushsa jarohat.

Biron sabab bilan jonidan to'yib,
Umidsizlik solganda soya,
Bunday paytda ko'p kerak emas,
Bir shirin so'z unga kifoya.



* * *

Bir tup o'rik
Yakka o'sgan ekan;
Yolg'iz tomoqmasmi – rosa unibdi.
Bodroq-bodroq bo'lib gullaganida
Ko'lankasi bilan do'st tutinibdi.

Soya dam o'ngga-yu dam chapga o'tib,
Dam cho'zilib yotib,
Dam bo'lib tikka:
– Mendan ham sodiqroq do'st topolmaysan,
Sensiz men ham yo'qman, –
derkan o'rikka...

Bir kuni qarasa,
Soya yo'q emish.
(Bulut kuni uni izlash – kulgili).
Yomg'ir ham quyibdi – do'sti hamon yo'q...
Yerga yakson bo'пти o'rikning guli.

Eh, o'rik! Soya ham do'st bo'ladimi?
Laqqa tushibsanda, lof ursa.
Do'st bo'lsa, har qanday ob-havoda
Yonginangda tursa...



YULDUZIM

Qishlog‘imiz ko‘hna bir etagida
Osmonga tutashgan dasht edi.
Polizkapa qurib, kechlar tomda
Yulduz sanab yotish – ajib gasht edi.
Bolalikda, bir kun yotsam,
Xayollarim ketib Somon yo‘liga.
Yulduz uchdi! Xuddi mushakday
Yonib yerga tushdi. Jizzax cho‘liga.
Juda yaqin tushdi. Har ehtimolga
Lippaga qistirib gugurtim,
Tomdan tashlab, o‘qariqdan sakrab,
O‘sha yoqqa qarab yugurdim.
Chinakam yulduzni ko‘rmoqchiydim men,
Tikanlarni bosdim, toptadim,
Uzoq tentiradim cho‘l so‘qmoqlarida,
Quvoqlar oralab kezdim... topmadim.
Topmadim o‘shanda bola baxtimni,
Sirli mo‘jizaga to‘ymadi ko‘zim,
Hali ham izlayman. Bilaman: Yerda,
Shu cho‘llarda mening yulduzim.



XOLA VA BOLA

Boshga tugun qo'yib yo'l oldi xola,
Jajji jiyanchasin ushlab qo'lidan.
Tong yomg'iri yuvgan qishloq yo'lidan
Balki birinchi bor yurardi bola.
Gul barglarin uzib yo'lga sochardi,
Dam zehnin tortardi gulzor kapalak
Ba'zan polizlarda qamish kapalar
Bola xayolini olib qochardi.
U bir navniholga termilib qoldi,
Uzoqdan tovushi yetardi arang:
– Sochi paxmoq ekan, hidini qarang,
Oyog'i ingichka mana bu tolni...
– Yursang-chi, juvonmarg, laqillamasdan!
...Ko'nglim shu bolaga talpindi kuchsiz,
Go'yoki bir go'zal lavhaga uch so'z
Uch qora chiziqday tortlidi qasddan.
Bola bo'lganmisiz sira, xolajon?!
Onaga mehrni o'rgatib bo'lmas,
Ammo shu uch so'zdan so'ndi-ku havas,
So'ndi jajji qalbdan shirin hayajon.





BOYCHECHAK

Qor tagidan dadil bosh suzar,
Umri qisqaligin yaxshi biladi.
Ammo ko'zi tiniq, chunki dil sezar:
Bahorga so'qmoqlar ochib o'ladi.

MOMAQALDIROQ

Bilasizmi, yaylovda yurganda
Birdan gumburlasa momaqaldiraq,
Chopqillab o'ynaging kelib ketadi,
Hech gapmas boladay chinqirmoq.

Eng yaqin do'stingning qo'lidan ushlab
Yugurging keladi biron chamanga.
Qalbimizda momaqaldiraqday
Zo'r quvonch yashiringan, chamamda.





VELOSIPED

Gir aylanar atrofimda daraxtlar, gullar,
G'ildirakka ipak kabi chirmalar yo'llar.

G'uv-g'uv shamol yopishadi sovuq yuzimga,
Ufq go'yo kirib kelar qisiq ko'zimga.

Quvonaman, qiyqiraman, uchaman hamon,
Momaqaldiroq gumburlagan dalalar tomon.

Naykamalak tovlanadi g'ildiragimda,
Go'yo bahor toshqinlari bor yuragimda.

Iliq yomg'ir pardasida quyosh shu'lası,
Quchgim kelar yer-u ko'kni birato'lası.

Chaqinlarga, dovullarga o'chakishganday,
Bu dunyoning bor tashvishi menga tushganday,

Oshiqaman, tezliklarga beraman bardosh,
Sochim to'zg'ir, keskir yeldan ko'zlarimda yosh...

Quvonaman, qiyqiraman, uchaman hamon,
Yomg'irdan so'ng lov-lov yongan dalalar tomon.

Xotira bu ... hozir xuddi birdan uyg'ondim.
O'sha mahal men o'n to'rtga qadam qo'ygandim.

Bu yog'i-chi? Bu yog'ini eslayman elas,
Bu tomoni, ochiq aytsam, unchalik emas...



IKKI GUL

Endi aytsam ayta qolay,
Ancha bo‘ldi bu gapga.
Bir yosh suluv qizcha bilan
O‘tirardik egatda.

Lov-lov yonar, kamgap ekan,
Men so‘zini kutardim.
U iymanib yerga qarar,
Men savolga tutardim.

Xayol ketib qolar edi:
“Ko‘zlari muncha tiyrak...”
Ammo bugun men u haqda
Xabar yozishim kerak.

Shuning uchun ishga o‘tdim,
Tiyib bebosh o‘ylarni.
Javoblari chala-chulpa,
Ro‘mol uchin o‘ynardi.

“Ha, jo‘yakka yo‘l solamiz
Shabnam ko‘tarilganda...”
“Ha, shturval og‘ir, lekin
Qiyin emas bilganga”.

Quyosh tafti yonog‘ida,
Manglayida – sepkili.
Nafasida sezilganday
Sirli tonglar epkini.

Uzoqlarga tikiladi,
Uzoqlarda qorli tog‘.
Gap ololmay qiynalaman,
Qiz ham menga xayrixoh.

“Ha, charchayman... lekin, qarang,
Oq bulutlar qalqidi...”
U turganda izlaridan
Chaqmoq hidi anqidi.

Birga turdi paxtazorning
Tarovati yellari.
Ko‘z o‘ngimda kombinezon
Siqib turgan bellari.

... Yozolmadim maqolani,
Chiqmasligin bilgandim.
Lekin o‘sha uchrashuvda
Bir nimani o‘rgandim.

Mehnat qilgan o‘zi bilar
Uning ichki ziyosin.
So‘zlab berish mushkul ekan
Mehnat poeziyasin.

Derlar: she‘r-u mehnat guli
Dil to‘rida bitibdi...
She‘riyatning sirlarini
Kim ham bayon etibdi?

Uni bayon etib bo‘lmas,
Qancha kuch sarflamang.
Gul atrini hidlab biling,
Gul atrin ta‘riflamang.



SHAMOL

Tunlari intizor kutasan xabar,
Eshik g'irchillasa, uyqung qochadi.
Bilmasmiding axir shu paytga qadar:
Ba'zida eshikni shamol ochadi...
Bilmasmiding, shamol – yengil, daydi;
Unga muhabbat ham, taqdir ham arzon.
Bugun sochlaringni silab erkalaydi,
Ertaga bog'larni etadi xazon.

KUZ

Kuzgi bulut kelib oqshom asnosi
Bog'lar etagida ko'zdan yo'qoldi.
Silkitib ufqning o'tli tasma sin,
Chinor taglarida ko'lmak suv qoldi.

Chinor so'ng bor sezdi tanida iliq;
Pildirab tushganda oxirgi yaproq.
Suvni chayqadi-yu bir zumlik titroq
So'ng yana jim bo'ldi, osmonday tiniq.

Ko'lmakda shafaqning bir tomchisidek
Yonardi chinorning so'nggi tuhfasi...
Bejizmas, shoirning ilhomchisi deb
Seni ataydilar, ey o'ychan fasl!



TUMAN

Kuzgi yomg'ir quydi, quydi chunon,
Yer ham to'ydi, hatto toliqdi.
Tuproq, shuvoq ruhini ko'tarib tuman
Qirlar orqasidan sudralib chiqdi.

Xirmonday kumushrang, sezimli,
Epkinida jindek asal, yoz hidi.
O'rlab borar, unutilgan bir bosh uzumni
Go'yo etagiga olmoqchi edi.

Erib to'kilishdan cho'chigansimon,
Asta suzar tunning oq qushi.
Asta suzar asal hidli tuman,
Ona yerning xayrli tushi...

GO'DAK

Go'dak uxlari edi sohilda,
Belanchagi sambit niholdan.
Dengiz ham tinch, go'yoki uning
Taqdiri haqida xayolga tolgan.

Ammo seziladi uning qa'rida
To'lqinlarning dev suronlari.
Shunday teranlikda yashar hozircha
Go'dakning kelajak hayajonlari.



YURAK

Qalb, chida! Sendagi bu yangi tuyg‘u
O‘tday xavfli, bemavrud va yosh...
Sir bo‘lib qolsin u qa‘ringda mangu,
G‘am-u shodliklarga bergansan bardosh.

Tasavvur qil, axir, hammaga hamma
So‘zlasa dardini, shikoyatini,
Aytib beraversa har bir qadamda
Ezgu muhabbatin hikoyasini.

Aytib beraversa barchaga barin –
Omad-u judolik va yonganini,
Rashk, umid, alami va afsuslarin,
Aldagani, quvonganini.

Yurak sirlarini yoysa olamga,
G‘ussa ummonida g‘arq bo‘lar edik.
Baxt-quvonchida suzgan barg bo‘lar edik,
Joy ham qolmas edi balki odamga.

Xayriyat, bu – har kimning o‘z ishi,
Har kim o‘z ichiga yutib yuradi.
Ishqilib, mard bo‘lsin bu ishda kishi,
Daryoday keng bo‘lsin inson yuragi.



SEVGI

Men quyoshni sevsam,
 hech kim qarshi emas,
Man etmas gullarni ko'ksimga taqşam,
Tabiatni sevsam tahqir etmas hech kim,
Ayb etmas osmonga suqlanib boqşam.

Men qo'rqaman faqat sening sevgingdan,
Seni sevganimni arz etsam bir kun,
Ro'para bo'ladi ming xil to'g'anoq;
Avvalo, sen o'zing kulishing mumkin.

Qolaversa, tahdid, qarg'ish yo tahqir,
Yana mol-mulk, sun'iy tashvishlar,
Aqidalar, urflar raxna solar balki,
Balki ta'qib qilar mish-mishlar.

G'ov bo'lishi mumkin, qonun, istehzo,
Kimningdir nafrati, zaharxandasi.
O'zi o'ylab topgan shartlar chirmovig'in
Yorib chiqa olmas bandasi.

Bordi-yu sen tong bo'lsang, yo bir dona gul,
Men nur bo'lsam, yo tomchi shabnam,
Sevgimizni hech kim man etolmas edi.
Ammo, yo'q, afsuski, biz – odam.

Ha, odammiz, odam dili qat-qat,
Goho farishtadir, gohi ajdaho.
Balki shuning uchun qahr – beadam,
Balki shuning uchun sevgi – bebaho.

CHASHMA

Chashmada aks etar qahrabo uzum.
Asta jimirlasa – tebratar ayvon.
Osilib turgandek shohsuvor gujum.
Tamosho qilamiz suqlanib hayron...

Chashmada beqaror bulutlar suzar,
Yulduzlar qandildek yonadi shiftda.
Rassom manzarani hovliqib chizar,
Manzara sehriga hamma oshufta.

Joziba nimada? Aksidan, axir,
Asli nusxa o‘zi afzal emasmi?
Har narsa dunyoda yagona, nodir,
Takrorlanmas bo‘lsa go‘zal emasmi?

Yo‘q, bunda dillarni maftun etgan narsa:
Suv tiniq, suv sof!

...Koyima, kelishim ozor yetkazsa,
Ko‘zing chashmasiga kelaman suvsab...





SHE'R HAQIDA

Nima kechar jonimda?
Nima qaynar qonimda?
Nega muncha qiynalaman –
Ne tuyg'ular ongimda?

Aytolmayman fikrimni,
Aytolmayman yangilik.
Goh o'tkinchi yuragimda
Tipirchilar mangulik.

Menda ham kuz goh g'amgin,
Goh qish qattiq keladi.
Suzib o'tar abri nayson,
Qushlar qaytib keladi...

Menda ham chaqmoq chaqar,
To'kiladi mevalar...
Sag'analar menda ham bor,
Kelinlar bor bevalar.

Menda ham urug'lardan
Nihol o'sib chiqadi.
Goho quyosh, goho zulmat
Yo'lim to'sib chiqadi.

Goh muzlaydi hujayram,
Gohida uyg'onaman.

She'riy tilsim qudratidan
Tushimda to'lg'onaman.

She'r aytish – nafas olish,
She'r – dardning arishi;
Giyohlarning quyosh tomon
Titrab o'sa borishi.

Shu titrashdan, ehtimol,
G'alayondir qonimda.
Shu titrashdan azob ichra
Nur tug'ilar ongimda.

Nur tug'ilar, dedim, balki
Ongda emas, tongdadir.
Mana nima kechar jonda,
Jondamas, jahondadir.

* * *

O'zinniki emas bu umr,
To'la menikimas, sezib turibman.
Bir vaqtlar meni deb halok bo'lgan kimdir,
Men uning uchun ham yashab yuribman.
O'zinniki emas. O'rtada baham
Achchiq-chuchugi-yu, guli, mevasi.
Yengil-yelpi o'tsa umrdan bir dam,
Rozi-rizo bo'lmas egasi.



QALB

Yana bir kun qizg'in ishlar bilan,
O'tli hislar bilan yonib tugadi.
Qalb esa... qalb kulrang oqshomning
Dono sukunatin tuyadi.
Unda bebosh yolqinlar so'ngan,
Chirsillamas ho'l saksovullar.
So'nggi aziz cho'llar o'chmoqda, ammo
Olov tafti hamon lovullar.
Men xayolan sokin shom qo'ynida
Sening qo'llaringni topaman
Va yaxshi qizigan o'sha tandirda
Oltin so'zlarimni nondek yopaman.

UMR

Goho qalbin ushlab, sezadi odam
Davr dardlaridan majruh ekanin.
Shunda birdan sekinlashar qadam,
Muncha uzoq yo'l bu, umr degani!
Yurak yarasini silab dam-badam
Dardlarini olar sevgani.
Shunda birdan jadallashar qadam,
Muncha qisqa yo'l bu, umr degani!



OLMA

Bog'da olma to'kildi,
Yo qushlar uchdimikin?
Kuzning butun og'irligi
Olmaga ko'chdimikin?

Olma terib chiqdi qiz,
Olmadek yuzi lo'ppi.
Shu bog'ning olmasidan
Tatisam nima bo'pti?

Tatidim, maza qildim,
Asal ekan, qand ekan.
Bekor bo'ldi yonishim –
Bog'bon qizi band ekan.

Biroq yonmay bo'larmi
Yoshlik o'ti ufursa?!
Qush uchib o'tganda ham
Olma to'kilib tursa...





EL-YURT

Men dunyoga ko‘z ochgan kunim
Guldastalar kelgan onamga.
Tug‘ildi, deb xursand bo‘ladigan
El-yurt kerak ekan odamga.

Yashash – bir dard, orzular qiynar,
Dilga tushar ezgu alanga.
Sehri tortib, mehri balqib turgan
El-yurt kerak yana odamga.

Murg‘ak qalbda mardlik jo‘sh ursin
Ruhim o‘tsin, desang, bolamga –
Avlodlarda yashamog‘ing uchun
Yana el-yurt kerak odamga.

Zamon zayli bilan uzoqlarga ketsang,
Yo sayohat qilsang olamga,
Ko‘kragingda olib yuradigan
Aziz el-yurt kerak odamga.

Birdan tushsa boshga musibat,
Chidab bo‘lmay qolsa alamga,
Bir so‘z bilan qadding rostlaydigan
El-yurt kerak ekan odamga.

Yo‘ldan chalg‘ib, botib gunohlarga
Holdan toyib yiqilsang, hamda
Umrni boshqatdan boshlamoq bo‘lsang,
Yana el-yurt kerak odamga.

Teringga sig‘magan paytlar bo‘ladi,
Omad kelganida, to‘yda, bayramda,
Quvonchlaring o‘rtoqlashish uchun
El-yurt kerak yana odamga.

Vijdon va haqiqat deya cholishib,
Tushkunlikdan yengilgan damda –
Oldida tiz cho‘kib uzr so‘rashga
Ona el-yurt kerak odamga.

Yo‘llar turfa-tuman, bekat esa bir,
Armonli yer uzra so‘nggi qadamda
Manzilingga eltib qo‘yadigan
Aziz el-yurt kerak odamga.





PO‘LATJON YUZ TUP KO‘CHAT EKMOQCHI

Ular bu yangi uyga
Ko‘chib keldi shu bugun.
Po‘lat ham ko‘ch tashidi,
O‘yinchog‘i bir tugun.
O‘rnatildi jihozlar,
Darpardalar qoqildi.
So‘ng Po‘lat yangi uyni
Toza tomosha qildi.
Oynavonlik peshayvon,
Ikki, uch, to‘rt, besh xona!
Biri yotoq, biri to‘r,
Eng kichigi oshxona.
Devorlari havorang,
Shiftda gulning surati,
Burama-burama quvur pech,
Ichida par yuradi.
Jo‘mrangi ham, dushi ham
Bir xonada hammasi.
Suv oqadi tizillab,
Oq chinnidan vannasi.
Po‘lat to‘ymas sayr etib,
Ushlab, ushlab ko‘radi...
Keyin chopib keldi-da,
Oyisidan so‘radi:
– Oyi, buning barini
O‘zi qurganmi dadam?
– Yo‘q, o‘g‘lim, dadang emas,

Buni qurgan ko'p odam.
– Dadam bunga to'lashga
Qaydan opti shuncha pul?
– U odamlar dadangdan
Pul olmaydilar butkul.
– Bo'lmasa, u odamlar
Qarindoshmi dadamga?
Yoki biz ham ularga
Boramizmi yordamga?
– Yo'q, bizga u odamlar
Na qarindosh, na tanish,
Bitta misol keltiray
(Bu emasdir maqtanish):
Mana, dadang injener
Mashinalar quradi,
Kechalari uxlamay
Shu haqda o'y suradi.
Mashina xizmat qilar
Hamma-hamma odamga,
U odamlar na tanish,
Na qarindosh dadangga.
Ahillik bilan bezar
Odamlar turmushini,
Beminnat qilishadi
Bir-birining ishini.
Bir kishi hamma uchun,
Hamma bir kishi uchun.
Birov kuchin ayamas,
Ko'pchilik ishi uchun.
Chunki ko'pchilik har vaqt
Buning uchun g'am yeydi,
U shu g'amxo'rlikka
Munosib bo'lay deydi.

Man shunday. Odamlar
Bo'lsalar ham "begona",
Qarindoshday yaqinlar
Maqsadlari yagona.
Ana shu gapdan keyin
Po'latning xayoliga
Hamma ko'rgan-bilgani
Keldi galma-galiga.
Ko'chada odamlarning
Daraxt o'tqazganlari,
Bog'cha yo'lin tekislab,
Asfalt yotqizganlari.
Kecha kelib tiklashdi
Katta soyning ko'prigin,
(O'shanda ko'rsang edi
Odamlarning ko'pligin)
Uchtasi tunuka bilan
To'sib olib yuzini,
Elektr bilan teshdi
Tramvayning izini.
Keyin uni ulagach,
To'rttasi yerni qazdi.
Temiryo'lning tagidan
Suv quvuri o'tkazdi.
Dam olish kuni bo'lsa
Soyning chap tomoniga
Katta haykal qo'yishdi
Gullar ekib yoniga.
Bu odamlar hech qachon
Shu ko'chada turmagan,
Po'lat bo'lsa ularni
Ilgari hech ko'rmagan.
Shunday ekan, odamlar

“Begona” bo‘lsalar ham
Bir-biriga azaldan
Do‘st bo‘larkan chinakam.
Ahillik bezar ekan
Odamlarning turmushin,
Beminnat qilisharkan
Bir-birining yumushin.
Shuni o‘ylab Po‘latjon
Uxlamadi kechasi.
Bir ish mo‘ljallab qo‘ydi –
Tayyor bo‘ldi rejasi:
Qor erigandan keyin,
Yer qurigandan keyin,
Do‘stlari bilan birga
Eng serqatnov bir yerga
Yuzta ko‘chat ekmoqchi.





* * *

Nur oqadi, kun-tun nur oqadi,
Nur oqadi quyoshdan yerda.
Yulduzlardan tinmay nur oqadi,
Kun-tun cho‘miladi kurramiz nurda.

Nur ham – materiya, deydi olimlar.
Yer shari kun sayin og‘irlasharmi?
Nimaga bo‘lmasa zulmat vahimasi
Girdobiga olar goho bu Sharni?

Milliard yillar necha milliard yulduz
Yer deb nur xirmonin hamon uyadi.
Nimaga bo‘lmasa unda odamlar
Qaro kunlarini og‘ir tuyadi.





CHO'LPON



MEN SHOIRMI?¹

Tarjimai holimga

Xayolim bir uchib, ketib qoladir,
Men ham tizginini qo'yib beraman.
Zotan, qandoq qilib tutib turaman?!
Eng nozik qilimga tegib qoladir.

Uchadir... uchadir... ming qabat ko'kni,
Bir boshdan siypalab o'ta beradir.
Zerikmay, erinmay keta beradir,
Ba'zan hovliqtirib jinni yurakni...

Ko'lanka kabidir, o'tkan yeridan
So'ngra qarasangiz, bir nishon qolmas,
Yurgan yerlaridan oziq ham olmas,
Shunda zerikaman uning sayridan...

Bir zamon bir shirin joyga yetganda,
Nariga o'tmasdan to'xtab qoladir,
Oshiqdek yastanib, yotib oladir...
Shu choqda qiynalish boshlanar menda.

Chunki xayolimning ko'zlari bilan
Bir go'zal holatni ko'rib turaman,
Lazzatga g'arq bo'lib, o'lib turaman
U holni borliqning so'zlari bilan

¹ Bu she'r Toshkentdagi O'lka o'zbek bilim yurtining yuqori sinf o'quvchilariga atab yozilib, ular tomonidan darsda tekshirilgan.

Anglatish qo‘limdan kelmay qoladir,
Shul choqda tillarim qaldirab ketib,
Borlig‘im yo‘qlikka g‘ildirab ketib
Demakki, “Boshqalar bilmay qoladir –

Shunday go‘zallikni! Attang, agar men
Rassom bo‘lsam edi, chizib berardim,
O‘xshash nusxa bilan yozib berardim.
Shu ojiz holimda shoirmenmi men?..”

Shoirlik menda bir soyami deyman,
Har bir tushunchamni yoza olmagach,
Rassomdek xayolni chiza olmagach,
Haqir borlig‘imga ko‘p afsus yeyman...

Xayolim yuksakdan tushib ketadir,
Shoirlik chang bo‘lib, uchib ketadir...

PARCHA

Maqtadim, ko‘kka ko‘tardim sizni men,
Endi menga sizga yetmaklik qiyin.
Maqtamoqg‘a bir kirishgach maqtayin,
To‘xtasam, so‘nggi tinimda to‘xtayin!..





VIJDON ERKI

Tutqunlarga

Ey tutqunlar, ey ezilgan,
Ey qiynalغان yo'qsul ellar!
Ey umidsiz, ey chizilgan
Dor oldiga... oppoq dillar!

Ey bevalar, bechoralar,
Ey bog'lang'an kishanlarga,
Ey erk uchun ovoralar,
Ko'p yalinmang siz ularga!

Bo'rilardan omon kutmak
Tentaklarning ishidir ul.
Har ma'nini hatlab o'tmak
Turmushda eng to'g'ri bir yo'l.

Zulm oldida har bir narsa,
Ehtimolki, bo'yin egar.
Agar zulm avjga kelsa,
Ko'k boshi-da yerga tegar.

Hayvonlarga, insonlarga
Zolim ega bo'lmay qolmas.
Faqat erkin vijdonlarga
Ega bo'lmak mumkin ermas!..



YONG'IN

Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q,
Go'daklar nayza boshida...

(Xabar)

Nega menim qulog'imda tun va kun,
Boyqushlarning shumli tovshi baqirar?
Nega menim borlig'imga har o'yun
Va har kulgi og'u separ, o't qo'yar?

Ko'nglim kabi yiqiq uylar, qishloqlar,
Boyqushlarga buzuq ko'ksin ochganmi?
Ota-ona, tanish-bilish, o'rtoqlar
Yurtni tashlab, tog' va toshga qochganmi?

Shunday katta bir o'lkada yonmagan,
Yiqilmagan, talanmagan uy yo'qmi?
Bir ko'z yo'qmi qonli yoshi tommagan,
Butun ko'ngil umidsizmi, siniqmi?

Podalarning yaylovida bo'rilar
Qonga to'ygach, uvlaylarmi ko'plashib,
Yiqiqlardan o'lkalarni to'plashib,
O'tmi qo'yar alvastilar, parilar?

Tabiatning butun yomon tomoni,
Shu o'lkaga faqat jilva qildimi?
Mo'minlarning oq vijdoni, imoni,
Sham so'nganday tinsizgina so'ndimi?

Qilichlarning tillarida qizil qon,
Buloqlarning suvi yanglig' toshdimi?
Yalang bola, yalang go'dak – ma'sum jon,
Nayzalarning boshlaridan oshdimi?

Keng yaylovga o'tmi ketdi, yondimi?
«Madaniyat» istagiga qondimi?

XAZON

Kuz chog'i... tuproqlar gezarib qoldilar,
Gezarib qoldilar kuz chog'i tuproqlar.
So'ng damda yaproqlar qizorib yondilar,
Qizorib yondilar so'ng damda yaproqlar.

Qarg'alar bog'larda qag'lashib qoldilar,
Bilmadim, kimlarning qismati uzilur?
Yong'oqqa yopishib, bir changal soldilar,
Bilmadim, kimlarning umidi yo'q bo'lur?

Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar,
U qo'pol tushingiz qorlarda yo'q bo'lsin!
Ey, menim bog'imdan mevamni terg'onlar,
U qora boshingiz yerlarga ko'mulsin!

Bilmadim, kimlarning umidi yo'q bo'lur,
So'ng damda yaproqlar qizorib yondilar?
Bilmadim, kimlarning qismati uzulur,
Kuz chog'i... tuproqlar gezarib qoldilar?

SOMON PARCHA

(*"Kundalik daftarim" dan*)

"...Dahr bir seylobdir mulhak fano daryosina
Bizki, sergiraniz ul seylaha dushmush xor-u xas.
Chizginur xar-u xas ul seylaba olduqcha revan
Etmenden daryaya rohat mumkin olmaz bir nafas..."

Fuzuliy

Topshirdim o'zimni muhitning erkiga...

Muhit girdobida bir somon parcha,
Bir poxol cho'pidek oqib boraman.
Har amal, har ishni "haq" deb boraman,
Vazminim qolmadi bir uzuq qilcha...

Muhit kuchli ekan, egdim bo'ynimni,
Chaqmoqdek yaltirab uchish yo'q endi.
Yolg'on xayollarga ko'chish yo'q endi,
Oqishning yo'liga soldim kunimni.

Na isyon, na to'lqin, na to'fon, na o't!
Ko'zimda og'ir bir taslim nuri bor.
Ay o'tli kechmishim, yuzingni berkit,
Senda shaytonlarning haqsiz zo'ri bor.

Men endi xuddi bir somon parchasi...
Lekin zo'r dengizning cheksiz qo'ynida,
Jimgina boradir kirsiz qo'ynimda,
Erkin ko'piklarning allaqanchasi!

Kirmayman ko'chaning boshi berkiga,
Chunki taslim bo'ldim muhit erkiga...



RAQAMLIK SEVGI

«Naylaram» kuyiga

Bir va ikki, uch va to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, o'n
Sanalarni yo'llaringda yostab o'tsang sen butun,
Yangi-yangi sanalar tursa qator ezmak uchun,
Shunda ham bo'lmasmi bir shafqat, tarahhum,
qizg'onish?

Xoli bog'da kuchli boda, xush saboda bir kecha...
To'lg'on oying nurlari o'psa sochingdan tonggacha,
So'ngra oppoq bir bulut boshingda yursa shomgacha,
Shunda ham ko'nglingda sezmay-sanmi ozroq
uyg'onish?

Yuzlaring bir, ko'zlaring o'n, so'zlaring ming aldadi,
Borlig'inga aldamoqdan boshqa narsa qolmadi.
Ko'kraginga qizg'onishning yellari qo'zg'olmadi,
Shul sababdandurki, ko'nglimda umrlik o'rtanish...

O'yna, kul, guldek egil, yovlar uchun, yovlar uchun...
Biz yotaylik yo'llaringda... yosta, tuproq qil butun.
Bir va ikki, uch va to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, o'n —
Sanalarning haqqi yolg'iz yo'llaringda yostanish...



KUZ YOMG'IRI

To'kildi tomchilar...
Yaproqning yuzlari
Tomchiga o'ptirib ho'llandi,
Chuqurcha qo'llandi...
Tomchini ko'pdirib,
Betida o'ynatdi.
Chuqurcha,
U – jindek ko'lcha,
Tomchilar –
Ko'klarning so'zlari
Yerlarni qamchilar...

YANGLISHASIZ

Siz deysizkim, men ko'klarni o'ylayman,
Yer betiga sira nazar solmayman!
Yanglishasiz, men ko'klarga berkingan
Yer qizidan xayolimni olmayman...



BAHORNI SOG'INDIM...

Bahorni sog'indim, bahorni...
Ko'rganda yerlar, olamlar to'la qorni.
Qor... qor —
Zaharli ninalar kabi
Ko'zlarga qarab oqar...
Qaydasiz, qaydasiz
Latif siynalar kabi
Dalalarga singgan bahor?
Tala-tuz,
Ekin-tikin...
G'amgin-g'amgin
So'la boshladi.
Sarg'aygan yaproq,
Bo'yanib tuproq
O'la boshladi, o'la boshladi...
Yo'q... o'lim yo'qdir!
Yolg'iz bir o'chib, bir so'nish bordir.
Bir o'chib, so'nib... yana yonish bor.
Yana bahorlar,
Yana lolalar,
Yana siz, ey... erkin tilaklar!..



SUYGAN CHOQLARDA

Go‘zallarning malikasi ekansan,
Buni sening ko‘zlarindan o‘qidim.
O‘qidim-da, istiqbolim qushiga
Xayolimdan oltin qafas to‘qidim.

Gunafshalar qulog‘imga madhingni
So‘zlab-so‘zlab charchadilar, bitmadi...
Alamzada bulbul yig‘lab, kechalar
Alamingning so‘ngin tamom etmadi.

Ko‘zingdagi hikoyaning mazmunin
Shoir bo‘lsam, aytib-aytib yig‘lardim.
O‘shal, eski jarohatli qalbimni
Satrlarning nashtari-la tilardim.

Xayolimning qip-qizildan kiyingan
Parilari, hurlarini ko‘rdingmi?
Alamimdan gullar ekkan yo‘llardan
Koinotga hayot sochib yurdingmi?

Yo‘llaringda she‘r aytsa so‘lgan barg,
Qulog‘imga musiqalar keltirur.
Qachon sening musiqali ovozing
Sening meni suyganingni bildirur?



GO'ZAL

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,
Aytadir: "Men uni tushda ko'ramen,
Tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!"

Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqq'a,
Boshlaymen oydan-da seni so'rmoqq'a.
Ul-da aytadir: "Bir qizil yanoqq'a
Uchradim tushimda, ko'milgan oqq'a.
Oqq'a ko'milganda shunchalar go'zal,
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

Erta tong shamoli sochlarin yoyib,
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.
Aytadir: "Bir ko'rib, yo'limdan ozib,
Tog' va toshlar ichra istab yuramen!
Bir ko'rdim men uni – shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

Ul ketkach, kun chiqar yorug'lik sochib,
Undan-da so'raymen sening to'g'ringda,
Ul-da uyatidan bekinib, qochib,
Aytadir: "Bir ko'rdim tushdama, o'ngda,
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

Men yo'qsil ne bo'lib uni suyibmen?!
Uning-chun yonibmen, yonib kuyibmen.
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen.
Men suyib... men suyib kimni suyibmen?
"Men suygan suyukli shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!"

QALANDAR ISHQI

(Eski tartibda)

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,
Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku.

Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'lqini bordir,
Halokat bo'lg'usin bilmay qulochni katta otdim-ku.

Ajib dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo do'stlar,
Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.

Uning gulzorida bulbul o'qib qon ayladi bag'rim,
Ko'zimdan yoshni jo aylab, alamlar ichra botdim-ku.

Qalandardek yurib dunyoni kezdim, topmayin yorni
Yana kulbanga qayg'ular, alamlar bir-la qaytdim-ku.

Muhabbat osmonida go'zal Cho'lpon edim, do'stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.



XAYOLI

Ko'nglimdagi muhabbatning uchqunin
Xayolimning bir burchida berkitdim.
Ul uchqunning kuchligidan siynamda
Hech tuzalmas, og'ir yara bor etdim.

Qulog'imga "Ol baxt!" deb eshitilgan
Azonlarni shaytoniy deb o'yladim,
Shuning uchun baxt bergan malakka
Turli-turli afsonalar so'zladim....

Sochlarini o'ynab turib eshitdi
Va dedikim: "Afsonalar behuda!"
Bul so'zlari qulog'img'a yetishdi:
"Oqdim, – dedim, – qonli, zardobli suvda..."

"Oq-oq, – dedi afsonalar sultoni, –
"Sening taxting, baxting unda kutadir;
Ul zardobli, qonli suvlar ostida
Qora kiygan joning jilva etadir".

Ket, ey shayton, bosinqiradim... qo'rqamen:
Ket-ket. Qilich singan, qalqon teshilgan.
Ko'rasanmi? Men ezilgan yotamen,
Ustingda-balo tog'i yiqilgan.

So'nggi nafas, oxirgi dam, ey malak,
Kel, bir qara, so'ngra yiqilsun falak.



ZARAFSHON

Safar esdaligi

Ko‘z oldimda oqib yotgan Zarafshon,
Yosh boladek erkalaydir, o‘ynaydir.
Hovliqma ham bo‘lsa o‘zi, ko‘p chaqqon,
Uncha-muncha to‘siqlarni qo‘ymaydir.

Katta-kichik toshlar bo‘lsa yo‘lida,
Hech quramay sudrab ketar ilgari.
Kim biladir, jon topshirmish qo‘lida,
Hazil-hazil bilan qancha yosh-qari?..

Uning o‘zi shu o‘ynoqi qilig‘i,
Shu hovliqma odati-la ko‘p qo‘rqinch,
Suvlarining nozli qizdek sillig‘i
Ko‘p tanlarni ag‘dararlik katta kuch!..

Undan qo‘rqinch uning o‘tkarganlari,
Saltanatlar, qonlar, ulug‘ tarixi.
Siynasida bo‘g‘ib o‘ldirganlari,
Ko‘p jonlarning ingrayishi va ohi!

Tarixining qanotlari so‘ng yillar
Allaqanday qora rang-la bo‘yalmish.
Yonlarida yashaguvchi ko‘p ellar
Qora yozmish qozig‘iga suyalmish...

Sho‘x-sho‘x oqib, yuragida yashirincha
Tarixlarni, asrlarni qarg‘amish.
Bilarmikin, o‘z umrida ul qancha
Yaxshi erlar yod etmish-da, alqamish?

Ay, Zarafshon, o'ynab-kulib oqa ber,
Mazlumlarning yuragini yoqa ber...

TABIATKA

(Said Ali Xo'jaga bag'ishlab)

Kel, malak, kel, kel, pari, kel, kel, o'pay bir erkalab,
Kel, quyosh chiqquncha o'ptir... kel, kel o'pay bir
ertalab!

Kel, quchoqlay, kel qo'lingni, barmog'ingni bir ko'ray,
Kel, ko'zingga ko'z solay, kel, ko'ray, so'ngra o'lay...
Kelma, kelma, ey pari, sen, tanlaring nurdir sening,
Tanlaring nur, yuzlaring nur, tenglaring hurdir sening...
Yoqti oylardan quyilgan yog'dulardandir taning,
Ko'k yuzida barcha yulduzlar suyunchingdir sening...
Ko'lankangdir – boqchalarga turli gullarni sochar,
Ko'z qarashingdir sening, elga saodatlar ochar...
O'ynashingdir – o'ynoqi yumshoq shamolni qo'zg'atar,
To'xtashingdir – dunyoda barcha hayotni to'xtatar.
So'zlashingdir – boqchalarda barcha qushni sayratar,
Bir tabassum qilmog'ingdir – barcha jonni yayratar,
Kuylashingdir – uyquda qotgan jahonni o'ynatar.
Uyqudan turgan jahon ul kuch bilandir, to'y etar...
Qayg'urib qolgan chog'ingdir, barcha jonlar qayg'urar.
Har tomonda qayg'u, hasrat, har aziz jon oh urar.
Ko'k yuzini qop-qora, mash'um bulutlardir o'rar,
Ul bulutlar ustiga otdek minib devlar chopar.
Har urishda qamchini o'tlar yonar, chaqmoq chaqar.
Ul bulutlar chopsalar devlar bilan osmon bo'yi,
Unda boshlansa jin, alvasti va shaytonlar to'yi.
Ko'k go'zaldir, sel yog'ar, do'llar quchar, to'fon bosar,
Qum ko'char... Tog'lar qadar qumlar ko'char... yo'lni
to'sar...

Zo‘r dengizlar na’ra tortar... jon so‘rar to‘lqin chopar.
Katta to‘lqinlar kelar-da, mayda to‘lqinlar qochar...
Mayda to‘lqinlar “o‘lim” raqsini etarlar kuylashib,
So‘ngra qirg‘oqqa chiqarlar jonlilarni yo‘qlashib.
Kelma-kelma... men faqir... bechora... yo‘qsil bir kishi.
Men kabi yo‘qsil kishinning yog‘dularida ne ishi?...

UYQU

(*“Bormaymen dedi” kuyiga*)

Jim turing, shovqinlamang, uyqu ichida ul pari,
Yurma, tek tur, ey shamol, yursang-da yur, biroz nari!

Ko‘kda bir to‘p qiz-malak uyqu kuyini boshladi.
Ilgari chalgan tirik, jonli kuyini tashladi.

Bosh uchida aylanar bir to‘p farishta jimgina;
Ko‘k elining Tangrisi – oy ham qaraydir tinchgina.

Ul olos ko‘zlar yumulgan... kuyni yondirgachgina,
Ko‘p go‘zal ko‘zlarni yumdirgach, uyaldirgachgina...

Charchagan, tolgan, umidsiz ko‘zlarim to‘ymay qarar,
Har qarashda ko‘nglima ming turli o‘ylarni solar...

Bu yotish, bu uyqu, bu qanday shirin, qanday go‘zal,
Jonlanar, yuz ko‘rsatar singan va yasangan amal.

U yotish, uyqu na yerda, na xayoliy ko‘kda bor,
Bu go‘zal sirli tomosha menda, men o‘ksukda bor.

Jim turing. Shovqinlamang, uyqu ichinda ul pari,
Ko‘zlarim to‘ymay qarar, borliq ko‘rinma, tur nari...

BINAFSHA

Yoz qayg'usi

Binafsha senmisen, binafsha senmi,
Ko'chada oqchaga sotilgan.
Binafsha menmenmi, binafsha menmi,
Sevgingga, qayg'ungga tutilgan?

Binafsha, nimaga birozroq ochilmay,
Bir erkin kulmasdan uzilding?
Binafsha, nimaga hidlaring sochilmay,
Yerlarga egilding, cho'zilding?

Binafsha,
Ayt menga,
Kimlardir ular, kim
Ignalar bag'ringga sanchalar?
Binafsha,
Bir so'yla,
U qanday qo'llar, kim
Uzalar, hidlaylar, yancharlar?
Binafsha, shunchalar chiroyli yuzing bor,
Nimaga uzoqroq kulmaysen?
Binafsha, shunchalar tortguvchi tusing bor,
Ko'nglimga erkinlik to'kmaysen?
Binafsha, yig'lama, binafsha, kel beri,
Qayg'ungni qayg'umg'a qo'shg'il,
Binafsha, sening-chun ko'kragim: erk yeri,
Bu yerdan ko'klarga uchg'il!
Binafsha, go'zalim, qayg'ulim kelmaysen,
Qayg'ung zo'r, qayg'umni bilmaysen,
Menga bir kulmaysen!..

BUZILGAN O'LKAGA

Ey, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka,
Nega sening boshing uzra quyuc bulut ko'lanka?
Ujmohlarning kavsaridek pokiza,
Sadaflarning donasidek top-toza.
Salqin suvlar tog'dan quyi tusharkan,
Tomchilari yomg'ir kabi ucharkan,
Nima uchun yig'lar kabi ingraylar?
Yov bormi, deb to'rt tarafni tinglaylar?
Tabiatning o'tini yo'q o'tida,
Sharaq-sharaq qaynab chiqqan buloqlar
Har qorong'i, qo'rqinch tunning betida
Shifo istab kelmasin der, qo'noqlar.

– Bu nega?

Ayt menga.

Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlaring bosilg'on,
Ustlarida na poda bor, na yilqi,
Podachilar qaysi dorga osilg'on?
Ot kishnashi, qo'y ma'rashi o'rniga

– Oh, yig'i,

Bu nega?

Tumorchalar, hamoyillar taqingan,

Dalalarda lola bargi yopingan,

Tog'-toshlarda o'yin qilgan,

Chopingan

Go'zal qizlar, yosh kelinlar qayerda?

Javob yo'qmi ko'klardan-da, yerdan-da,

Xarob bo'lgan eldan-da.

Ot minganda qushlar kabi uchguvchi,

Erkin-erkin havolarni quchguvchi,

Ot chopganda uchar qushni tutguvchi,

Uchar qushday yosh yigitlar qayerda?

Tog' egasi: sor, burgutlar qayerda?
 Sening qattiq sirt-bag'ringni ko'p yillardir ezganlar,
 Sen bezsang-da, qarg'asang-da, ko'kragingda
kezganlar,
 Sening erkin tuprog'ingda hech haqqi yo'q xo'jalar,
 Nega seni bir qul kabi qizg'anmasdan yanchalar?
 Nega sening qalin tovshing «ket» demaydi ularga?
 Nega sening erkli ko'ngling erk bermaydi qo'llarga?
 Nega tag'in tanlaringda qamchilarning kulishi?
 Nega sening turmushingda umidlarning o'lishi?
 Nega yolg'iz qon bo'lmishdir ulushing?
 Nega buncha umidsizdir turishing?
 Nima uchun ko'zlaringda tutashguvchi olov yo'q?
 Nima uchun tunlaringda bo'rilarning qorni to'q?
 Nima uchun g'azabingni uyg'otmaydi og'u - o'q?
 Nima uchun borlig'ingda bu daraja buzg'unlik?
 Nima uchun o'ch buluti sellarini yog'dirmas?
 Nima uchun kuch tangrisi bor kuchi-la soldirmas?
 ...Kel, men senga qisqagina doston o'qiy,
 Qulog'ingga o'tganlardan ertak to'qiy.
 Kel, ko'zingning yoshlarini so'rib olay...
 Kel, yarali tanlaringni ko'rib olay, to'yib olay...
 Nima uchun ag'darilgan, yiqilgan
 Og'ir tojning zahar o'qi ko'ksingda?
 Nima uchun yovlaringni bir zamon
 Yo'q qilgunday temirli o'ch yo'q senda?
 Ey, har turli qulliklarni sig'dirmagan, hur o'lka,
 Nega sening bo'g'zingni bo'g'ib turar ko'lanka?



YORUG' YULDUZGA

(Hazar esdaligi)

Go'zal yulduz, nurli yulduz, tez so'zla.
Otalarning tarixdagi xatosin,
Shul xatodan osuflanib tovlarning
El ko'ksida surgan ishrat, safosin.

So'zla, anglat o'tgandagi turmushning
Butun qonli, shonli, jonli yerlarin.
Ko'z oldimda jilvalanur yurt uchun
Jonlar berib, qonlar to'kkan yerlaring.

O'ynat, qo'zg'at, to'lqinlantir, hovliqtir
Keng Hazarning ko'm-ko'k, yumshoq suvlarin,
So'zlattirib, charchat, horsin, charchasin,
Teri oqsin, ko'kka chiqar bug'larin.

Ko'piklantir, mayda, oppoq ko'pikdan
Ko'ylak kiydir, yasantir suv betlarin,
Ul suvlar-la pardozi qildir, kiyintir
Tog'li, toshli qirg'oqlarin, chetlarin.

Nega jimsen, nega javob bermaysen,
Nega ko'zing qizarindi, yoshlandi?
Nega yuzing so'lgan kabi yumshardi?
Nega senda bir talvasa boshlandi?

Bilamen men, so‘zlamaysen shuning-chun –
So‘zlaydirgan yaxshi so‘zing yo‘q erur.
Og‘iz ochsang, yo‘qsil elni ezmakka,
Qon qilmoqqa hasratlaring ko‘p erur.

Mayli, mayli, qandoq achchiq bo‘lsa ham,
To‘g‘ri so‘zni yashirmasdan so‘zlay ber,
Har qanchalar yurak yorg‘ich kuy bo‘lsa,
Botir bo‘lib sekingina kuylay ber.

O‘tganlarning zahari ham bu kunda
Ko‘ngillarga tegmay o‘tar kabidir.
Kechmishlarning yig‘isi ham shu kunda
Yo‘qsil dilni suyuntirar kabidir.

Falokatlar ko‘rgan ota-bobolar
Istiqbolning qimmatini bilmagan.
El va yurtni saqlar uchun so‘ng xonlar
Tuzukkina chora, tadbir qilmagan.

Biz, yo‘qsillar, boshqalarga qul bo‘lib,
Chet oyoqlar tomonidan ezildik.
Har yaramas, har buzuqning tagida
Alam ortgan, jabr ko‘rgan biz edik.

Yetar, bo‘ldi. Meni gapga solding-da,
O‘zing unda tinglabgina turasan:
Yana, tag‘in ta’sirlanib so‘zimdan,
Oh-voh qilib, o‘zni har yon urasan.

So‘zla, sen-da tillaringni o‘ynatib,
Eski alam ichra bizni olib bor.
Yashirin yotgan pardalarni, zulmatni
Qarab turma, nuring bilan yirt-yubor.

Yalintirma, boshqalarga yalingan
Kabi sen ham yalintirmoq istaysen,
Ezilganni ezishlikka sen, go‘zal.
Ozroq sharm, ozroq hayo qilmaysen?

So‘zla, anglat, go‘zal yulduz, tez so‘zla,
Men-da seningdek chiroyli so‘ylarmen.
Hazardagi ko‘piklarga birlashib,
Seni maqtab shirin kuylar kuylarmen.

Og‘iz ochding, tovshing keldi, ey yulduz,
So‘zla, so‘zla, yot kishi yo‘q, ikkimiz...

KURASH

Baqirguvchi, o‘kirguvchi bir tovush
Botirlarning jon so‘rag‘an tovshidir.
Yiqitguvchi, ag‘darguvchi qo‘zg‘alish
Yaqindagi zo‘r kurashning boshidir.

Tentaklardek borar yerin bilolmay,
Unda-bunda o‘zni urgan dushmandir.
Keng yurakda tura olmay, sig‘olmay,
Toshib ketgan yo‘qsildagi imondir.

Ulug‘, qattiq ag‘darguvchi bir kurash,
Yo bor bo‘lish, yo yo‘q bo‘lish,
Yo‘q – yarash!



PO'RTANA

Po'rtana qo'zg'aldi, po'rtana yurdi,
Po'rtana o'zini qirg'oqqa urdi.
Po'rtana oldida bir kema ko'rdi;
Ichida zich odam... o'ynatdi, surdi.

Ul kuchli, ul botir, ul qo'rqmas, yuraklik,
Ul mag'rur, kerilgan ham majnun, hovliqma,
Faryod der qirg'oqlar undan, shu tug'rolik –
Shahardek kemalar unga bir luqma...

Ul o'zi qon ichar, qon olur bo'lsa-da,
Bag'rida sevgisi kuchli,
Baqirib, o'kirib, yugurib yursa-da,
Go'zalni suyuvga o'chli...

Suv qizi:

chiroyli, sochlari qop-qora,
Bo'ynidan sochilgan, tarqoq,
Ko'zlari dil tortar, chetroqdan bir qara.
Ilinding... rahmsiz ul tuzoq...

Ko'zlari kiyikni ko'r qildi ko'rmading,
So'zlari – bulbulni tutqin;
Yuzlari oylarni botirdi bilmading,
Bulutlar ostiga qochib kirdi kun!

Ana shul go'zalni, ana shul malakni
Yo'q , yanglish... falakni,
Po'rtana ko'ksida saqlar,
Yerlar sarf etar g'ayratni, amakni
ishqilib malakni,
Yo'q... jahon, falakni
Oq ko'pik ichida oqlar.

Ba'zida hisobsiz oq ko'pik ichiga
Sultondek tutqizar uni,
Dam ko'kka irg'itib, dam tortar ko'ksiga.
Shu yo'lda o'ynatur qizni,
Kuldirib u nurli yuzni.
Suydirib u ohu ko'zni,
Qul qilib sizni ham bizni...

Ko'piklar... u oppoq, sanoqsiz ko'piklar
Yulduzdek jimirlab turalar,
Ko'piklar... u kichik, chiroylik ko'piklar
Oshiqning ko'nglidan uralar...

Qichqirar, bo'kirar, bo'kirar yo'lbarsdek,
Yugurar, sekirar, otilur devdek.
Oldida hech to'siq. Hech mone qo'ymasdek
Intilar... o'ng-so'lni ko'rmay...

Ko'tarsa boshini, ko'klarga tegadir.
Bulutlar, chaqmoqlar dahshatda,
Egsa ul bo'ynini, ko'p vaqt egadir,
Suv tegin ko'rasan dahshatda.

Jonvorlar qo'rqadir... dahshatda titraydir.
Baliqlar o'limni kutalar.

Kuchligi kuchsizni yutmaydir, sitmaydir.
Qo'rquvdan og'ular yutarlar...

Dengiz tinch, qo'rquv yo'q. Qiyomat uxlaydir.
Po'rtana jimjitdir uyda.
Shamolni po'rtana qo'zg'atmay saqlaydir
Qo'zg'almoq degan so'z yo'q unda.

Bu – mahshar, qiyomat, po'rtana. To'lqinlar –
Hammasi yo'qsilning ko'nglida.
Bir damda dunyoni kuydirur vulqonlar
Ojizning u o'tli dilida...

O'yna, ey to'lqinlar, po'rtana dahshat sol.
Qirg'oqlar titrasin, qo'rqib,
Ko'k yuzi; yer osti tinch bo'lsa – vahshat sol
Daryodan suv tashlab, purkab.

Bu mening keng ko'nglim g'avg'oni, janjalni,
To'polon, qo'zg'alish, chuvalash,
 isyonni, to'fonni
Suyadir; shuning-chun dunyoni, jahonni,
 tog' va tosh
Hammasin ag'darmoq istaydir,
 yonadir, kuyadir...

O'ynat, ey, po'rtana, to'xtatma, quvvat ol.
Chog' kelgach, erinib yotma, uxlama,
 bo'lmasin yo'qlama.
Ko'p ezgan dushmandan,
 past yondan
O'chni ol, o'chni ol, o'ch ol!..



XALQ

Xalq dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchdir.
Xalq isyondir, xalq olovdur, xalq o‘chdir...
Xalq qo‘zg‘alsa kuch yo‘qdir, kim to‘xtatsin.
Quvvat yo‘q, kim xalq istagin yo‘q etsin.

Xalq isyoni saltanatni yo‘q qildi.
Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi...
Xalq istagi: ozod bo‘lsin bu o‘lka,
Ketsun uning boshidagi ko‘lanka.

Bir qo‘zg‘alur, bir ko‘pirar, bir qaynar,
Bir intilur, bir hovliqar, bir o‘ynar,
Yo‘qlikni-da, ochlikni-da yo‘q etar,
O‘z yurtini har narsaga to‘q etar...

Butun kuchni xalq ichidan olaylik,
Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!





ISHQ YO‘LI

(*Erkin she‘r*)

Sabrning kosasi to‘lgandir,
Bu og‘ir ayriliq to‘ydirg‘an,
Oh, qancha azoblar bo‘lgandir,
Go‘zalim, xabaring bo‘lmag‘an!

Och axir, ochgil, kim ko‘ksingni;
Bir nafas o‘zimni unutay.
Unutmoq butunlay “o‘zlik”ni,
Oh, shundan najotni men topay.

Kechalar... kechalar, oh sonsiz va oysiz.
Bir kecha menga xuddi bir yildir.
Qaytarib aytalar: Kechalar – ro‘yosiz,
Oldinda... “Ko‘p og‘ir bir yo‘ldir!

Ey darvesh, bu yo‘lda birgina yo‘lchi,
Ketaver, bir kuni so‘ngig‘a yetarsen!..”





KO'NGIL

Ko'ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do'stlashding?
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?

Haqorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?
Kishanlar parchalanmasmi?
Qilichlar endi sinmasmi?

Tirixsen, o'lmagansen,
Sen-da odam, sen-da insonsen.
Kishan kiyma,
Bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ilg'onsen!





ULUG' YO'LDA

Yo'limizda cho'llar, suvlar, dengizlar.
Bosh uchini tanib bo'lmaslik izlar.
Shu izlarni bosib, dengizlar kechib,
Buyuk amal bilan boramiz bizlar.

Yurakdagi saqlab borgan amallar
Yo'llardagi dengizlardan ulug'roq.
Ezilganlar tilak tilar bu yo'li
Burungidan to'luqroq.

Mahkam qilib bog'lanilgan kamarlar,
– Tezrak!
– Qanot!
Qushlar yanglig' uchaylik.
Keng cho'llardan, dengizlardan kechaylik,
Sharqning eski chigalini yechaylik!





MIRTEMIR



CHASHMA BO'YIDA

Bir ko'klam tongining nozli chog'ida
Chashma bo'ylarida o'ltirib qoldim.
Qo'ynimga chechaklar to'ldirib oldim,
Sezardim o'zimni zavq quchog'ida.

Ko'm-ko'k og'ochlarning qalin shoxida
Qanotli kuychilar sayrashda edi.
Ezilgan ko'ngillar yayrashda edi.
Farah yuz ochardi qalbim bog'ida.

Sof, kumush chashmaning sirli bo'yida
G'am-u g'ussalarni men ham to'kardim.
Charchagan tanamni yengillatardim.
Umidlar ekardim g'amlar o'rnida.

Tiniq chashma bo'yi – yashillik qo'yni:
Quchar va kuch berar edi menga ul.
Quyosh! Shu chog'larda soch tarqatib kul.
Tabiat boshlamish ko'klam to'yini.

Chashma bo'ylarida qoldim bir tongda.
Chechaklar kulardi shunda har yonda!..



* * *

Samoga termilib boqdim kechasi...
Samo cheksiz, yashil dalaga o'xshar.
To'lin oy kechanning oppoq g'unchasi,
Har yulduzi qirmizi lolaga o'xshar.

Adirda yurganman navro'z ayyomi,
Adir cheksiz, yashil dengizga o'xshar,
Shu qadar chechak mo'l, topilmas nomi,
Har barra qizg'aldoq yulduzga o'xshar.

Yam-yashil samoning ko'rki – yulduzdir,
Yam-yashil dalaning ko'rki – qizg'aldoq,
To'qayzor ko'llarning ko'rki – qunduzdir,
Baland tog'lar ko'rki – cho'qqilari oq...

Salqin buloqlardan qonar yo'lovchi,
Gul ochilsa, bog'da bulbul nag'makor.
Jayron hasratida yo'l kechar ovchi,
Oshiqning dardini so'ylar g'azal, tor...

Qora kun kelganda do'st keladi ilk,
Nomard do'st – dushmandan battar jafodir!
Yigit ko'rki esa mardlik, tantilik,
Aqli raso yorning ko'rki vafodir.



* * *

Ofatlar qochiq bizga,
Oq yo'llar ochiq bizga,
Ona-Vatan hurmati
Ko'zda qorachiq bizga!

Do'stlik – yarashiq bizga
Olamlar oshiq bizga.
Duchor kelsa mashaqqat –
Tantilik – mashq bizga!

YURT QO'SHIG'I

Qancha yiroq chopsa charchamas tulpor,
Qancha yiroq oqsa qurimas buloq.
Maysa qulf urganda mast bo'ladi nor,
Nafsi yomon kishi bo'lur qurg'uloq...

Tuproq ostida ham zar – hamisha zar,
Kumushni zang bossa – kumushdir hamon.
Dengiz tublarida gavhardir – gavhar,
Chiqar tog' tagidan kon ham bir zamon...

Oyni etak bilan to'sib bo'lurmi?
Tutatqi bo'lurmi yulduz cho'g'ida?
Ayting-chi, mard odam aslo o'lurmi?
Nomi qolar yurt qo'shig'ida...



KO‘L BO‘YLARIDA

Chanqoq dalalarning dudoqlariga
Hayot toshqinlari limmo-lim oqar.
So‘lg‘in sahro yassi qumloqlariga
Yalpizlar, rayhonlar, chechaklar taqar.

O‘sar adirlarda yashil to‘qaylar,
Bulbullar o‘qishar gul butog‘ida.
Jannatga aylanur changalzor joylar,
Bepoyon Vatanning bu aymog‘ida.

Darrandalar kezgan bo‘sh daralarda
Ma‘rashar podalar, yilqilar, qo‘ylar.
O‘tgusi guno-gun manzaralarda
Mehnat bayramlari, shodumon to‘ylar.

Baxshi dostonida kuylangan daryo—
Xalqim xayolida barq urgan soz ko‘l
Mardlar qudratida bo‘ldi muhayyo,
Qatralari gavhar, gavharlari mo‘l...

Ofarin, marhabo, Oqbilak opa!
Ofarin, tasanno, bahodir Yodgor!
Cho‘lda vafo ko‘li, ishq ko‘li barpo,
Dengiz qadar cheksiz mazmunlari bor.

Balli, azamatlar, toping baraka,
Yashaymiz, yoronlar, manguлик bu baxt.

Bizniki g'alaba, to'y-u ma'raka,
Yo'q edi, bor bo'ldi zar ko'l, ayni vaqt!

O'sar adirlarda yashil to'qaylar,
Bulbullar o'qishar gul butog'ida.
Jannatga aylanur yavshanzor joylar
Bepoyon Vatanning bu aymog'ida.

* * *

Daryo jimir-jimir, osmon lojuvard,
Bog'lar mudramoqda, dala bepoyon.
Kuyla, to'lib-toshib, ko'rmagin hech dard,
Kuylasang balqiydi zamin-u zamon;
Bog'lar mudramoqda, dala bepoyon.

Suvda qalqib o'ynar kumush tangalar,
Yorug' suv sharpasi kelar Amudan.
Cho'chitmasin to'qay, huv ko'lankalar,
Ko'nglim qo'shiq istar senday suluvdan,
Yorug' tun sharpasi kelar Amudan.

Oydinda chechaklar ko'rki o'xshovsiz,
Kuyla, kuylash uchun oydin – oz mahal.
O'zim to'qib beray senga, yaxshi qiz,
Berdaq to'qiyolmay ketgan sho'x g'azal;
Kuyla, kuylash uchun oydin – soz mahal.





SULUV YOZ

Suluv yoz, bag'ri keng, yuzi yorug' yoz,
Nechog'liq fayz-u gasht, hikmat mo'l senda!
Dalalar ko'rkam-u chechaklar serob,
Ochiq-u xazinasan – himmat mo'l senda!

Cho'llasang cho'pon bor, och qolsang – dehqon.
Cho'pon ham, dehqon ham tinchimas yozda,
El kuni yer bilan! Ter to'kar inson –
Poyga chopmoq uchun qorda-ayozda...

Igna ham u urishni bilsang yaroq-da...
Chumoliday tinmas el ertadan-kech.
Birov suv boshida, birov o'roqda,
Harakat qolurmi barakatsiz hech!

Soldovchilar suron solar qirg'oqda...
Chopiqchilar to'p-to'p qilishar tushlik.
Yalla sadolari yiroq-yiroqda,
Saraton. Manglay ter va ko'ngilxushlik.

Tush chog'i jimirlab olis jiydazor,
Podani kavshatib, mudraydi cho'pon.
Oqshom... Horiganga halovat tayyor,
Salqin tun qo'ynida uxlar biyobon.



KIPRIKLARIM

Yosh qalamkashlarga ataganim

Kipriklarim qo'ng'irmikan yo qora?
Kipriklarim yuztamikin yoki ming?
Kipriklarim muncha aziz va sara,
Ko'zginamning kipriklari...

Quyunlarda qolganimda, changga o'ralganimda,
Ohangaron to'zonidan zanj qoralganimda,
Yoki yaxshi timsol izlab, changday taralganimda,
Yoki bir she'r armonida yuz bir ko'ralganimda,
O'zbekiston tonglarini bedor kutgan ko'zlarim,
Tengsiz tonglar falsafasin tashna yutgan ko'zlarim,
Ko'zlarimga chegarada shay askarday qo'riqchi,
Ko'zlarimga olis Bobur g'ussasiday yo'riqchi,
Ey, aziz kipriklarim.

Sergaklikda tiriklarning siz-ku eng tiriklari.
Kiprigimday azizlarim, nechog'liy ham suyuksiz,
Armonimday buyuksiz!





QORA KO'ZLI

Qora ko'zli va gul diydor,
Bahor chog'i meni yod et!
Xiyobonda kezar bo'lsang,
Nahor chog'i meni yod et!

Qora ko'zli, so'lim dildor,
Senga aytay sirim oshkor,
Agar kechsa kechang bedor,
Sahar chog'i meni yod et!

Qora ko'zli, vafoli yor,
Ajab xilvat, chamanzor bor,
Ko'zing tushsa – etar xumor,
Xumor chog'i meni yod et!

Qora ko'zli va gul diydor,
Bo'lay jangda shijoatkor,
Agar o'lsam, so'ray takror,
Bahor chog'i meni yod et!





TO'RG'AY

Yoz boshi, dalalar soz,
O'z ko'rkini yoymish yoz,
Chechaklarda hali noz,
Ko'llar to'la suqsur, g'oz,
Oq bulutlar cho'g'lanib,
Tong otar yallig'lanib,
Ko'l osmoni bug'lanib,
Ko'rinar go'yo sayoz,
Shu vaqt allaqaylardan,
Qaydam, qanday joylardan,
Dashtdanmi yo soylardan
Yangrab ketar sho'x ovoz,
Hech o'xshashi yo'q ovoz.
Tut bargi kesganlardan,
Suvga chim bosganlardan
Un chiqmas, tinglashar jim.
Kim u o'zi, qani, kim?
Qushlar ham qilmas parvoz.
Jonvorlar ham tinglardi.
Bog'bon ham, paxtakor ham,
Sholikor, chorvador ham,
Butun odam tinglardi,
Go'yo olam tinglardi,
Qandoq tinmagur ovoz!..
Men chopib cho'lga chiqdim,
Hech kim ko'rinmas edi.

Kattakon yo'lga chiqdim,
Hech kim ko'rinmas edi.
Keyin boqdim osmonga:
Kuy taratib jahonga,
Ko'k osmon cho'qqisida,
Moviy rang ko'zgisida,
Bir nuqtada pirillab,
Bir nuqtada chirillab,
Nuqtaday bir qush uchar,
Go'yoki behush uchar...
– Hoy, – dedim, – o'zing kimsan,
Bunchalar betinimsan,
Javroqisan bunchalar,
O'ynoqisan bunchalar,
Tinmay tushib o'yinga,
Lol etasan kuyingga?
– Men-ku, men to'rg'ay, – dedi. –
Ko'k yuzi soz joy, – dedi.
Dema, chala ko'rinar,
Butun dala ko'rinar.
Ko'k yuzida chirillab,
Yuz bir qo'shiq to'qisam,
Bir nuqtada pirillab,
Keng vodiya o'qisam –
Yomonmi, hoy, sho'x o'g'lon?
Hayotni maqtaganim,
Tongni ardoqlaganim –
Yomonmi, hoy, sho'x o'g'lon?
– Ha, tongni ardoqlagin,
Hayotni ham maqtagin,
Uchib-o'ynayver, – dedim. –
Kuylab quvnayver, – dedim.



USTOZGA AYTGANIM

Oybekka

She'r – hikmat daryosi, sehr daryosi,
Jumboqday bittalab yecholsam deyman.
Ilm-u ishq daryosi, mehr daryosi,
Qonib-qonib men ham icholsam deyman.

Qo'ying bir xazina – bebaho durdan,
Tozaliging o'tar toza billurdan,
Yaralibsan go'yo bir daryo nurdan,
Nuringni nur bo'lib qucholsam deyman.

Hayratda qarayman, dil toshib-to'lib,
Sendan suv ichganlar qolmaydi so'lib,
Men ham shu daryoda bir to'lqin bo'lib,
Cho'llardan sel kabi kecholsam deyman.

Jonlarning ozig'i – so'zning yotig'i,
So'zim bo'lsa elning qo'shiq yo tig'i,
Ko'nglimni titratmas aslo yot yig'i,
Doim xushvaqt davron qucholsam deyman.

Ko'klamda quyilar ne-ne irmoq, sel.
To'qaylarda kezar yelpib-yelpib yel,
Bahra olar, qonar ham tuproq, ham el,
Sohillarda men ham soz chalsam deyman.

To‘lqinida yuz bir quyosh jilosi,
Har qatrasini ne-ne dardning davosi,
Bo‘ylarida o‘sar mehriyosi,
Mavjiga to‘sh urib, ucholsam deyman.

Jayhunmisan, qaydam, yo teran Sayhun?
Har qalay toshqinsan, jo‘shqinsan, jo‘shqin,
Ona tuprog‘imga zarursan har kun,
Men ham qonib-qonib icholsam deyman.

SEN BARGIDA...

Sen bargida bo‘lsang men shoxidaydim,
O‘ylamaki, uzlat bargohidaydim,
Yo Mashrab, yo Xayyom panohidaydim...
Yo‘q, men haqiqatning dargohidaydim,
Sen bargida bo‘lsang, men shoxidaydim.

Ha, men shoxidaydim, agar silkinsam,
Bargday uzilishing aniq edi, ha,
Xazoningga ko‘nglim qoniq edi, ha.
Hattoki shox bilan qo‘shala sinsam...
Bargday uzilarding agar silkinsam.

Bargida yuraver, g‘ingshib gohida,
Mayli, maymun yanglig‘ taqlidga yopish,
Iblis bilan topish, yel bilan chopish...
Men shoxida qolay, o‘sha shoxida...
Qolay haqiqatning o‘z dargohida!



* * *

Fasli bahor, qir lolazor,
To'rg'ay uchar sor ustina.
Lolazorda kuyula, dildor,
Rubob chalay tor ustina.

Ne bor visolingdan shirin.
Yonoqda xolingdan shirin,
Bo'stonliq bolidan shirin,
Olma hidi nor ustina.

Bir – sen, bir – men, ko'l qirg'og'i,
Yashil yaylov – oqshom chog'i,
Oqshom chog'i – visol bog'i,
Oy ham qo'nar dor ustina.

Beishqlar dardi dard emas,
Ishq faqat ohi sard emas,
Yorni ranjitgan mard emas,
Qor yog'gusi qor ustina.

Eldan ayrilgan begona...
Yordan ayrilgan devona,
Yor o'lguncha men parvona,
Yor sevmayman yor ustina.



YOZ YOMG'IRI

Yoz yomg'iri yog'adi sim-sim...
Bog'lar changin yuvayapman, der,
Cho'l taftini quvayapman,— der —
Quloq solsam qo'shig'iga jim.
Sim-sim yomg'ir, obi rahmat-ku:
Irmoqlardan jilg'a bo'l, mayli,
Jilg'alardan soyga to'l, mayli,
Obi rahmat— bu barakat-ku.
Paxtakorning ko'nglini chog' et,
G'o'zalarning ol g'uborini.
Hozirdanoq chal kuz torini,
Ofatlarni yo'latma, dog' et!
Ekinzorni haftrang tovlantir,
Suvchilarning yuzin silab o't,
Faqat yaxshi tilak tilab o't.
Chorvadorning ko'zin quvontir...
Sim-sim yomg'ir, sirli soz misol.
Pichirlaydi ona tabiat.
Saxiyligi ortganday qat-qat,
Go'yo deydi: ol, ol, olib qol!...
Unutma, hoy shoiringni ham,
Ko'krak to'la nafas olayin.
Go'zallikni kuyga solayin,
Yoz yomg'iri, kuzgi barakam!



KO'KLAM ELCHISI

Soy qirg'og'ida
Yo chamanzorda,
Ko'klam chog'ida
Ajab gasht bor-da...
Silaydi na xush
Cho'llar havosi,
Sayrar ne-ne qush –
Sevgi navosi...
Yalpiz anqiydi,
Ilk ko'klam hidi!

Hammadan burun
G'uncha ochguvchi,
Dimoqqa durkun
Atir sochguvchi –
Dema: gul pechak,
O'zga chechak bor.
Chechakmi – chechak,
Ko'kish, fusunkor,
Jimjima xati,
Gunafsha oti.

Nozik va tamtam,
Xiyla tortinchoq,
Jimillar biram,
Inju taqinchoq,
Ko'klam elchisi,

Tonglar kulgusi,
Jannatiy isi,
Samoviy tusi.
Yoshlikday suluv,
Binafsha-da shu...
Qani, yur qirga,
Kezaylik picha...
Teraylik birga,
Kun botgunicha...
Binafsha terib,
Chakkangga taqqin,
Tong kabi erib,
Ko‘zimga boqqin.
Suvda suralay,
Ko‘zi quralay!

Yashil og‘ushda –
Qirg‘oq adir, bo‘z,
Qo‘shiq tush-tushda,
Navro‘z-da, navro‘z...
Damlar g‘animat,
Qani, yur dildor,
Suyuk va qimmat,
Olamda ne bor –
Yoshlik kabi sho‘x,
Yoshlik kabi cho‘g‘...





HALI HAM...

...Onam non yopadi bo'g'riqib-bo'rtib,
Dam-badam kuyadi qo'li yengsakda.
Chiviq toycham gijing, yo'rg'alab-yo'rtib,
Hadeb aylanaman shu tevarakda.

Nari ketolmayman o'choq boshidan,
Yuguruk bo'lsa ham toycham nechog'liq.
Mazaliroq ba'zan qiyma oshidan,
Har gal bitta patir menga atog'liq...

Yalpizlik, rayhonlik yo jindak jizza,
So'lqildoq, yumaloq, cho'g'day va qumoq,
Gohi bo'lsam hamki kimdandir izza,
Sinib yotsa hatto kichik arg'umoq.

Menga o'sha patir tegsa bo'ldi, bas,
Otlanib, ovloqqa jo'nayman darrov.
Ayiqli yo qoplon – menga pisandmas,
Patir to'qligida o'ljalik-da ov.

...Dilda armon qoldi, umrga tatir,
Ne kunlar bor ekan manglayginamda.
Qishloqda yodimga tushdi shu patir,
- Hali ham ta'mi bor tanglayginamda.



SHUDRING

Tong belgi bergandanoq
O'tib osma ko'prikdan
Jar ketiga chopardim –
Jar keti o'zga olam,

To'ldirib chanoq-chanoq,
Go'yo sutdek ko'pikdan.
Tutgandek g'oyib qo'llar –
Jilvagar ko'zga olam.

G'o'za yaproqlarida
Ko'katlarning bargida,
Chechaklarning bag'rida
Yaltirar lak-lak inju.

Sho'x soy qirg'oqlarida,
Nihollar kurtagida,
Sal epkinda simobday,
Qaltirar lak-lak inju.

Yaltirar suyri tepa,
Yaltirar qir uzunchoq,
Kelinlar taqinchog'i,
Uzuk ko'zlarimi yo.

Chor atrof sabzalarda
Jimir-jimir ko'zmunchoq,
Bo'y-bo'y dilrabolarning
Suzuk ko'zlarimi yo?

Yo‘q, bu giryon ko‘zlarning
Yarqiroq zamzamasi.
Kechasi onam tag‘in
Yig‘labdi-da chamasi...

SEN ONA...

Alisherga alla aytib uxlatgan
Sen — ona.
Og‘ushida Bobur kamolga yetgan
Sen — ona.
Tarobiyni og‘ir jangga jo‘natgan
Sen — ona.
Olamni nurida munavvar etgan
Sen — ona.
Yig‘lasa, dunyoni raso titratgan
Sen — ona.
Kulgisi saodat parvarish etgan
Sen — ona.
Dohiyalar beshigin bedor tebratgan
Sen — ona.
Mehri bahorida elni yashnatgan
Sen — ona.
Yagona o‘g‘lingni jo‘natding jangga,
Bo‘l bardam, ona!
Onaday oshiq yo‘q Ona-Vatanga,
Muhtaram ona...



ONAGINAM

1

Tovonimga chaqir tikanakday botuvchi –
g'ashlik,
Bedavo sizloviqday sizlatguvchi –
g'ashlik.
Jigarimni qiymalab ahyon-ahyon,
Chuchvaraga chekkuvchi –
g'ashlik.
Meni o'ylab notavon va nimjon,
G'ashimga tekkuvchi –
g'ashlik.
Suyaklarimni sirqiratib,
och tevatday g'ajiguchi,
Ko'zimga yosh tirqiratib,
jig'ildonimda achchiq bo'zaday achiguvchi –
g'ashlik...
Dunyoga qayta kelishimga ko'zim yetsaydi,
Yigit yoshim to'lmay turib,
Ayriliq zaylida qoq yog'ochday qurib
Jon bergan onamni ko'rishimga
ko'zim yetsaydi,
Tizzasiga bir nafas bosh qo'yishimga
ko'zim yetsaydi,
Onalik mehriga o'bdon to'yishimga
ko'zim yetsaydi,
Oq sutingni oqlay, deyishimga
ko'zim yetsaydi,
Menda g'ashlik netardi?

Yantoq o'tinidek,
Tamaki tutunidek,
Tong paytida taralgan badbaxtlik tunidek –
Cheksiz fazolarga tarqab ketardi!

2

Onaginam!

Odam bo'ldimmi menam?

Yigit yoshimgacha bir chelak suv keltirib
bermagan bo'lsam,

Yo tashnaligingda bir kosa sharbat to'ldirib
bermagam bo'lsam,

Yo non yopishing uchun,

Hatto bir yo'la, bir kun

Sahrodan o'tin orqalab kelmagan bolangman...

Og'zingdan so'z chiqmay, yelmagan bolangman...

Sening arzimas bir yumushingni ado etolmaganim,

Sening bir ishorangga yuz o'mbaloq oshib
ketolmaganim!

Seni jindak xushvaqt qilgani,

Seni jindak xushbaxt qilgani –

Tagsiz jarlardan o'tolmaganim,

Seni so'nggi yo'lga o'zim kuzatolmaganim –
tog'day zil.

Abadiyatday cheksiz armon bo'lib qoldi dilimda,
onaginam!

Odam bo'ldimmi menam?

3

Ha, odam sanashar meni elimda,

Senga qilolmagan xizmatim,

Sen deb chekolmagan zahmatim –
Jindak zehnim, jindak she'rim, jindak
g'azalxonligim,
Onalik mehriга to'y magan mehrim,
jindak yaxshilik va yomonligim
Meni odam sanagan elimga baxshida,
jafodiyda onaginam!
Elga xizmatim — senga xizmatim emasmi axir,
El meni farzandim demasmi axir!
Rozi bo'l, odam sanalay menam...
Dunyoga qaytib kelurman,
Lekin boshqa o'g'il bo'lib...

* * *

Soylarga tikilsam, ko'zim yoshlanur,
Jarlarga egilsam – aylanur boshim.
Tong chog'ida bunda hayot boshlanur,
Dalada paxtachi jamiy yurtdoshim.

Uvatda chuchmoma, cho'nqirda qoqi,
Ariq bo'ylarida xushbo'y to'p yalpiz.
Ona tabiatda har zarra boqiy,
Ona tabiatga qoyilman yolg'iz.

Shudringlarda quyosh sho'x-u jilvagar,
Qushlar navosida jaranglar armon.
Sadadan nariroq bir asov dilbar,
Qarashlari xanjar kabi beomon.

Hammasi jilmayar menga yo'llarda,
She'rlarimda yangrar baxtiyorligim,
Baxt – yashil cho'llarda, qadoq qo'llarda,
Baxt – xalqimga fido, barqarorligim...



QIRG'OVUL

Iskovuchdan o'lası cho'chib,
Uchar qirg'ovul.
Dam yo'rg'alab, dam pastroq uchib,
Qochar qirg'ovul.
Kamalakday ko'z qamashtirar,
Hovuchlab naq, jon.
Uyasidan iz adashtirar...
Ovchi beomon.
(Ovchi-da!) dal ko'zlab otar o'q,
Qayrilar qanot,
Iskovuch ham xushvaqt, ko'zlar lo'q,
Qon bo'ldi hayot...
Qush patillar, chalajon, behol,
Keltirar tozi.
To'qayni ham titratgan misol
Bo'g'iq ovozi.
Inraganday bo'ldi o'sha zum,
Ingradi uzoq.
Uyasida balki to'rt tuxum,
Juft qoldi yo toq.
Faqat juftmas, yo'q, temir qanot
Jo'jalar qoldi.
Sayoq, yovuz, nokas, olchoq zot
O'lja oldi...



ONA YURT

Tuprog'ing zar,
Toshing gavhar,
 degan ham bor.

Yagonasan,
Jononasan,
 degan ham bor.

Mehrigiyo,
Qanday zebo,
 degan ham ko'p.

Bebahosan,
To'tiyosan,
 degan ham ko'p.

Birov undoq,
Birov bundoq to'qir maqtov.
Undog'ammas,
Bundog'ammas, aziz va dov,

Ko'l-u tog'lik,
Bog'-u rog'lik o'zbek elim.
Momo yurti,
Bobo yurti, chambil belim.
Zar-u gavhar – yaltiroq tosh,
 nedir olmos,
Sen biz uchun ham non, ham osh,
 mangu meros.

Avlodlarga meros tuproq,
oltin beshik.
Kelsa qardosh, kelsa qo‘noq
langg‘irt¹ eshik.
Tiriklikda diyorimsan,
bol va oq sut.
O‘lsam agar mozorimsan,
ey, Ona-yurt!

* * *

Butun olam jamoli qizlar jilmayishida,
Nozik adolarida,
Yurtim ko‘klamlarida, yozlarida, qishida,
Yangroq sadolarida.

Majnuntol egilishi, hayo-yu tortinchoqlik
Qay el, qaysi jahondan?
Soylarga sir aytishi va sirga topinchoqlik
Timsolmi qizlarjondan?

Qizlarjon, hoy qizlarjon, nozik adongiz yaxshi,
Shaddod ham bo‘lsangiz-chi!
Qizlarjon, hoy qizlarjon, sharm-u hayongiz yaxshi,
Bedod ham bo‘lsangiz-chi!

Butun olam jamoli qizlar jilmayishida,
Nozik adolarida.
Yurtim ko‘klamlarida, yozlarida, qishida,
Yangroq sadolarida.

¹ Butunlay ochiq.



DUNYO BIR SOZ QO'SHIQDAN

Yovuzlikka jindak ham joy qolmasaydi,
Qaniydi...

Har yuvuqsiz yoqaga chang solmasaydi,
Qaniydi...

Mag'zin harom qilmasa so'zdagi chinlik,
Soxta uchqun bo'lmasa ko'zdagi chinlik,
Na ko'zdagi, na so'zdagi, o'zdagi chinlik,
Qaniydi...

Ko'zga g'ubor chekmasa shiprindi – qo'qim,
O'zin tulpor bilmasa qirchang'i – so'qim.
Baxmalidan bichishmasa eshakka to'qim,
Qaniydi...

Urug'i ushib ketsa tirik boqimlar,
Odamni xor etmasa g'araz, chaqimlar,
Loyqalanmay oqsa-chi tiniq oqimlar,
Qaniydi...

Dunyo bir soz qo'shiqdan zavq ololsaydi,
Bir cholg'u chalolsaydi, bir tor chalsaydi,
Odamiylik shiormas, jon bo'lolsaydi,
Qaniydi...

U pallada qolardi na bevaqt yig'i,
Na ranj, na do'q, na ozor, na dil og'rig'i,

Na surbet tuhmatlarning zaharli tig'i,
Qaniydi...

U vaqt tansiq bo'lmasdi na xap, na dolchin,
Na jazo va na sazo, na tepki, olchin,
Koshki tez bo'la qolsa yorug' xayol chin,
Qaniydi...

IZLAGANIM

O'ylamangki, tag'in zavol izlayman,
Yo'q, jahon kezaman, visol izlayman.
Suv va rang izlayman, timsol izlayman,
Jarangdor qo'shiqda kamol izlayman.

* * *

Ka'bamsan, she'riyat, ezgu ehromim,
Og'u ham bol to'liq bebaho jomim.
Amalim va ishqim, umid-u armon,
Uyqusiz tunlarim – jindak ilhomim...
Kerakmas inju ham sensiz, haqiq ham,
Kerakmas shaddod ham sensiz, daqiq ham,
Hayot ham men uchun sensiz bema'ni,
Sensiz o'tmasin-da hatto daqiqam.





O‘ZBEKISTONSAN

Men baxt borasida so‘ylamoqchiydim,
Quvnoq bir qasida kuylamoqchiydim,
Erta va bugunni o‘ylamoqchiydim,
Ertak kabi bir to‘y to‘ylamoqchiydim.
Ko‘zlarim o‘ngida sen namoyonsan,
Sen axir o‘shasan, asriy armonsan,
O‘zbekistonsan.

Mehnat o‘g‘lisan-da, yuraging sog‘dir,
Kunchilar yil sayin tajang va dog‘dir.
Har qadaming jannat, bog‘chadir, bog‘dir,
Kechalaring doim lak-lak chirog‘dir.
Sen yovga shaddod-u do‘stga armonsan,
Sendan xatar yiroq, dorilamonsan,
O‘zbekistonsan.

Ne-ne mo‘l xazina hukmi qo‘lingda,
Qutlug‘ yil qo‘shig‘i bog‘-u cho‘lingda.
Oltining, ipaging o‘ng-u so‘lingda,
Ne-ne ellar shaydo sening yo‘lingda
Mevasan, sharobsan, suvsan va nonsan,
Mehri qo‘shadaryo, bag‘ri ummonsan,
O‘zbekistonsan.

O‘zing mashinasoz, o‘zing chorvador,
O‘zing allomasan, o‘zing san’atkor.
Fidoiy askarsan va o‘ktam sardor,

Davlatning va faxring tengsiz paxtazor.
Bebaho, bemisol momiq xirmonsan,
Zaminga hamisha farzandi jonsan,
O‘zbekistonsan.

QISHLOG‘IM

Qishlog‘im, nechog‘lik suluvsan bugun,
Yashilga burkanib, yashnabsan shuncha.
Nechog‘lik to‘kissan, nechog‘lik to‘kin,
Meni o‘rab olgan xayol, tushuncha:

Qay qo‘raga kirsang – eshigi ochiq,
Bir nima tatiysan, qo‘ymas aslo och.
Qora qumg‘on qaynar, yozilur chochiq,
Zog‘orami, so‘kmi, yovg‘on yo umoch.
Borini ayamas, barini qo‘yar,
Yupqami yo go‘ja, talqon, qo‘g‘irmoch,
Qurutmu yo jiyda – o‘rtaga uyar,
Juda bo‘lmaganda qatig‘-u ko‘moch.
Agar so‘ygan bo‘lsa kecha bo‘rdoqi,
Qozonda qovurdoq, to‘rtada ko‘za.
Danak, qovunqoqi, suzgun ko‘zi soqi,
Yo qimiz suzilur, yo achchiq bo‘za.
Agar so‘ygan bo‘lsa uloq yo qo‘zi,
O‘-ho‘, no‘xat sho‘rva yoki kulchatoy.
Juda qashshoq bo‘lsa – bor yaxshi so‘zi,
Shundoq yaxshi so‘zki, go‘yo sarimoy.



* * *

... Yoramazon aytar edik ba'zi kez,
Shom payti, chang-tutun qishloq ko'chasi,
Pul oshimi, to'qoch – olib chiqar tez,
Tonggacha jaranglar oydin kechasi.
Kelin yo'lin to'sib machit oldida,
Aylanishar edik yoqib alanga.
Hammasi qolarkan go'dak yodida,
Qoshdan sochilguvchi turshag-u tanga.
Qish kuni to'y-u bazm yo yayov uloq,
Yo nargi qishloqdan nogihon qorxat.
Esimda go'daklik – unitilmas choq,
O'sha kunlarimdan qalbimda bor xat...
Qishlog'im tag'in ham suluvsan bugun,
Tag'in ham suyuksan, mening ardoqlim.
Nechog'lik to'kissan, nechog'lik to'kin,
Dunyo turguncha tur, qo'li qadoqlim.





MEN TUG'ILGAN TUPROQ

Bu – men tug'ilgan tuproq. Ha, men tug'ilgan tuproq.
Tog'lar, ko'm-ko'k adirlar, daralar, cheksiz qumloq.
Bo'ronlar qamchilashar, yomg'irlar tomchilashar,
Qishda qalin qordan oq, kuzda-chi, paxtadan oq.
Taqvodorday cho'k tushib, peshonamni qo'yaman.
Onam kabi o'paman, qalb mehriга to'yaman.
Kayxisrav qilichidan kesikbosh bobom xoki,
Kim noxos oyoq qo'ysa, haqoratga yo'yaman.

* * *

Bu – men tug'ilgan tuproq. Bu – men yo'g'rilgan tuproq.
Ko'klam gohi serjala, yoz qurumsoq va qurg'oq.
Terak bo'yi jarlardan suv tortar bobodehqon,
Bug'doy ham, juvari ham bo'liq, ko'm-ko'k; serboshog.
Taqvodorday cho'k tushib, peshanamni qo'yaman,
Suygulimday quchaman, jamoliga to'yaman.
Chingiz o'qiga uchmish olis bobom xoki bu,
Kim ko'zga ilmay boqsa, kamchilikka yo'yaman.

* * *

Bu – men tug'ilgan tuproq, bu – men ulg'aygan tuproq,
Daralari jannatiy, tog' sirtlari ko'k yayloq.
Qumloqlarida hatto suruv-suruv qo'y-qo'zi,
Guldor, naqshin qorako'l, yetti ranglik, yarqiroq.

Bir farzandday cho‘k tushib, peshanamni qo‘yaman,
Kun o‘tmay sog‘inaman, o‘pib-o‘pib to‘yaman.
Oq poshshoning to‘pidan abjaq bobom xoki bu,
Oq poshshoni eslatsang, yovuzlikka yo‘yaman.

* * *

Bu men umr ko‘rgan tuproq, men bobo bo‘lgan tuproq,
Suv bo‘ylari tutzorlar cho‘zilmish yiroq-yiroq.
Ipak ham, bol ham bunda, marmar ham, oltin ham mo‘l,
Ko‘mir ham, sharob ham bor, gurunch sadaf misol oq,
Bir askarday cho‘k tushib, peshonamni qo‘yaman,
Fidoyiman, shaydoman, o‘pib-o‘pib to‘yaman.
Kelajakka ishonch bor ko‘targan bayrog‘ida,
Kim noxos o‘qraysa ham ko‘zlarini o‘yaman.

O‘LAN AVJLARIDA...

O‘lan avjlarida gul ochadi dasht,
O‘lan avjlarida zamon uyg‘onur.
O‘lan avjlarida dunyo - dunyo gasht,
O‘lan avjlarida olam to‘lg‘onur.

O‘lan avjlarida tug‘ilur suygu,
O‘lan avjlarida tug‘ilur jujuq.
O‘lansiz na rang bor, na yorug‘ tuyg‘u,
Hayot lablariga toshadi uchuq...



TOSHBU

Chayirsan, chechansan, chuchuksan so‘zsiz,
Ertakday ezgusan, buloq yanglig‘ pok.
Ko‘z ololmas hatto ilg‘asa ko‘zsiz,
Holbuki, munglug‘san. G‘amdan ko‘ksing chok.
Yor jangga jo‘narkan: «Bo‘shashma», – devdi,
Bo‘shashgan paytda ham bo‘lolding tetik.
Bilarding – u seni jonidek sevdi,
Egningda kalta to‘n, oyoqda etik,
Ko‘ngil qo‘yding suyuq paxtazoringga,
Jo‘yaklarda qolding qosh qorayuncha.
Ter to‘kib ko‘z tikding o‘z devkoringga,
Vafo bolisa agar, bo‘lur-da shuncha!
Burmaliq ko‘ylak ham, nimcha-yu g‘ijim,
Sirg‘alar sandiqqa tushdi. Bardosh bu...
Xilvatda yosh to‘kding yomg‘irday sim-sim,
Keyin yig‘i ham tark. Bosh bo‘lding, Toshbu...

O‘n juvonga boshliq – ko‘p ham osonmas,
Tun og‘ir va uzun, bo‘lar eding xun.
Bu to‘y kunidagi quvnoq javlonmas,
Ter to‘kding ham o‘zing, ham ering uchun
Qirov ketmasidan tashiding o‘g‘it,
To‘qiltoq arava – uloving eshak.
O‘n juvon izmingda – maslahat, o‘git,
Darddoshlik ham og‘ir, ko‘p og‘ir, beshak.
O‘z bo‘yningda edi suv, o‘toq, chopiq,
Esda turmas edi soch tarash hatto.
Sho‘x hislarga qalbing darchasi yopiq,
Kulib qaraganga jo‘n qarash hatto.

Dalaga ergashar ikki bolang ham,
Biri choy qaynatar, biri tashir suv.
Erkak mehnatiga ko'nikding kam-kam,
Bu ham jang edi-da, qattol jang, Toshbu!

Har qalay qaynashdan qolgan yo'q qozon,
O'rtada quyuqmi, suyuqmi – yovg'on.
Buvak ham, go'dak ham bo'lmadi xazon,
Badnom etolmadi biror qing'ir jon.
Kosang toza, halol, butun va beyuq,
Qoraxat, nim qahat sololmadi chang.
Jamolingga har gal suqulolmay suq:
– Buncha toshbag'ir! – der badar ketdi gang.
Toleying bor emish, tole yor emish,
Keldi axir jangchi: bas deb, shum firoy.
O'pkasida moshdek o'q ham bor emish,
Tirsakdan bir qo'l yo'q... Sendan g'ash yiroq.
Seni sal xo'rlagan sira insonmas,
Ko'zlaringda g'urur va baxtdan yosh bu.
Sensiz O'zbekiston – O'zbekistonmas,
Sensiz keng jahon ham sira jahonmas,
Toshbu!

JALA

Qo'qqis jala quyib o'tdi qishloqdan,
To'lqin urgay yashil ko'kat dengizi,
To'lqin urgay chechaklar oq, qirmizi,
Bu darakchi sut, qaymoqdan, pishloqdan.
Qo'qqis jala quyib o'tdi qishloqdan,
Chuchmoma-yu rovoch yesak arziydi,
Qo'ziqorin, lola tersak arziydi,
Tepalardan, soydan, hatto toshloqdan...



QARQARALIK

Qarqaralik, qaydan kelding qoshimga,
Qaydagi savdoni solding boshimga.
Qaydagi savdoni solsang boshimga,
Qota ko'rma qatron mening oshimga!

Qosh ustiga qo'ndiribsan qarqara,
Qora soching qora tunda sharshara,
To'lqinida koshki o'zim cho'milsam...
Shaydoyingman, gar qarama, gar qara!

Qarqaralik, izlab keldim, yo'l olis,
Olis yo'lda cho'l olis-u ko'l olis.
Bir qaragin, ko'zginangdan bilayin:
Dermikansan yaqin yoki bo'l olis!

Qarqaralik, soylaringni kechgum bor,
Suvlaringni sharob kabi ichgum bor.
Olislardan keldim-u gap o'zingda,
Mayli desang, Qarqarangga ko'chgum bor.

Qarqarangni o'rdagi-yey, g'oziyey,
Yozlari-yu, kuzlarining sozi-yey.
Yo "ha"si bor, yo "yo'g'"i bor, ne bilay,
O'rtavordi qarqaralik nozi-yey.



O'ZIM BILAMAN...

Tagorga ergashib...

Qulog'imda yangrar doim bir nido,
Xo'rsinaman, ko'z yoshimni silaman.
Shu nidoga ne sababdan jon fido –
Bitta o'zim bilaman.

Yuragimda yonar bir o't betutun,
Go'yoki der: qovuraman, tilaman.
Dosh beraman nechun hanuz men beun –
Bitta o'zim bilaman.

Oylar botar, tonglar otar, umr o'tar,
Olislarni ko'zlab - ko'zlab jilaman.
Mening qalbm kimni kutar, qon yutar –
Bitta o'zim bilaman.

Kelurmikan ko'klam yanglig' kutganim,
Umidvorman, ishonmay ne qilaman?
Qachon kelur, qandoq u ko'z tutganim –
Bitta o'zim bilaman.



HANDALAK

Polizdan handalak hidi anqiydi,
O‘qariq bo‘yida sahar uyg‘onsam.
Atir og‘ushida odam balqiydi,
Havo eliksirday, qaniydi qonsam...
Ko‘zlar ilg‘aguncha poliz, bedazor,
Bedani vavag‘lar to‘rg‘ay ketidan
Yashillik saltanat qurmish beg‘ubor,
O‘pich olging kelur hayot betidan.
Ko‘krakka uradi yoqimtoy salqin,
Chechaklar tovlanur — chechaklarda noz.
Hammasi, hammasi ko‘ngilga yaqin,
Hammasi dilrabo, suyuk, so‘lim, soz...
Handalak uzaman muzdek va yorqin,
Beqasam handalak — chipor handalak.
Qo‘limda lovullar go‘yoki yolqin,
Quymadek bejirim, ifor handalak.
Ha, aslida quyosh zarrasi bu ham,
Ona tuproq toti, tuproq shirasi.
Emishlarning tengsiz barrasi bu ham,
Jannatda yo‘q o‘zi, gapning sirasi!..
Bu o‘zbek boboning asriy san’ati,
Suv bo‘yida suysang, tilim-tilim bol.
Ona-tabiatning tansiq ne’mati,
Dala fayzlik, xushbaxt, fusunkor, halol.
O, handalak bo‘ylik, suv bo‘yiga kel.
Seni ko‘rgim kelib, hozir ko‘nglim sel.



* * *

Sen u yonga ketding, men bu yonga
Men oldinroq, sen biroz keyin,
Ikkimiz ham keldik gulistonga,
Yuz ko'rishdik... endi ne deyin?

Esar yigitligim tushdi esga,
Yaxshi edi hech uchrashmasak.
Dilda joy bor hali jo'shqin hisga
Dili qurg'ur hali ham tentak.

Nechun yuzlaringda xijolat bor,
Nega hayron shahlo ko'zlaring?
Nechun lolasan, nahotki bu iqror
Lablaringda qoldi so'zlaring?

Nechun qaqroq yoqut bu dudoqlar?
Senmi o'sha ko'zi suzgun?
Barmog'ingdan nechun, ayt yaraqlar
Hanuz o'sha mening uzugim?





BUVIM CHO'PCHAKLARIDAN

Ola qarg'a

Ola qarg'a yashar emish uch yuz yil,
Qarg'achalik yasholmasmish hatto fil,
Bobolar der: cho'qda emish bir ko'zi,
Quv va sergak. O'qda emish bir ko'zi.
Oshyoni ham tik cho'qqida — tog'damish,
Ne olg'ir qush ololmayin dog'damish,
Ola qarg'a tashlamasmish qo'shog'in,
Ardoqlarmish oshyonida ushog'in.
Qo'shog'iga hech olalik bilmasmish,
Ushog'iga hech dag'allik qilasmish,
Agar noxos qo'shog'iga tegsa o'q,
Bu ham darhol qilar emish o'zin yo'q.
Vafodormish, ko'ngilchakmish, kuyinchoq,
Shu vajdan ham qanotida yo'l-yo'l oq.
Arzir emish oq qanotlik bo'lsa ham,
To'kis-tugal yaxshi otlik bo'lsa ham...

Qora qarg'a

Qora qarg'a olasidan kam emas,
«Men sal kamroq yashayman» deb g'am yemas.
Tik tog'larda qoraning ham uyasi,
Elga ayon qanotining kuyasi.
U ham qishda tushib kelar dovondan,
Qolib ketmas qarg'a zotlik karvondan,
U ham sergak, cho'qda doim bir ko'zi,

Olazarak, o'qda doim bir ko'zi...
U ham g'oyat sabrlik qush, chapdast qush,
O'rgatolsang – el bo'lg'ulik bor es-hush.
Qadrlamas emish biroq qo'shog'in,
Tashlab ketar emish hatto ushog'in,
Agar noxos qo'shog'iga tegsa o'q,
O'zgasini izlar emish – ko'ngli to'q.
Shu sababdan qora emish yuzi ham,
Yuz ham gapmi – qora emish o'zi ham...

* * *

Ko'z ko'zga tushgandi oy quchog'ida,
Ko'zlarda qolgandi kuz uchqunlari.
O'sha sehrli tun, soy qirg'og'ida
Dilga o't solgandi so'z uchqunlari.

Yillar o'tib ketmish hijron dog'ida,
Sharqirab oqmoqda Tentaksoy hanuz.
Yuzma-yuz keldik-ku ko'klam bog'ida,
Yarqirab boqmoqda to'lin oy hanuz.





BULUT

I

Ko'k yuzida pag'a bulut – oq bulut,
Oq bulutdan sut yog'armi yoki qut?
Pag'a bulut – yaxshi ko'klam elchisi.
Havolarda yomg'ir isi, sel isi...
Ko'k yuzida dam qaldiraq, dam sukut,
Yog'may o'tma, pag'a bulut – oq bulut!
Yog'ib o'tsang – tizza bo'yi o't bo'lur,
O't bo'lur, ham sut bo'lur, ham qut bo'lur.

II

Ko'k yuzida pag'a bulut – oq bulut...
Bir qarasang – osmon to'la oqquvlar,
Bir qarasang – baland qorli cho'qqilar,
Bir qarasang – ko'z ilg'amas oq barqut.
Ko'k yuzida – yorug', oydin bir ro'yo...
Usta rassom chizmish ajib manzara –
Tepa-tepa paxta – beg'ubor, sara,
Kuzgi xirmonlarning akslari go'yo...





OQSOQOL

Bir oqsoqol koʻrdim – boʻyi chinordek,
Egnida banoras, koʻkragi ochiq,
Qora chaqmoq kabi yal-yal qorachiq,
Bilaklarda yoʻlbars quvvati bordek.
Koʻchalardan oʻtar sekin, salmoqdor,
Har odimi yerga titroq solguday,
Yerning tanobiki tortib olguday,
Oshkor bir savlat, botirlik oshkor.
Yoʻllardan oʻtadi – billur sharshara,
Jarlar, yonbagʻirlar, dovonlar tanish,
Mevazorlar tanish, qoʻrgʻonlar tanish,
Oʻn olti oʻgʻil-qiz, qirq bir nevara.
Yoʻllardan oʻtadi – goʻyo boboyga
Ona tabiatning oʻzi taʼzimkor,
Odamlarday goʻyo salomga tayyor,
Boboyni koʻrganda toʻlar chiroyga.
Belida toʻrt belbogʻ, qoʻlida aso,
Shu joylarning toʻngʻich hukmronidek.
Oʻtmishi, buguni, pok vijdonidek
Aqli luqmonlardan toʻliq va raso.
Qora terga botib ekarkan gʻoʻza,
Egnidagi toʻni edi yuz yamoq.
Buloq boʻylarida qaqrarkan tomoq...
Baxt u payt tuproqqa koʻmilgan koʻza.
Qora terga botib yaratarkan bogʻ,
Lekin mevasini tatiy olmasdan,
Nolasi ucharkan olis Olmosdan,

Soqol oqarguncha dil bo‘lmabdi chog‘...
Yo‘llardan o‘tadi – tog‘ yanglig‘ o‘mrov,
Hali ne yuklarni ko‘tarolgudek,
Hali ne tog‘larga panja solgudek,
Hali ham yurtida misoli kam dov.
Mehnatkash insonga xos ko‘rk va savlat,
Tabiatday barhaq, barhayot, ezgu.
Ha, piri badavlat deganlari shu,
Yuz bir shohdan ortiq piri badavlat.

TUN BO‘YI

Tun bo‘yi uyqumni oldi qalldiroq,
Derazamda chaqnar chaqmoq nayzasi,
Oppoq sochlirimda o‘rmon nafasi,
Yomg‘irga boqaman beun, bechiroq.

Tun bo‘yi uyqumni oldi qalldiroq.
Yoz oyi bu yurtda yog‘in pallasi,
Qulog‘imda yangrar jala yallasi,
Parcha bulut hatto bunda yog‘oloq.

Saharda so‘qmoqdan o‘taman tanho,
Yuzimga urilar egik butoqlar.
Simob so‘kilganday porlar yaproqlar,
Havoga to‘ymayman— shifokor havo.

Egik butoqlarni silkib qo‘yaman,
Shoda-shoda sachrar asl dur go‘yo,
Durmas, qatra-qatra yashil nur go‘yo,
Yashil go‘zallikka qachon to‘yaman?



BALIQ OVI

Bizning qishloq tog' bag'rida,
Tog' bag'rida – bog' bag'rida,
Etagida chopqillar soy.
Yozda tiniq,
Kuzda tiniq,
Suvda quyosh yuz bir siniq,
Ko'klam chog'i soy butun loy.
Qirg'og'ida jambul, yalpiz,
Quchog'ida balig'i mo'l.
O'ltiraman ba'zan yolg'iz,
Suvga tushmay usti-bosh ho'l:
Qarmog'imga ilinmaydi,
Suzmoqdami yo chopmoqda,
Suv tagidan ne topmoqda?
Yuz tikilsang bilinmaydi...
Tashlay qolsam non ushog'in,
Yugurishib kelar talay,
Ulgurishib kelar talay.
Ilinsaydi ulkanrog'i,
Eltar edim jon buvimga.
– Hay, rostdanmi, hay, baliqmi,
Tangalikmi, chaqalikmi?
Balli, derdi, uquvimga...
Ilinmaydi lekin hozir.
Bundan keyin to'r tashlayman,
Tashlasam ham zo'r tashlayman,
Qo'lga tushar bari oxir.



MEN SENI...

Men seni injitmayman
Va lekin tinchitmayman...

Charx urib, bo'z to'rg'ayday bo'zlashim bor boshingda
Ey, sochlaring to'lqini tun singari sim-siyoh,
Xol kabi paydo bo'lgum yonog'ing yo qoshingda
Ey, izlaring g'ubori ko'zlarimga to'tiyo...

Saratonda sel bo'lib,
Lolazor yaratgayman.
Qahratonda yel bo'lib,
Gul atrin taratgayman.

Yo'l yurib, cho'llab qolsang,
Shildiragum buloqday.
Yoki dashtga yo'l solsang,
Yastangayman o'tloqday.

Istab qolsang soyabon,
Men darrov chinor bo'lgum,
Cho'mar bo'lsang nogahon,
Men darrov anhor bo'lgum.

Kezar bo'lsang bog'ingda,
Pichirlagum misli barg,
Kuyib sening dog'ingda,
Bo'lmasaydim juvonmarg...

Bu dunyoda hech kim yo‘q senga menday mahliyo,
Umidim bor — qaragung axiyri qiyo-qiyo...

Epkin bo‘lib saharda,
Gulzoringda kezurman.
Qo‘shiqlarim avj parda,
G‘unchalaring uzurman.

Nasim kabi sezdirmay,
Kiprigingga to‘qingum.
Ozor bermay, bezdirmay,
Suratingga cho‘qingum...

Qush bo‘lib qochar bo‘lsang, tarlon bo‘lib quvgayman,
Tog‘larda sharsharadek g‘uboringni yuvgayman.
Har mushkul, har xatarda, har balodan saqlagum,
Qayrilsang-qayrilmasang, o‘lguncha ardoqlagum.

Tong payti yulduz misol, oq siynangda yongayman,
Yomg‘irda kamalakday, yuz rangda tovlangayman,
Ko‘rkingga tikilgayman to ko‘zimda bor ziyo,
O‘zing bilmaysan, senda shunchalar mehriyo!

Men seni tinchitmayman
Va lekin injitmayman...





TUSHMASIN

Qo'shiq

Qizil gul bargiga hech qor tushmasin,
Alamli boshga ham ozor tushmasin.

Yashil cho'qqisidan olqor tushmasin,
Tor yo'lda to'satdan devor tushmasin.

Suygulik suymasga zinhor tushmasin,
Nogoh hakamlikka beor tushmasin.

Yo'lda yo'ldoshlikka badkor tushmasin,
Hech kishi yurtidan kanor tushmasin.

Sodda, soz suhbatga ayyor tushmasin,
Nima tushsa-tushsin, diyor tushmasin!

* * *

Yulduzlarday yorqin ko'zlaringiz bor,
Yarqiray bersin, ha, to xor tushmasin.

Ulfat izlaganda, do'st tilaganda,
To nokas-u nodon, nochor tushmasin.

Yalchiyman deganda, ko'langan paytda,
Bir tushgan ko'rgulik takror tushmasin.

Dunyoda yagona tilagim shuki:
Yaxshi nomingizga g'ubor tushmasin.

Qorong'ulik tushar,
Bag'rim uvishar,
Tanholikda qayta tug'ilaman men.
Yorilib ketguday
Tamom yitguday,
Toki tong otguncha bo'g'ilaman men.

Ko'zimga yorug'lik,
So'zimga yorug'lik,
Sog' jonga yorug'lik so'rayman tongdan.
Armonli yo'lchiman,
Armonli kuychiman,
Jahonga yorug'lik so'rayman tongdan.

BETOBLIGIMDA

Qovrilmay to g'ashlik alangasida,
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Nafasimni rostlay ko'lankasida.

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Qushlar ovozig quloq solayin.
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Xayol og'ushida orom olayin.

Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Shu kungacha o'zni men cheklab bo'ldim.
Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim.



YORUG'LIK

...Yorug'lik yurti bu, tong o'lkasi bu,
Quyosh bolasiman, desam haqqim bor.
Porloq o'y, jarang she'r, ong o'lkasi bu,
Yo'lim ham, ufqim ham yorqin, shu'lador.

Yorug'lik limmo-lim erk makonimda,
Hovuchlab ichaman sharsharasidan.
Quyosh uchqunlari qaynoq qonimda,
Men qudrat olaman har zarrasidan.

O'roq-mashoq payti oltin xirmonim,
Saraton ko'kida shirmoyi nonim.
Yoz bo'yi yarqiroq, ezgu osmonim,
Koinot onasi – alp onajonim.

Ko'klam yashilligi – yuzdan bir rangi,
Anor sharbatida aksi jilvagar.
Qushlar qo'shig'i ham quyosh ohangi,
Buloq mavjlarida raqsi jilvagar.

G'o'za to'lqinida mudrar yorug'i,
Ko'klar yorug' olar oq chanog'idan.
Tuproqda yashirin olam yallig'i,
Chanoqlar oqligi nur qaynog'idan.

Yorug' kun yarashiq yorug' diyorman,
Mening shu quyoshlik davlatim-da bu,

Tengdoshlar safida men ham devkorman,
Quyoshlik davlatim – mehnatim-da bu.

Yorug‘lik va nurning oq siynasida –
O‘sha suyuk jahon, deganlari rost.
Yorug‘ cho‘qqilarning shoh zinasida
Yorug‘ O‘zbekiston deganlari rost!

BIR KEZ...

Bir kez qo‘shiq yangrar edi
Eshigimda sho‘x va shodon,
Quv nar edi, yayrar edi
Talay eslik, talay nodon.

Tovlanardi gulzorimda
Gul deganing turlik-turlik,
Qo‘shiqlardan va gullardan
Hovlim edi g‘oyat nurlik.

Men yurardim gul butabmi,
Yo bir nima yo‘nib-kertib,
Kelishardi olis-yaqin,
Do‘st-u yoron eshik chertib.

Sen ketding-u yangroq sahnim
Befayz, benur, bo‘shab qoldi.
Kelgin... hovlim Afrosiyob
Yo O‘trorga o‘xshab qoldi.



SOYDAN O'TIB OLSAK...

Soydan o'tib olsak, bas,
Bog' boshlanur shu nafas.
Bir bog'ki, o'xshashi yo'q,
G'ubori yo'q, g'ashi yo'q.
Yashillik aqling olur,
Ko'zlar hayron, lol qolur.
Ko'rinmas u beti ham,
Ko'rinmas bu cheti ham,
Shundog'am go'zal, shinam,
Yetti jannat go'yo jam.
Qandoq salqin, soyador,
Nima desang – bari bor:
Tog' tomoni olmazor,
Soy tomon nuqul anor,
Bir tomoni zarang nok,
Bir tomoni xil-xil tok,
Oluhirot, shaftoli,
O'ng yuzida qo'sh xoli.
Balxtut, jiyda ham shotut,
Gilos pishsa – naq shotut,
Gilos pishsa – yoqut.
Biri qizil, biri oq,
Bir-biridan shirinroq.
Ko'z ilg'amas bog' chetin,
Pishadi birin-ketin.
Aylanasi bedazor,
Limmo-lim o'qariq bor.

To'rida ko'k ko'l – hovuz,
Etagi qovun-tarvuz.
Bol tomadi tirsillab,
To'rt bo'linur qirsillab.
Esadi epkin g'ir-g'ir,
Erinmasdan kelgin bir.
Hayron bo'lishing aniq,
Bunisiga dil qoniq.
Ne-ne miqti tojdor ham,
Na oqsoy shahriyor ham –
Ertakday to'kis, bedog',
Ko'rgan emas bundoq bog'.
Bunda hordiq olursan,
Xayollarga tolursan,
Xushvaqt bo'lursan, shaksiz,
Kuning o'tmas ermaksiz,
Olqish aytib zamonga,
«Qulluq!» dersan bog'bonga...

* * *

Istardimki, har satrimda bir qo'shiq yang'irog'i,
Yangrab tursa cheksiz jahon, tubsiz osmon aymog'i,
Ko'klam chog'i yashil dengiz – ekinzorlar quchog'i,
Saratonda qurimasin quvonchlarim bulog'i.

Bedazorda bedanalar sadosiga jo'r ohang,
Yangra, she'rim, sado sol.
Dalalarda bo'zto'rg'aylar navosiga jo'r ohang
Yangrab, dovon o'ta ol.



QO‘QON NIHOLLARI

O‘ylamangki, mavsumiy ko‘katlar ekishibdi,
Yo‘q, shu ezgu tuproqqa ko‘chatlar tikishibdi,
Tuprog‘i ipakday-a, talay ter to‘kishibdi,
Nihollar ko‘karsin deb talay bel bukishibdi.

Sizdaqa nihollarga ko‘z tutardi bu zamin,
Suyaklar sirqirardi o‘ylab tashnalik g‘amin.
Samum yo‘llariga ham chekmish el o‘qday chiziq,
Tashnalik qaytib kelmas, ishoning – bo‘ling amin!

Anchayin ko‘chatlarmas, ardoqli nihollarsiz,
Bu diyor jamolida zab yarashiq hollarsiz
Yashil og‘ushingizda yangrar qushlar qo‘shig‘i,
Ko‘klam – ko‘zlar quvonchi, kuz – barkashda bollarsiz.

Suyuk diyor boshiga qo‘ngan yanglig‘ kamalak,
Ko‘klamda gullagaysiz chaq nab ketar tevarak,
Odamzoddan bog‘ qolur degan gapda ma‘ni ko‘p,
Ko‘rkingizga suqlanur hatto yetti qat falak.

Ne deydi: dorilamon davroningizga balli!
Yaxshi niyat, cho‘ng orzu – armoningizga balli!
Mevangizni tatigan qulluq aytur yuz takror:
O‘sing, yashnang, yuksaling – bog‘boningizga balli!



XO'RSINIQ

Qo'limdan har nima keladi, yurtdosh,
G'ariblik, yupunlik – barin ko'rganman.
Qo'sh ham haydaganman, o'roq o'rganman,
Ayriliqda ko'zdan to'kkanman ne yosh...
G'o'za ham ekkanman, juvari, kunjut,
Qo'limda raqs etur tasha-yu randa,
Yo'l ham, qo'nalg'a ham mo'l bu Vatanda,
Kamchil ham bo'lganman, to'q, quvnoq va but..
Chuvak ham tikkanman, mol ham boqqanman,
Quduq ham qazganman naq o'n bir quloch.
Zilol suvlarida yuvishardi soch,
Ne-ne qiz sochiga lola taqqanman.
Taqdirimga hech ham o'pka qilmayman,
Qo'limdan kelmaydi degan pesha kam.
Ba'zan ko'zlarimda tomchi-tomchi nam...

Hanuz she'r yozishni bilmayman.





* * *

Ko'zingni o'ynatma, kulma, qarama,
Nozli nigohlaring kerakmas sening.
Bog'lab olarman, deb endi o'ylama...
Tortgan u «oh»laring chin emas sening.

Ko'p kunlar sudrading tasmol yo'llarda,
Men-da tilsizlarcha ergashdim – ketdim.
Adashgan ekanman, bilsam, cho'llarda,
Mana endilikda tushunib yetdim...

Tushundim: u totli xayollar – xayol,
Aldanmas bu yurak shirin so'zingga.
Yo'qol, ey aldamchi, yondashma, yo'qol,
Termilish yo'q endi orsiz yuzingga!

Jilmayma, qarama, so'zlama menga,
Eski afsonani kuylama menga...





SARATONDA

Saratonda soyaboning bo'layin,
Toqqa oshsang, ko'k dovoning bo'layin,
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Yarim kecha kakhkashoning bo'layin.

Ketar bo'lsang, xazon yog'ar bog'imga,
Sanchiq botar dilimdagi dog'imga,
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Og'u sochma mening xushvaqt chog'imga.

Kerak emas sensiz gul ham, chaman ham,
Kerak emas Qandahor ham, Yaman ham.
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Kerak emas bo'z tarlon ham, saman ham.

Pok olamim bulg'anmasdan jilmaygin,
Olam g'amga chulg'anmasdan jilmaygin,
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Yurak dir - dir to'lg'anmasdan jilmaygin.

To tirikman, o'sha qaysar bolaman,
Na tinim bor, na izlashdan tolaman,
Ketma, jonim, ayriliqdan jon bezor,
Baribir men seni topib olaman.



YULDUZLAR AFSONASI

Bobolarning gapi shunday: «Har kechaning kunduzi bor,
Har kimning o‘z nasibasi, har kimning bir yulduzi bor».

Gar tug‘ilsa biror go‘dak, derlar: «Ortdi yulduz soni,
Yana bitta mayoq bilan boyib qoldi yurt osmoni».

Biror yulduz uchsa, derlar: «Kimdir o‘tdi bu olamdan,
Ko‘hna dunyo ajrab qoldi, evoh, yana bir odamdan».

Eshitganman Zuhallar-u Oy, Zuhrolar to‘g‘risida,

Somon yo‘li, Hulkarlar-u Surayyolar to‘g‘risida,

Eshitganman yuztasini, eshitganman mingtasini,

O‘shalardan so‘zlab beray faqatgina bittasini:

“Qadim Hulkar yulduzining suluv qizi bo‘lgan ekan,

Bodom qovoq va oq tomoq, yuzi lo‘ppi to‘lgan ekan.

Uni sevib onajoni baxmallarga o‘rar ekan.

Qizchasida istiqbolni aniq-ravshan ko‘rar ekan.

Boqmoq uchun qiz yuziga kunduz quyosh, tun oy

xumor,

Koshki unga ko‘zgu bo‘lsam, deya hatto sho‘x soy

xumor.

Uning yorqin chehrasiga xiyobonda gullar tashna,

Yuzlarini silab-siyapab o‘tsam, deya yellar tashna,

Bir kun Hulkar qizchasini solibdi-yu belanchakka,

O‘zi esa mudrab sekin ketgan ekan tinch pinakka.

Shunda yetti tund qaroqchi boy bermasdan qulay choqni

Olib qochmish, olib qochmish murg‘ak, jajji qizaloqni,

Ko‘zin ochib boqsa Hulkar, sho‘x qizidan yo‘qdir darak,

Sekingina tebranardi ko‘z o‘ngida bo‘sh belanchak,

Ona yo‘lga tushibdi-yu, go‘dagini xo‘p izlabdi.

Xo‘p yig‘labdi, ovunibdi, so‘ngra yana xo‘p bo‘zlabdi...
Bir nafasda tushar ekan jarliklarga sakrab tikka,
Bir nafasda ko‘tarilar qorli toqqa – yuksaklikka.
Farqi yo‘qdir unga sira tunmi-kunduz, baland-pastmi,
Kechalari tunab qolar barra o‘tmi, poxol, xasmi.
Oxir unga voqeani bir-bir bayon etibdi Oy.
Maskaniga yo‘l olibdi shunda Hulkar deb:
«Hayyo-hay!»

Shundan beri quvsa Hulkar qochar yetti tund qaroqchi,
Oltitasi uxlasa gar, turar ekan biri soqchi...»
Bu afsona go‘daklarni jalb etmoqqa juda qulay,
Bunday qadim ertaklarni tinglaganman men bir talay.
Eshitganman parilari, alvastisi, jinlarini,
Xushlamadim yolg‘onlarni, eslab qoldim chinlarini.
Ha, bobolar so‘zlarida qancha ilm va hikmat bor,
Shuning uchun keksalarga menda cheksiz sadoqat bor.





KO'KRAK OCHDIM SHAMOLLARGA

Ko'krak ochdim shamollarga,
Bisotimni sarf etdim.
Ular shirin xayollarga
Meni butkul g'arq etdi.

Shamollarga bitib sho'x kuy
Taklif etdim bog'imga.
Chamanlardan ular xushbo'y
Sepishdi dimog'imga.

Tunda uyqum qochib ketdi
Xushlab yellar ta'bini.
Ular tongda ochib ketdi
G'unchalarim labini.

YER VA TER

Men bilmayman yer kabi ulug'
Tabiatning zo'r tuhfasini.
Inson unga sochib don – urug'
Topgan rizq-u nasibasini.

Buncha shirin bo'lmas edi non,
Tandir lov-lov qo'rin bermasa.
Nonday aziz bo'lmasdi inson,
Yerga manglay terin bermasa.



KIPRIGIMDA TUTIB...

Kindik qonim tomgan Ona yer,
Bilmam, burching qanday o'tadim.
Ozmi-ko'pmi to'kib manglay ter,
Ilk she'rimni senga atadim.
Xayolingdan olis ketmadim,
Kuydirsang ham tovonim yozda,
Junjitsang ham tanim ayozda,
Sirim, sendan darig' tutmadim.
Uzilsa ham sendan oyog'im
Uzilmagay yuragim mutlaq.
Otam,
Onam,
Urug'-aymog'im
Makon tutgan muqaddas tuproq,
Har bir siqim, har bir qatrangni
Alishmasman zar, qahraboga.
Kiprigingda tutib mehringni,
Oshirmoq-chun yana qadringni
Kelganman-ku yorug' dunyoga.





YILLAR

Yillar o'tarkan-u bir-birin quvib,
Sira ham tutqizmas ekan baridan,
Qishda jilva qilar darchadan turib,
Bahorda qulf urgan chaman bag'ridan.
Suvlar to'lqinida qilib oqizoq
Olib ketar ekan yoshligingni ham.
Biroq sen o'rtanma, chekmagin firoq
Huda-behudaga aziz do'stginam.
Gar qoldirgan bo'lsang hayotda bir iz
Shon-sharaffli bo'lsa o'tgan yo'llaring
Hech vaqt yoshlik sendan o'girmaydi yuz,
Hech vaqt xazon ko'rmas ekan gullaring.

Yo'q! O'tdi deyilmas unday yillaring!





HAYOT MAZMUNI

Hayotingda ochib yangi manzillar,
Yillar o'taverar, to'xtamas yillar.
O'tganni ham esda tutgin-u biroq –
Kelajak yillarga boqqin yaxshiroq.
Yillar ham yo'llardek pasti-balanddir,
Yil mazmuni inson dasti bilandir.
Yillarning to'lqini, girdoblari bor,
Lazzati, quvonchi, azoblari bor.
Mayli, yillar bilan yurgin sarbasar,
Mayli, yoshing bo'lsin saksonmi, to'qson...
Ammo uni umr demagin, agar –
O'tgan bo'lsang kutib yillardan ehson.
Yillar yalqov uchun beshafqat. Zero –
Yillardan asrlar yaratish payti.
Zarradan quyosh-u, tomchidan daryo,
Eng oliy qasrlar yaratish payti!





ATLAS KIYGAN QIZLARGA

O, shahrim qizlari, o, suluv qizlar,
Tim qora qoshalari naq zuluk qizlar.
Qoyilman didingiz, o'ylaringizga,
Rost aytsam, besh ketdim ko'ylagingizga.
Atlas ko'p qadimiy nafis matodir,
U sizdek suluvlar uchun atodir.
Sizlar kiyganingiz sho'x qizil atlas
Atlaslar ichida naq asl atlas.
Xosiyatxon atlas, ko'rkam xonatlas,
Ta'rifi-tavsifi bir jahon atlas.
Ko'zlari oladi uning yallig'i.
Tovusdek tovlanib kiyin xiromon.
Farg'ona bog'larin bor go'zalligi
Unda namoyon.
Kelinlar uyida zar palagi ham,
Toshkent favvorasi kamalagi ham,
Pillakash juvonning ko'k ipagi ham,
Yigitlar egnida yo'l-yo'l beqasam,
Hatto onalarning asl sarposi
Chiroyda yengolmas atlas libosin.
Uni kiyib chiqing anhor bo'yiga,
Chirchiq sohiliga, Salor bo'yiga,
Uni kiyib chiqing ilk uchrashuvga.
Aslo buzilmasin ahd ila paymon,
Ushalsin dillarning orzu-havasi.
Egningizda kulsin go'zal Marg'ilon
Yal-yal atlaslari,

Hatto yulduzlar ham yoqasin tutsin
Tan berib bu ziynat, bu ko'rk, ilmga.
Marg'ilon atlasin dovrug'i ketsin
Yetti iqlimga.

YO'L QO'SHIQLARI

I

Men umrimda qancha yo'l-u
Oshdim qancha bekatlar.
Poyim o'ndi qancha gul-u
Qancha maysa, ko'katlar.
Sahro,
 o'rmon,
 ko'prik usti,
Yolg'izoyoq tor so'qmoq.
Ko'rganlarim hammasini
Mushkuldir sanab o'tmoq.
Zavq bag'ishlab ko'ngillarga
Yashil yo'llar qolarkan,
Yangi-yangi manzillarga
Seni yo'llab qolarkan.

II

Ha, shu yo'llar borki, inson yuradi,
O'zini his etib o'ynoq ohuday.
Agar yo'l yurmasa, to'xtab turadi
Va asta quriydi tinch halqob suvday.
Shunday ekan, qirmi, adirmi oshib
Dala kezmoq kerak,

Yo'l yurmoq kekak.
Baxtiyor kelajak nasllarga deb
Lola uzmoq kerak,
Gul termoq kerak!

UMR

Umrni o'xshatar kim toshqin soyga,
Birov der, u chopqir bir daryosimon.
Uning ham, buning ham to'g'riligiga
Sira-sira qolmaydi gumon.
Suv tinchib turmaydi te'zob to'lqinlar
Xas-cho'pni irg'itib chopar manzilga.
Umr ham o'tadi o'tgan cha kunlar
Sezilmasdan ko'zga, na qo'lga.
Suv oqib o'tadi uning izidan
Barpo bo'lar bog'-bo'ston, hayot...
Umr oqib o'tar, u ham o'zidan
Qoldiradi ezgu xotiro't.



MUNDARIJA

Saida Zunnunova

Mening Vatanim. She'rlar.....3

Rasul Hamzatov

Vatan haqida. She'rlar (*E.Vohidov, O.Matjon, E.Muhammad, M.Boboyev, M.Ali, A.Mo'min, Z.Obidov, T.Qahhor, Y.Shomansur, N.Shukurov, R.Abdurashid tarjimalarida*)29

Asqad Muxtor

Zarradan quyosh. She'rlar.....67

Cho'lpon

Men shoirmi? She'rlar.....101

Mirtemir

Chashma bo'yida. She'rlar.....131

Xayriddin Saloh

Yulduzlar afsonasi. She'rlar.....189

Adabiy-badiiy nashr

MAKTAB ADABIYOTI XRESTOMATIYASI

Saida Zunnunova

Rasul Hamzatov

Asqad Muxtor

Cho'lpon

Mirtemir

Xayriddin Saloh

7-sinf

1 jild

G'oya muallifi va loyiha rahbari *Laziz Tangriyev*

Muharrir *O'tkir Yo'ldoshev*

Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*

Texnik muharrir *Yekaterina Koryagina*

Musahhih *Dono To'ychiyeva*

Kompyuterda sahifalovchi *Umida Valijonova*

Nashr. lits. AI № 154. 14.08.2009

Bosishga 2015-yil 10-noyabrda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 ^{1/32} Times New Roman garniturası.

Ofset bosma. 10,5 shartli bosma toboq. 6,68 nashr tobog'i.

Adadi 1000 nusxa. 603 raqamli buyurtma.

Bahosi shartnoma asosida.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa

ijodiy uyida chop etildi.

100128. Toshkent. Labzak ko'chasi, 86.

Telefon: (371) 241-25-24, 241-48-62, 241-83-29

Faks: (371) 241-82-69

www.gglit.uz

info@gglit.uz

KITOB – AQL CHIROG‘I!

G‘AFUR G‘ULOM

nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Siz aziz o‘quvchilar uchun **44** ta kitobdan
iborat

МАКТАВ

АДАБИЙОТИ

XRESTOMATIYASI

seriyasini taqdim etadi.

Endi Siz ushbu seriya ostida nashr
etilgan kitoblar orqali 5–9-sinf darsliklariga
kiritilgan barcha adiblarning asarlarini to‘liq
shaklda o‘qishingiz mumkin.

КИТОБ ОЛАМИ



Хрестоматия 7- синф № 1 жилд
9789943036871

Цена

6 620,6

сум

ISBN 978-9943-03-687-1



9 789943 036871